BIR BO‘LSAK – YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK – VATANMIZ!

www.mv-vatanparvar.uz

VATANPARVAR

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O‘ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan ● 2024-yil 13-dekabr, №50 (3112)



TO‘RT FASL HAM SAFDA SERGAKMIZ

4-5 YANGICHA RUH VA ZAMONAVIY QIYOFA

9 “BOBUR”DAN RANG OLGAN “BABURIN”

15 MAMLAKAT TARAQQIYOTINING MUHIM OMILI

18 OLIMPIADA CHEMPIONI BO‘LISHNI ISTARDIM

IJTIMOIY-SIYOSIY, MA’NAVIY-MA’RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

BIZ HAQIMIZDA

@ vatanparvar-bt@umail.uz

t.me/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

t.me/mv_vatanparvar_uz

facebook.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya

10-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi qabul qilingan kun

MADHIYAMIZNI

Serquyosh hur o‘lkam, elga baxt, najot,
Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!



OLIMP CHO‘QQISIDA BARALLA YANGRATGAN O‘ZBEK QIZI

Bu oltinga teng so‘zlar va qalbni erituvchi ohanglar bilan ijro etilgan madhiyamiz xalqimiz qalbida yuksak vatanparvarlik tuyg‘ularini kuchaytiradi. Ushbu muqaddas Vatan qo‘shig‘ini eshitib kamol topgan yoshlar bugungi kunda har bir sohada, jumladan sportda ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritib, madhiyamizning dunyo bo‘ylab yangrashiga sababchi bo‘lmoqda.

– Hamon yodimda! Fransiyaning Parij shahrida o‘tgan XXXIII yozgi Olimpiya o‘yinlarida oltin medalni qo‘lga kiritdim, – deydi dzyudo bo‘yicha tarixiy natijalar qayd etayotgan Diyora Keldiyorova. – O‘shanda g‘alabam sharafiga davlatimiz bayrog‘i baland ko‘tarildi, madhiyamiz yangradi. Buni dunyoning 200 dan ortiq mamlakatidan kelgan minglab sportchi, muxlislar tomosha qildi. To‘g‘ri bungacha bir qator nufuzli musobaqalarda zafar quchganman. Biroq bu g‘alaba mening qalbimda o‘chmas iz qoldirdi. Sababi dzyudo bo‘yicha to‘rt yillikning nufuzli musobaqasida shohsupaning eng yuqori pog‘onasida turib, g‘alabam sharafiga yangragan madhiyamiz men uchun ona allasidan ham yoqimli bo‘lgan edi.

TA’KIDLASH JOIZKI, davlat madhiyasiga alohida ehtirom bilan qarash O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining vatanparvarlik burchidir. Shuningdek, mamlakatimizda bo‘lib turgan boshqa shaxslar ham madhiyamizni hurmat qilishi shart. Madhiyamiz davlatimiz rahbarining turli mamlakatlarga rasmiy tashriflari chog‘ida, O‘zbekistonga kelgan xorijiy mamlakatlarning rahbarlarini kutib olish marosimlarida, yurtimizda o‘tayotgan umumxalq bayramlarida, yirik xalqaro anjumanlar, tinchlik va do‘stlik kelishuvlarida, sport musobaqalarida va sportchilarimizning xalqaro musobaqalarda eng baland shohsupaga ko‘tarilgan paytida baralla yangramoqda.

– Biz har bir musobaqada g‘olib bo‘lish uchun yillar mobaynida tayyorlanamiz, g‘alaba uchun qattiq kurashamiz, – deydi D. Keldiyorova. – Xalqaro musobaqalarga yo‘l olganimizda doimo Vatan sog‘inchi qalbimni o‘rtaydi. Mana shu sog‘inch g‘alabaga erishganimizda, davlatimiz bayrog‘i yuksak ko‘tarilganda, madhiyamiz yangraganda buyuk faxr ila taskin topadi. Har bir musobaqa arafasida Vatanimiz ramzlari – bayroq, madhiya va gerbimizni dunyo uzra tanitishga intilganman.

DIYORA KELDIYOROVA
1998-yil 13-iyul kuni Samarqandda tavallud topgan. Olti yoshida dastlab sambo, keyinchalik dzyudo sport to‘garagida shug‘ullanishni boshladi. Diyora tuman, shahar va viloyat miqyosidagi sport musobaqalarida toblanib, o‘z ustida tinimsiz mehnat qildi. 2013-yili Diyora Xitoyning Nankin shahrida o‘tkazilgan o‘smirlar o‘rtasidagi Osiyo o‘yinlarida 44 kilogramm vazn toifasida bronza medalni qo‘lga kiritgan. 2016- va 2018-yillarda dzyudo bo‘yicha yoshlar o‘rtasidagi Osiyo chempionatida ham bronza medallarga sazovor bo‘lgan.

2016-yili Toshkentda kattalar o‘rtasida o‘tkazilgan Gran-pri musobaqasida finalga qadar barcha raqiblarini yengib, kumush medal sohibiga aylandi. Shu yili Prezident qarori bilan Diyora Keldiyorova Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi. 2018–2022-yillarda o‘tgan jahon va qit’a birinchiliklari, Gran-pri hamda “Katta dubulg‘a” turnirlari kabi bir necha nufuzli musobaqalarda shohsupaga ko‘tarildi.

DIYORA KELDIYOROVA
2023-yilda Qatarning Doha shahrida o‘tkazilgan jahon chempionatida kumush, Gruziya va Mo‘g‘ulistondagi “Katta dubulg‘a” musobaqalarida oltin va bronza medal sohibiga aylandi. Xitoy mezbonligidagi Osiyo o‘yinlarining dzyudo musobaqalarida barcha raqiblarini yengib, Osiyo o‘yinlari g‘olibiga aylandi va delegatsiyamizga ilk oltin medalni keltirdi. Shuningdek, aralash jamoaviy bahslarda kumush medalga sazovor bo‘ldi.

Joriy yilgi mavsum esa dzyudochimiz uchun ham muvaffaqiyatlarga boy bo‘ldi. Dastlab Portugaliyada dzyudo bo‘yicha o‘tkazilgan Gran-pri musobaqasida, so‘ngra Ozarbayjonning Boku shahrida o‘tgan “Katta dubulg‘a” turnirida oltin medalni qo‘lga kiritdi. Yana bir ahamiyatli jihati ushbu g‘alabalar evaziga D. Keldiyorova jahon reytingi peshqadamiga aylandi. Hongkongda kattalar o‘rtasidagi Osiyo chempionatida bronza medal bilan taqdirlandi. Birlashgan Arab Amirliklarida tashkil etilgan jahon chempionatida ikkinchi o‘rindan joy oldi. Shu kabi nufuzli musobaqalarda toblangan Diyora Olimpiya o‘yinlari arafasida bir necha xalqaro o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlarida “Parij – 2024” Olimpiadasiga tayyorlandi. Davlatimiz rahbarining “2024-yili Parij shahrida *(Fransiya)* bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi qarori bunga muhim dasturilamal bo‘ldi.

YUQORI DARAJADAGI TAYYORGARLIK va o‘z oldiga qo‘yilgan ulkan maqsad o‘z samarasini berdi. Jumladan, dzyudochi qizimiz Fransiya poytaxti Parij shahrida XXXIII yozgi Olimpiya o‘yinlarida vazni 52 kilogrammgacha bo‘lgan ayollar o‘rtasidagi bellashuvlarda mamlakatimiz sharafini himoya qilgan Diyora Keldiyorova barcha raqiblarini mag‘lubiyatga uchratib, oltin medalga sazovor bo‘ldi va ushbu medal mamlakatimiz xotin-qizlari o‘rtasida Olimpiya o‘yinlari tarixidagi birinchi oltin medal sifatida tarix zarvaraqlariga oltin harflar bilan bitildi.

Diyora Keldiyorovaning ushbu muvaffaqiyati zamirida mamlakatimizda ayollar sportini rivojlantirishga qaratilayotgan katta e’tibor mujassam. Ilgari xotin-qizlarimizning xalqaro musobaqalarda ishtirok etishini tasavvur qilib bo‘lmas edi. Bunday nufuzli musobaqalardagi g‘alabalar haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas edi. Bugun esa bari o‘zgacha, xotin-qizlarimiz nafaqat sport, balki boshqa sohada ham ancha ilg‘or va yurt sharafini dunyo uzra yanada yuksaltirmoqda.

HA, BUGUN YURTIMIZDA Olimp cho‘qqisini zabt etishga qodir katta tajribaga ega sportchilar soni ko‘paymoqda. Ular dunyo arenalariga dadil qadamlar bilan kirib kelmoqda. Ana shunday ulkan zafarlarni qo‘lga kiritayotgan farzandlari bor yurtning kelajagi buyuk bo‘ladi. Umid qilamizki, Diyora Keldiyorova yangi-yangi cho‘qqilarini zabt etgan holda, ulug‘ xalqimizning muqaddas qo‘shig‘i – davlatimiz madhiyasini ko‘p bor dunyoga tanitishda davom etadi.

Javohir TOSHXO‘JAYEV
O‘zA

Uchinchi Renessans poydevori



TEMURXON NASLIDIN SULTON ULUG‘BEK...

Mirzo Ulug‘bek O‘rta Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan, butun umrini Vatan ravnaqi yo‘lida xizmat qilishga bag‘ishlagan buyuk alloma va davlat arbobidir.

Sharafiddin Ali Yazdiy o‘zining “Zafarnoma” asarida yozishicha, Amir Temur “besh yillik urush” *(1392–1396-yillar)* vaqtida Mordin qal’asini qamal qilib turganda uning huzuriga chopar kelib, 1394-yil 22-mart kuni Eron Ozarbayjonining Sultoniya shahrida Ulug‘bek tug‘ilgani haqidagi xabarni yetkazadi. Mirzo Ulug‘bek Shohruxning to‘ng‘ich o‘g‘li bo‘lib, onasi Gavharshod og‘a nufuzli qipchoq amirlaridan G‘iyosiddin tarxonning qizi bo‘lgan. Chopar munajjimlarning bashoratlarini Amir Temurga yetkazgan. Ular Amir Temurning bu nevarasi kelajakda ham olim, ham hukmdor bo‘lishini bashorat qilishgan. Amir Temur bu xushxabarni eshitgandan keyin Mordin qal’asi qamalini yechib, aholisiga omonlik bergan va ularga yuklatilgan to‘lovlardan ozod etgan. Nevarasiga esa Muhammad Tarag‘ay va Ulug‘bek deb nom qo‘ygan.

MIRZO ULUG‘BEK Movarounnahrni 40 yil *(1409-yildan 1449-yilgacha)* boshqargan. Uning hukmronlik davrida Movarounnahrda ko‘plab madrasa, masjid, xonaqoh, hammom, sardoba va karvonsaroylar qad ko‘targan, qabriston va ziyoratgohlar obod etilgan.

Mirzo Ulug‘bekning qilgan eng buyuk ishi Samarqand ilmiy maktabi va Dor ul-ilm akademiyasiga asos solganidir. Samarqand akademiyasi 1010-yilda Gurganchda tashkil qilingan Ma’mun akademiyasidan keyingisi Dor ul-ilm edi. Akademiyada 100 nafardan ortiq olim faoliyat olib bordi. Bular ichida Taftazoniy, Hamza ibn Ali Tusiy, Mavlono Badriddin, Qozizoda Rumiy, Said Sharif Jurjoniy, Mavlono Ahmad, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy va uning shogirdi Ali Qushchini misol qilib keltirish mumkin. Ilmiy izlanishlar olib borish uchun Samarqandda ikkita madrasa, shahar yaqinida rasadxona qurilgan.



MIRZO ULUG‘BEK RAHNAMOLIGIDA qurilgan inshootlar ichida uning rasadxonasi alohida o‘rin egallaydi. Ulug‘bek rasadxonasi o‘rta asr arxitekturasining eng nodir namunalaridan biri hisoblanadi. Ushbu rasadxona Mirzo Ulug‘bek farmoni bilan 1428–1429-yillarda Ko‘hak *(Cho‘ponota)* tepaligida ulkan silindr shaklida bunyod etilgan. Boburning “Boburnoma” asarida qayd etilishicha, Ulug‘bek rasadxonasining binosi uch qavatli bo‘lib, uning balandligi 30,4 metr, imorat aylanasi esa 47 metrga teng bo‘lgan. Unda o‘ndan ortiq turli astronomik qurilma va asboblar mavjud bo‘lgan. Bu asboblar yordamida Quyosh, Oy, sayyoralar, alohida yulduzlar kuzatilgan va o‘rganilgan. Rasadxona ichi ham koinot, Yer kurrasi tasvirlari bilan bezatilgani uchun xalq orasida uni “Naqshi jahon” deb atashgan. Ulug‘bek rasadxonasi qoshida 15 ming jilddan iborat boy kutubxona ham mavjud bo‘lgan.

MIRZO ULUG‘BEK RASADXONASIDA G‘iyosiddin Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi o‘sha davrning mashhur olimlari faoliyat ko‘rsatgan. Ulug‘bek rasadxonasida jamlangan ma’lumotlar asosida jahonda mashhur bo‘lgan “Ziji Ko‘ragoniy” asarini yozgan. Mirzo Ulug‘bek hukmronligi yillari Samarqandda ilm-fan ravnaqi tufayli bu davrni **“Samarqandning oltin asri”** deb atalishiga sabab bo‘ldi.

1425-yilning erta bahorida Mirzo Ulug‘bek Mo‘g‘ulistonga yurish qilib, Issiqko‘l yaqinida ko‘chmanchi turk-mo‘g‘ul qabilalarini tor-mor keltiradi. Bu xususda Ulug‘bek tomonidan Jizzaxning Ilono‘tdi darasida lavha ham yozdiriladi. Toshkentdan Samarqandga olib boruvchi yo‘l ustida, Jizzax yaqinida joylashgan tor daraga kiraverishdagi qoyaga o‘yib bitilgan quyidagi yozuv hozirga qadar yaxshi saqlanib qolgan: **“Allohning ko‘magi bilan ellar va xalqlarni fath etguvchi ulug‘ sulton, Allohning Yer yuzidagi soyasi, Alloh suygan shohlarining madadkori Ulug‘bek mo‘g‘ul o‘lkasiga bir qator harb yurishlari uyushtirdi hamda ulardan sog‘ va omon qaytdi”**.

Mirzo Ulug‘bekning she’riyat, musiqa, me’morchilik, matematika va ayniqsa, astronomiyaga iqtidori kuchli edi. Bu ulug‘ alloma va ijodkor ajoyib bir to‘garakka asos soladi, atrofiga iqtidorli olimlarni yig‘ib, tadqiqotchilar guruhini boshqaradi, bilimdon va izlanuvchan shogirdlar tayyorlaydi.

Mirzo Ulug‘bek o‘z atrofiga shoir, san’atkor va olimlarni jamlab, rejalashtirgan ishlarni amalga oshiradi. Bobosi Amir Temur kabi buyuk bunyodkor bo‘lgan Ulug‘bek Samarqand va Buxoroda g‘aroyib bog‘lar va saroylar barpo qildi. U dunyodagi eng katta gumbazli xonaqoh bunyod ettirdi, devorlariga turfa ranglardagi tarashlangan toshlar qoplangan ajoyib hammomlar qurdirdi, butunlay yaltiroq yog‘ochdan yasalgan xitoy rasmlari bilan bezatilgan masjid, aniq fanlar ham o‘rgatiladigan madrasalar barpo etildi, Buxoro madrasasi darvozasi peshtoqiga hadisi sharifdan olingan quyidagi shiorni ildirib qo‘ygan edi: **“Bilim olish har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdir”**.

MIRZO ULUG‘BEK Amir Temur qurdirgan Go‘ri Amir maqbarasining kam-ko‘stini did bilan to‘ldirdi, kichik o‘g‘liga Shohi Zinda qabristoniga kiraverishga mustahkam darvoza qurdirishni yukladi. Mashhur Samarqand rasadxonasi qurib bitkazilgach, rasadxona joylashgan tepalik atrofida bog‘ barpo qilingan, Bog‘i Maydonda ajoyib “qirq ustunli saroy” va minorasi Xitoy chinnisidan tiklangan afsonaviy ayvon qurilgan. “Ulug‘bek zamonasida olimlar eng yuksak lavozimlarga ko‘tarildi, munosib odamlar munosib mansablarga qo‘yildi”, deb yozadi o‘sha zamona muarrixi Davlatshoh Samarqandiy.

Ulug‘bek musiqa ham bastalagan va o‘zi ijro etgan. Uning xotirasi nihoyatda o‘tkir edi, bir guvohning quyidagi latifasi buni yaqqol tasdiqlaydi.

Ulug‘bek mohir sayyod bo‘lgan va o‘zi ovlagan jonivorlar, ularning tur va xillari, ov sanasi hamda tafsilotlari bitiladigan bir daftar tutgan. Kunlardan bir kuni kimdir shu daftarni yo‘qotib qo‘yibdi. Ulug‘bek uni jazolash o‘rniga, mirzalarini chaqirib, yo‘qotilgan daftar mazmunini yoddan aytib turib, qayta tiklagan. Biroq bir necha kundan keyin yo‘qotilgan daftarni topib oladilar va ikkisi qiyoslab ko‘riladi, shunda ularning orasida atigi ikki-uchta farq chiqqan xolos. Mirzo Ulug‘bek Qur’oni Karimni yetti qiroat turi bo‘yicha yoddan o‘qigani ham ma’lum.

Mirzo Ulug‘bek riyoziyotchilar, falakiyotshunos va faylasuflarga alohida hurmat-ehtirom ko‘rsatgan. Ulug‘bek ularni tez-tez qabul qilib, nafaqalar belgilab, harbiy amaldorlarning xurujlaridan va mutaassib ulamolarning tazyiqlaridan doim himoya qilib borgan.

“ZIJI JADIDI KO‘RAGONIY” deb ham ataluvchi jadval XVII–XVIII asrlarda Yevropada juda mashhur bo‘lgan. Yan Geveliyning “Astronomiya darakchisi” kitobida berilgan gravyurada *(XVIII asr)* o‘rtada astronomiya ilohasi Uraniya, uning o‘ng tomonida Mirzo Ulug‘bek, Yan Geveliy, chap tomonida Ptolemey, Bragel Tixo *(daniyalik astronom)*, Richchi Ole *(italiyalik olim)*lar tasvirlangan. Gollandiyalik ustalarning gravyuralarida Mirzo Ulug‘bekning tasvirlanishi unga bo‘lgan yuksak hurmat va ehtiromning namunasi edi.

Mirzo Ulug‘bek 30 yildan ortiq Samarqand olimlari guruhiga rahbarlik qildi va tadqiqotlarda bevosita ishtirok etdi. Astronomik raqamlar va shartli belgilar bilan to‘ldirilgan sahifalarning soni yildan yilga ortardi. Birinchi bo‘lib Ulug‘bek o‘zining ustozi deb hisoblagan Qozizoda Rumiy va G‘iyosiddin Koshiy olamdan o‘tdi. Uning ishlarini o‘zining eng yosh shogirdi, mashhur falakiyotchi Ali Qushchi davom ettirdi.

Keyinchalik Ulug‘bekning tinchliksevar siyosatidan norozi turli guruhlar bilan kuchaytirilgan qo‘shinga qo‘mondonlik qilgan Abdulatif otasining lashkarlarini Samarqand qarshisida mag‘lub qiladi. Ulug‘bek o‘zini Makkaga kuzatib boradigan karvonni kutib turgan bir paytda bir guruh askar unga tashlanadi va 1449-yilning 27-oktabrida xoinona qatl qilinadi. Ulug‘bek o‘z bobosining yoniga, Go‘ri Amir maqbarasiga dafn etildi. Uning qabr toshiga bitilgan **“Padarkush Abdulatifga la’natlar bo‘lsin”** yozuvni hozirgi kunda ham o‘qish mumkin. Mirzo Ulug‘bek olamdan o‘tgach, Abdulatif tayinlagan hokim olimlar va shoirlarni quvg‘in ostiga oladi, ular shoshilinch ravishda shaharni tark etadi, rasadxona asta-sekin xarobaga aylanadi.

MIRZO ULUG‘BEK vafotidan so‘ng uning Samarqanddagi mashhur kutubxonasi xavf ostida qoladi. Kutubxonani Ali Qushchi saqlab qolgan degan taxminlar ham bor, rivoyatlarga qaraganda, kutubxonadagi kitoblarning ko‘p qismini Ali Qushchi Samarqand yaqinidagi Hazrat Bashir *(Hazrati Bashir)* qishlog‘iga ko‘chirgan. Shuningdek, Samarqand falakiyotchilarining buyuk asari “Ziji jadidi Ko‘ragoniy”ni ham Ulug‘bekning so‘nggi shogirdi va do‘sti Ali Qushchi saqlab qolgan. Ko‘p o‘tmay, Ali Qushchi ta’qiblardan qochib, Samarqanddan chiqib ketishga majbur bo‘ladi. U avval Karmana va boshqa shaharlarda yashab, 1465-yili Turkiyaning Istanbul shahriga boradi. Turk sultoni Muhammad II *(1451–1481)* taraqqiyparvar shaxs bo‘lib, o‘z atrofiga olim va shoirlarni to‘plar edi. Ali Qushchining dong‘ini eshitgan sulton uni saroyga taklif qiladi va olimlarga rahbar etib tayinlaydi. Ali Qushchi Turkiyada olimlar, faylasuf, shoirlarni o‘z atrofiga to‘plab, ilmiy ishlarni taraqqiy ettirishga intiladi, o‘zi esa riyoziyot, falakiyot, falsafa, mantiq, adabiyot, musiqa va boshqa fan sohalari bo‘yicha risolalar yozadi.

Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi XVI asrga kelib qarovsiz qolgan va vayronaga aylangan. 1908-yilda arxeolog, professor V. Vyatkin rahbarligida olib borilgan qazishma ishlari natijasida Ulug‘bek rasadxonasining qoldiqlari topiladi. 1948-yilda rasadxonaning yerosti qismi ta’mirlanib, keyinchalik muzeyga aylantirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-sentabrdagi “Buyuk qomusiy olim Mirzo Ulug‘bek tavalludining 630 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori, ayniqsa davlat arbobi, temuriylar davlatining buyuk hukmdori Muhammad Tarag‘ay Mirzo Ulug‘bekning boy ilmiy-ma’rifiy merosi, mislsiz bunyodkorligini yanada chuqur o‘rganish orqali harbiy xizmatchilarni intellektual va ma’naviy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

MIRZO ULUG‘BEKNING faoliyati keyinchalik **“Temuriylar davri uyg‘onish madaniyati”** deb nom olgan madaniyatga asos solinishiga yoki Ikkinchi Renessans hodisasining shakllanishiga munosib hissa qo‘shdi. Xulosa qilib aytganda, yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan Uchinchi Renessans poydevorini qurishda Mirzo Ulug‘bek yaratgan asarlar g‘oyaviy-ma’naviy asos bo‘lib xizmat qilishi va uning ilmiy merosi tarixdagi bunyodkor g‘oyalardan saboq olgan holda yoshlarni vatanparvarlik, tarixga hurmat, yurtga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga katta hissa qo‘shishi aniq.

Sh. ALIMOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
Milliy iftixor va harbiy-vatanparvarlik
kafedrasi dotsenti

Islohotlar samarasi





YANGICHA RUH

Poytaxtimizning Olmazor tumanida joylashgan “G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasi hududida yangitdan bunyod etilgan Mudofaa vazirligi Ma’naviyat va madaniyat departamenti binosining tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi, Mudofaa va Madaniyat vazirliklari rahbariyati, turli idora va jamoat tashkilotlari mas’ullari, ijod ahli va ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.



Tadbir ishtirokchilari dastlab yangi bino va unda yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishib, vazirlikning ijodiy muassasalari va axborot xizmatida olib borilayotgan ishlar, “Turon” davlat harbiy teatri, “Armiya studiyasi” pavilyoni imkoniyatlarini ko‘zdan kechirdi.

Mazkur inshoot 4 qavatdan iborat bo‘lib, uning 1- va 2-qavatida vazirlik Ma’naviyat va madaniyat departamenti, 3-4-qavatida esa Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti faoliyat olib boradi.

Departament mutlaq yangi tarkibiy-shtat tuzilishida tashkil etilib, unga Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambli, Alohida ko‘rgazmali-namunali harbiy orkestr, Qurolli Kuchlar davlat muzeyi, “Turon” davlat harbiy teatri biriktirildi. Shuningdek, joylardagi 5 ta garnizon ma’naviyat va ma’rifat markazlari, **16 ta harbiy orkestr hamda 56 ta harbiy qism madaniyat markazlari** faoliyatini muvofiqlashtirish ham departament zimmasiga yuklatildi.



Zamonaviy talab va format asosida ishga tushgan muassasada **277 o‘ringa mo‘ljallangan** katta anjumanlar zali, teatr xonalari, ansamblning vokal, xor, balet va sozandalar guruhlari uchun alohida repetitsiya xonalari hamda ovoz yozish studiyasi barpo etilib, zamonaviy uskunalar bilan jihozlandi. Universal anjumanlar zalida nafaqat anjumanlar, balki ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, jonli ijrodagi konsert dasturlari, teatr tomoshalarini namoyish etish, hatto kinozal sifatida foydalanish uchun ham barcha zarur sharoitlar yaratildi.

Binoning 3- va 4-qavatida Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti joylashgan bo‘lib, u mudofaa sohasidagi islohotlarni ommaviy axborot vositalari orqali keng targ‘ib qilish, vazirlik faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash hamda armiya hayotiga oid ma’lumotlarni aholiga tezkor ravishda yetkazib boradi. Departament axborot-media va “Vatanparvar” birlashgan tahririyati boshqarmalari, elektron ommaviy axborot vositalari va veb-resurslar bilan ishlash hamda faoliyatni ta’minlash bo‘lim va bo‘linmalarini o‘z ichiga oladi.





Bahrom ABDURAHIMOV

Kichik serjant Ixtiyor MAMAJONOV

VA ZAMONAVIY QIYOFA



Tantanali ochilish marosimiga bag‘ishlangan yig‘ilish O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi hamda qator hamkor tashkilotlar ishtirokida **“Harbiy xizmatchilarda yuksak vatanparvarlik, yurtga fidoyilik sifatlarini yuksaltirishda madaniyat va san’atning o‘rni”** mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya bilan davom etdi.

Konferensiyani O‘zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri general-mayor Shuxrat Xalmuxamedov kirish so‘zi bilan ochib berdi. Shundan so‘ng sohaga bevosita aloqador tashkilotlar rahbarlarining **“Vatan himoyachilarining jangovar va milliy ruhini oshirishda madaniyat va san’atning o‘rni”, “Yoshlarda milliy o‘zlikni anglash, Vatan taqdiriga daxldorlik hissini yuksaltirishda teatrning roli”, “Harbiy jadidlar xotirasi barhayot”** kabi bir qator mavzulardagi ma’ruzalari tinglandi.

Shundan so‘ng xalq va armiya birdamligini ta’minlash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda vazirlik qo‘shinlarida ma’naviy va ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishga munosib hissa qo‘shib kelayotgan davlat va jamoat tashkilotlarining bir guruh vakillari Mudofaa vazirligining esdalik nishonlari bilan taqdirlandi.

Tadbirning badiiy qismi Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambli, Mudofaa vazirligi “Impuls” harbiy ansambli xonandalari va xor jamoasi, shuningdek vazirlikning Alohida ko‘rgazmali-namunali harbiy orkestri ijrosidagi konsert dasturlari, Mudofaa vazirligi “Turon” davlat harbiy teatri tomonidan sahnalashtirilgan kompozitsiya namoyishlari bilan davom etdi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondonining tegishli qarori bilan Ma’naviyat va madaniyat departamentining tashkil etilishi chin ma’noda Mudofaa vazirligi tizimida avval tarqoq bo‘lgan madaniyat va san’at yo‘nalishlari faoliyatni muvofiqlashtirib, ularni aniq maqsad yo‘lida birlashtirdi.

Kapitan Bobur ELMURODOV,
“Vatanparvar”



Bugungi kunda departament tomonidan davlat va nodavlat telekanallari bilan hamkorlikda harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishidagi “O‘zbekiston armiyasi”, “Vatanparvar”, “Armiya sporti”, “Men harbiy bo‘laman!” ko‘rsatuvlari, informatsion dasturlar uchun xabar va lavhalar, shuningdek buyuk ajdodlar hamda milliy qahramonlarimizni madh etuvchi videomateriallar doimiy ravishda tayyorlab kelinmoqda.

Shu bilan birga, Qurolli Kuchlarimizda olib borilayotgan islohotlar, tizimdagi yangilik va xabarlar tezkor tayyorlanib, rasmiy veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritilmoqda. Faoliyatning ochiqligini ta’minlash va sohadagi axborotlarni keng ommaga targ‘ib qilish maqsadida respublika axborot agentliklari, elektron nashrlar va blogerlar bilan mustahkam aloqalar o‘rnatilgan.

Ayni paytda departament faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida telekanallar va maxsus loyihalar bilan ishlash xonalari, ovoz yozish va 7 ta telemontaj xonasi hamda 300 kv metrga ega bo‘lgan “Armiya studiyasi” pavilyoni o‘z faoliyatini muntazam davom ettirmoqda. Milliy armiyamizning shonli tarixini aks ettirayotgan “Vatanparvar” gazetasi tahririyati ham ushbu binoda yuqori qulayliklar asosida ish olib bormoqda.

KASBIGA SODIQ EGIZAKLAR



Kasbning yomoni bo‘lmaydi. Eng muhimi – inson tanlagan ishini sevishi, jamiyatda o‘z o‘rnini topa olishi ahamiyatli. Shundagina sidqidildan mehnat qilib, Vatanga sadoqatini namoyon eta oladi...

Namanganlik Hoshimjon Ismoilov farzandlari tarbiyasida ana shu falsafaga tayangan holda ish tutdi. Chunki u egizak o‘g‘illari Hasanboy va Husanboyning yoshlikdan turmush tarzini o‘z idealidagi insonga xos muvofiqlashtirishga harakat qilishini payqay oldi. Farzandlarining tank va boshqa harbiylarga xos sovg‘alarga qiziqishi, o‘sha paytlarda televideniyeda namoyish etilgan buyuk Amir Temur haqidagi film qahramoniga taqlidlarini ko‘rgan Hoshimjon aka, birinchi navbatda, ularning jismonan yetuk bo‘lishi uchun sport maktabidagi mashg‘ulotlar ayni muddao bo‘lishini ta’kidladi. Otasining maslahati va ko‘magi bilan Hasanboy va Husanboy ta’limni Uchqo‘rg‘on tumanidagi sportga ixtisoslashtirilgan 20-maktab-internatiga ko‘chirdi. Bu yerda ular Hasanboy Ergashev hamda Lemar Menaliyevdan boks va erkin kurash bo‘yicha ilk saboqlarni oldi. Maktabni a’lo baholarga tamomlagan egizak aka-ukalar muddatli harbiy xizmatga borishga qaror qildi.

Kerakli hujjatlar to‘planib, tuman mudofaa ishlari bo‘limiga, keyin esa viloyat boshqarmasiga taqdim etildi. Tibbiy ko‘riklardan muvaffaqiyatli o‘tdi. 2012-yili Hasanboy va Husanboy Abdumannobov Surxondaryo viloyati, Angor tumanidagi harbiy qismga yigitlik burchini o‘tadi. Muddatli harbiy xizmatni a’lo darajada o‘tagandan keyin kontrakt bo‘yicha xizmatga qoldi. Shunday qilib, aka-ukalarning professional harbiy xizmatchi sifatidagi haqiqiy hayoti boshlandi. Oradan bir yil o‘tib, ya’ni 2014-yili Hasanboy Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurtining kursantiga aylandi. U yoshligidan tashabbuskorligi va yetakchiligi bilan boshqalardan ajralib turishni maqsad qilganini Vatanga qasamyod qilish marosimida barchaga namoyish qildi. Marosimda so‘zga chiqib, “Vatanga qasamyod” she’ri bilan ko‘pchilikning olqishiga sazovor bo‘lgandi. O‘shanda uning she’ri “Vatanparvar” gazetasining 2014-yil 5-sentabr sonida katta leytenant *(hozirda podpolkovnik)* Ahror Ochilov tomonidan yozilgan “Yurak amri ila yangrar yigit qasami” nomli maqola sarlavhasiga asos bo‘lib xizmat qilgandi.

Vatan senga mehrim bo‘lakcha,
Onam kabi jonday asrayman.
Ontim qat’iy to o‘lgunimcha,
Qasamimdan aslo qaytmayman.

Sening madhing bilan yashadim,
Boshqa so‘zni endi aytmayman.
Harbiy bo‘lib qadam tashladim,
Qasamimdan also qaytmayman.

Ushbu jumlalar Toshkent garnizonida xizmat burchini o‘tayotgan kapitan Hasanboy Abdumannobovga tegishli. Hasanboy bilim yurtidagi o‘qishi davomida ham yuqoridagi xislatlari bilan kursdoshlari orasida ajralib turardi. “Quvnoqlar va zukkolar” jamoasi tarkibida, sport musobaqalarida o‘zi tahsil olayotgan bilim maskani sha’nini munosib himoya etardi.

Ofitser unvoniga erishib, qo‘shinlardagi xizmat faoliyatida ham izlanishdan to‘xtamadi. “Eng ilg‘or boshlang‘ich tashkilot yetakchisi” ko‘rik-tanlovlarida muntazam qatnashib keladi. Harbiy lavozimiga tegishli vazifalarni bajarishdan tashqari, o‘ziga biriktirilgan hudud yoshlari bilan ham yaqindan ish olib boradi. Men kapitan Hasanboy Abdumannobovni “Bir bo‘lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!” shiori ostida o‘tkazilgan harbiylashtirilgan sport musobaqasining Toshkent shahri bosqichida kashf qilganman. O‘sha musobaqada Hasanboy Yashnobod tumanida istiqomat qilayotgan tarbiyasi og‘ir va ro‘yxatda turuvchi yoshlardan mustahkam jamoa shakllantirganini amalda ko‘rsatdi. Musobaqa shartlari davomida u jamoasini chetdan o‘z farzandlaridek qo‘llab-quvvatlayotgani diqqatga sazovor edi.

– Maktabda o‘qib yurgan kezlarimiz do‘stlarimiz ko‘p bo‘lgan, – deya eslaydi egizaklarning kichigi. – Eng yaqin do‘stim esa akam Hasanboy edi, albatta. Chunki har qanday vaziyatda bir-birimizni himoya qilardik. Hovlimizda va ko‘chada taxta yoki simdan qilich yasab, kinofilmlardagi kabi qilichbozlik qilardik. Qo‘lbola kamondan otish bo‘yicha o‘zaro bahslashardik. Hasanboy maktabni bitirgunimizcha sinfimiz sardori bo‘lgan. Shuning uchun ustozlar uni lider deb atashardi. Men esa boksda va kurashda akamdan jismonan kuchliroq edim. U ko‘proq tarix, aniq fanlar va adabiyotga qiziqardi. She’r yozib turishi shundan bo‘lsa kerak. Qiziqishlari tufayli “General bo‘laman!” deb maqtanib qo‘yardi. Men akamdan biroz farqli ravishda aniq fanlar hamda chizmachilikka qiziqqanman. Hozir ajdodlarimizdan meros bo‘lib kelayotgan turli naqshlarni chizib turaman.

Hasanboyning aytishicha, ularni faqat onalari Nasiba aya hamda opalari Gulhayo Hasan-Husanga ajrata olar ekan. Hatto otasi Hoshimjon aka turmush o‘rtog‘i va qizining yordami bilan o‘z o‘g‘illarini tanib olishi barchani ajablantirishi tabiiy. Boshqalarni qo‘yavering. Gap shundaki, Hasan-Husan Abdumannobovlar bir-biriga tomchi suvdek o‘xshash. Men ularni harbiy unvonidan ajratib oldim. Bir tomchi suvdek o‘xshashligi bilan aloqador ikkita voqeani aytib berganda xayolimdan egizak farzand bo‘lish qiyin ekan, degan o‘y o‘tdi. Negaki, bir kuni bilim yurtida o‘qib yurgan akasini ko‘rishga kelgan Husanboy Hasanboyning guruh komandiridan dashnom eshitadi. Nazorat o‘tkazish joyida akasining chiqishini kutib turganda, qo‘l ostidagi fuqaro kiyimidagi Hasanboyni ko‘rgan guruh komandiri kursantim o‘zboshimchalik bilan shahar aylanishga ketyapti deb o‘ylagan-da! Vaziyatni bilgandan keyin esa aka-ukalar diydorlashib olishi uchun Hasanboyga ikki kunlik ta’til bergan. Ikkinchi voqeada tanish harbiy xizmatchilardan biri Hasanboyni Husanboyga adashtirib, ikki-uch marta jiddiy hazillashishgacha boradi. Keyin esa egizaklik nafaqat ularning o‘zlariga, balki atrofdagilarga ham noqulaylik tug‘dirishi mumkinligini aytib kechirim so‘ragan.

Shu o‘rinda muddatli harbiy xizmat davomida va undan keyin komandirlari, safdoshlari egizaklarni qanday ajratib olgan degan savol tug‘iladi. Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurtida ham birga o‘qib, bir xil harbiy unvonda bo‘lishganida qanday bo‘lardi? Hasan-Husan bilan suhbatlashish jarayonida ularni farqlab olish sirini bilib oldim. Ikkovi ham yoshlar yetakchisi bo‘lsa-da, ish uslublari boshqa-boshqa. Bundan tashqari, hech bo‘lmaganda, she’riyatga yoki chizmachilikka qiziqishini so‘rab bilib olish mumkin. Nima bo‘lganda ham Hasanboy va Husanboy Abdumannobovlar Vatan himoyasi yo‘lida xizmat qilishdan tashqari, davlatimiz rahbarining yoshlar siyosati yo‘lida amalga oshirayotgan muhim ishlarida o‘zlarining munosib hissasini qo‘shib kelmoqda.

Aka-uka Abdumannobovlar faoliyatini qisman ochib bermoqchi bo‘lgan maqolani tugatar ekanman, nima uchun Husanboy ofitserlikka o‘qimagan degan savolga ham ochiqlik kiritib o‘tish joiz. U otasiga o‘xshab kasbning yomoni yo‘qligini anglay oldi va shu bois Vatanga sadoqatini serjantlik unvonida namoyon etib kelmoqda.

Asror RO‘ZIBOYEV,
“Vatanparvar”

Taraqqiyparvarlar

TURKISTONDA



MILLIY MATBUOT VA JADIDCHILIK

XX asrning boshlarida Turkiston jadidlari faqat badiiy ijod, ilmiy faoliyat, maktab va maorif islohoti masalalari bilangina emas, ayni paytda milliy matbuotni shakllantirish masalalari bilan ham jiddiy shug‘ullandi.

Bir tomondan, o‘zbek jadidchilik harakatiga oziq bergan kuchlar millatning o‘tmishida yashab o‘tgan buyuk alloma va mutafakkirlar bo‘lib, ularning ma’naviy-ilmiy merosini o‘rganish orqali xalqimiz qanchalik yuksaklikka erishgan ekan, jadidlar ham o‘tmish ma’naviyatini bilish va uning ayrim muammoli o‘rinlarini isloh qilish yo‘lidan borganlari ma’lum haqiqat. Isloh qilish uchun esa har bir ma’naviy merosning o‘z davri va shu kundagi ahamiyatini belgilash, uning kelajakka daxldorlik darajasini aniqlash hamda ularni xalqning milliy yuksalishi uchun o‘ziga xos shakllarda yetkazib berish zarur edi.

Bu haqda taniqli fitratshunos olim H. Boltaboyev shunday yozadi: *“Turkiston tarixiga olamshumul o‘zgarishlarning muallifi sifatida kirgan jadidchilik nafaqat Markaziy Osiyoda, balki Yevroosiyoda ham ahamiyatli iz qoldirgani uchun u jahon afkori ilmiyasi tomonidan e’tibor bilan o‘rganilmoqda... Jadidchilik o‘z xalqini ozod va yurtini obod ko‘rish shiorini o‘rtaga qo‘yish barobarida uning oliy pirovard niyati xalqning o‘z shonli tarixi, madaniyati bilan jahon afkori umumiyasiga tanitishni istadi. Shuning uchun ham jahonni titratgan Temur qilichining zarblari va jahon adabiyotida yangi sahifa yaratgan Navoiy qalami jadidchilar uchun zamon timsoliga aylandi. O‘tmishni ideallashtirish orqasida yangi va yuksak jamiyat yaratib bo‘lmasligini yaxshi anglagan jadidchilar o‘tmish merosini o‘zlashtirish barobarida jahonning eng taraqqiy etgan millatlari sifatida o‘zini ko‘rishni istadi. Biroq bu ildizlardan yaralgan daraxt quyoshga bo‘y cho‘zib, Iymon, Milliy shuur va Istiqlol kurtaklarini chiqargunga qadar mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tdi va ko‘p qurbonlar berdi”*.

JADIDCHILIK HARAKATI Turkistonga Rusiya istilosi tufayli kirib kelgan temiryo‘l, matbaa va matbuot imkoniyatlaridan ham foydalanishga harakat qildi. Garchi rus oxrankasi jiddiy qarshilik ko‘rsatganiga qaramay, “Туркестанские ведомости” gazetasining turkcha *(N. Ostroumov ta’biricha, “sartcha”)* ilovasi bo‘lgan “Turkiston viloyatining gazeti”da Furqat, Sattorxon kabi o‘zbek shoir va ziyolilarining maqolalari ham e’lon qilinib turdi.

Sattorxonning bir qator asarlarida sud va davlat tuzilishi, poraxo‘rlik, mahalliychilik, ichki nizolarni yo‘qotish kabi xilma-xil masalalar yuzasidan bildirgan fikrlari hanuzga qadar o‘z qimmatini yo‘qotmagan. Sattorxon rus fani va madaniyatining dastlabki targ‘ibotchilaridan biri sifatida maydonga chiqdi. **U “Turkiston viloyatining gazeti”da e’lon qilgan maqolalarining birida *(1890-yil 14-may sonida)* bunday deb yozgan edi**: *“Biz rus xalqi yordamida Ovro‘pa xalqlari bilan aloqa o‘rnatishimiz mumkin, buning natijasida biz umumbashariy hayot va ilmiy taraqqiyotning ishtirokchilariga aylanamiz”*.

“TURKISTON VILOYATINING GAZETI”GA o‘ttiz besh yil davomida muharrirlik qilgan N. Ostroumov, o‘z navbatida, Rossiya va Yevropa madaniyati hamda hayot tarzini targ‘ib qilishga katta e’tibor qaratdi. Uning gazetasida Rossiya va Yevropaga sayohat qilgan bir qator o‘zbek tujjorlari va ziyolilarining sayohatnomalari muntazam ravishda e’lon qilindi. Masalan, 1887-yilda Xarkovda bo‘lib o‘tgan qishloq xo‘jaligi ko‘rgazmasida ishtirok etgan samarqandlik savdogar Mirza Buxarinning Boku, Xarkov, Moskva va Peterburg taassurotlari *(1888, 4–7-sonlar)*, toshkentlik savdogar Tojimuhammad Isamuhamedovning 1900-yilda Boku–Istanbul yo‘li orqali Parijga qilgan sayohati *(1900, 44-45-sonlar)*, gazeta muharrirlaridan Sattorxon Abdug‘afforov *(1893)*, shoir Zokirjon Furqat *(1891, 22–28, 32-sonlar)*, Xudoyorxonning kichik o‘g‘li Ibn Yaminbek *(1893, 20-son)*, toshkentlik savdogar Orifxo‘janing *(1894, 28-son)* sayohatnoma va xotiralari gazeta sahifalarida e’lon qilindi.

1906-YIL 27-IYUNDA Turkistonda birinchi jadid matbuotining qaldirg‘ochi bo‘lgan “Taraqqiy” *(Ismoil Obidiy muharrirligida)* gazetasi, 6-sentabrdan esa Munavvarqori boshchiligidagi bir guruh jadidlar “Xurshid” gazetasini chiqara boshlaydi. Gazetaning 10-soni dunyo yuzini ko‘rganidan keyin u hukumat tarafidan yopildi. 1907-yildan Abdulla Avloniyning “Shuhrat” gazetasi chiqa boshladi. 1912-yildan Buxoroda “Buxoroyi sharif” nashr qilina boshladi. Fors tilida chiqa boshlagan bu gazetaning Markaziy Osiyoning tubjoy aholisi bo‘lgan turklar tilida emas, Navoiy sart tili deb atagan forsiyda chiqishi nafaqat turkistonliklarni, balki xorijdagi ayrim turkshunoslarni o‘ylatib qo‘ydi. “Turk yurdi” jaridasi bu holdan ajablanib maxsus maqola bag‘ishlagani yapon olimi professor Xisao Ko‘matsuning tadqiqotlaridan ma’lum. Ehtimol, ushbu tanqidlar sabab bo‘lib gazetaga o‘zbek tilida haftalik “Turon” ilovasining nashr etilishi yo‘lga qo‘yildi.

1913-YILNING aprel oyida chiqa boshlagan “Samarqand” gazetasiga mufti Mahmudxo‘ja Behbudiy mas’ul muharrir etib tayinlanadi. O‘zbek, fors va rus tillaridagi maqolalar e’lon qilingan bu gazeta sahifalarida Mirzohid Miroqilov, Akobir Mansur, Hoji Muin kabi jadid ziyolilarning asarlari ham o‘rin egallagan edi. Olti yuzga yaqin nusxada tarqalgan bu gazetaning 45-soni chiqqanidan keyin mablag‘ tanqisligi sababli yopiladi. 1913-yil 20-avgustdan e’tiboran esa Behbudiy o‘zining “Oyina” jurnalini chiqara boshlaydi. Uning sahifalarida Munavvarqori, Mahmud Sattor, Akobir Mansurlarning bir qator maqolalari o‘rin egallagan bo‘lib, jurnal “Millat, islomiyayi saodat” shiorini ko‘targan edi. Ammo “Oyina” jurnali ham 136-soni e’lon qilinganidan keyin 1915-yil 15-iyunda yopiladi.

1914-YILDAN nashr etila boshlagan “Sadoyi Turkiston” jadidchilik tarixida chuqur iz qoldirgan nashrlardan biri edi. Uning bosh muharriri Ubaydullaxo‘ja Asatillaxo‘jayev bo‘lib, gazeta ishlariga Munavvarqori va Abduraufzoda yaqindan yordam bergan. “Sadoyi Turkiston” bilan deyarli ketma-ket nashrga chiqqan “Sadoyi Farg‘ona” gazetasining ishiga Obidjon Mahmudiy muharrirlik qilgan. Professor B. Qosimov 1917-yil fevral voqealaridan so‘ng nashrdan chiqqan gazetalar haqida fikr bildirib, chunonchi, shunday yozadi: *“1917-yilning fevralidan keyin “Najot” (Munavvarqori), “Sho‘royi islom” (A. Battol), “Turon” (Avloniy), “Hurriyat” (Fitrat), “Kengash” (Zaki Validiy), “El bayrog‘i” (B. Soliyev, A. Zohiriy), “Ulug‘ Turkiston” (K. Bakir) kabi ko‘plab gazetalar chiqdi”*.

Bular orasida Samarqandda nashr etilgan “Hurriyat” gazetasi sahifalarida yuzlab, minglab maqola va xabarlar, she’r va hikoyalar chop etildiki, bu hol jadid adabiyotining taraqqiyotiga xizmat qilgan asosiy omillardan biri jadid matbuoti degan da’voni tasdiqlaydi. Turkiston jadid matbuoti tarixi haqida ham maqola va tadqiqotlar paydo bo‘ldi. Dastlab Cho‘lpon “Turkistonda matbuot” maqolasi bilan chiqdi. So‘ngra Abdulla Avloniy 1905–1917-yillarda chop etilgan nashrlarni umumlashtirib, “Burungi o‘zbek vaqtli matbuotining tarixi” maqolasini yozdi. Oradan o‘n yil o‘tgandan keyin Ziyo Saidning “O‘zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar *(1870–1927)*” nomli mashhur kitobi nashrdan chiqdi. Jadid matbuoti tarixiga nazar tashlaganda, shunga amin bo‘lamizki, haqiqatan ham jadidchilar tomonidan amalga oshirilgan nashrlar millatning uyg‘onishiga sabab bo‘ldi, ikkinchidan, deyarli barcha jadidchilik harakatining rahbarlari matbuotchilik ishida faol qatnashib, o‘zlarining maqola va badiiy asarlarining ommaga yetib borishi uchun qulay bo‘lgan usul va yo‘l topdi.

1920-YILDA Bokuda nashr etilgan “Fuqaro fuyuzato” jurnalida e’lon qilingan yuqorida tilga olingan “Turkistonda matbuot” nomli maqolasida Cho‘lpon mahalliy matbuot faoliyati, uning xalq hayoti va siyosiy voqelikda tutgan o‘rniga shunday baho bergan edi: “Eski vaqtlarda: “Matbuot yettinchi davlatdir”, der edilar. Bu so‘z, bu da’vo endi-da ahamiyatini yitirmabdir. Bu kunda-da matbuotning ahamiyati buyukdir. Xususan, Sharq xalqi bu kun matbuotning ahamiyatini tushunmishdir. Buyuk inqilob olamining ketishidan bexabar yotgan sharqliklarni uyg‘otmish, qonsiz tomirlariga qon, “yashamak uchun muboraza edajak” muqaddas qon savk etmishdir. Qamoqda matbuotni ajnabiylarga – xorijliklarga maxsus bir “shay” bilan sharqlilar bukun uni izlar, topar, uning ustida mulohaza yuritarlar. Olamning tugul, hatto shaharning hayotiga-da ko‘zining ichi bilan boqqan ko‘yli, kandli bu kun ko‘yning tashqarisida, yiroqlarda tantanali, muborazali va o‘ziga ham taalluqli bo‘lgan hayotni bilmoq va o‘rganmoq istab ta’qib etadilar”.

Cho‘lponning mazkur maqolasi bilan bir qatorda “Sharq isyoni” she’rining ham Ozarbayjon matbuotida e’lon qilinishi 1920-yilning sentabr oyi boshlarida Bokuda bo‘lib o‘tgan Sharq xalqlarining tarixiy qurultoyi bilan bog‘liqdir. Ma’lumki, Cho‘lpon ham bu qurultoyda Turkistondan borgan bir guruh vakillar qatorida qatnashgan edi. Cho‘lponning “Turkistonda matbuot” maqolasi esa, yozilish sanasiga ko‘ra, bu mavzudagi dastlabki ish bo‘lish bilan birga o‘zbek vaqtli matbuoti tarixida nashr etilgan gazeta va jurnallarning o‘z davrida millatimizga qay darajada xizmat qilganini sho‘rolar hokimiyati sharoitida haqqoniy va xolisona baholangan ish sifatida ham qimmatlidir.

TOSHKENT VA BUXORODA bu vaqtga kelib musulmon matbaa *(bosmaxona)*lari ham faoliyat ko‘rsata boshlaydi. Toshkentlik boylardan G‘ulom Hasan Orifjonov matbaasida bir qator fors va o‘zbek tillaridagi asarlar litografiya usulida chop etila boshlandi. Toshkentdagi Porsov va Buxorodagi Livnin matbaalari tarix va adabiyotga oid bir qator asarlarni, jumladan Alisher Navoiyning “Xamsa” asarini, Ahmad Yassaviyning “Devon”ini, “Abo Muslim rivoyatlari”, “Temurnoma”, “Shohnoma” kabi asarlarni chop etdi. Toshkentda yangi asarlarni nashr etish maqsadida “Turkiston” nomli nashriyot shirkati ham tashkil etildi.

Xullas, XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakatining yorqin namoyandalari o‘zlari uchun keng targ‘ibot maydoniga aylangan milliy matbuotning shakllanishiga katta hissa qo‘shdi.

Rustam SHARIPOV,
Jadidshunoslik ilmiy tadqiqot markazi direktori,
filologiya fanlari doktori

GLOBAL O‘ZGARISHLAR DAVRIDA AXBOROT XURUJINING YOSHLAR MA’NAVIYATIGA TAHDIDI



Bugungi global o‘zgarishlar davrida axborot qudratli qurolga aylanishi natijasida inson ongini zabt etishga bo‘lgan harakatlar tobora kuchaymoqda. O‘z navbatida, mafkuraviy-g‘oyaviy ta’sir o‘tkazishda axborot asosiy omil vazifasini o’tayotganini ta’kidlash o‘rinlidir. Hozirda axborot vositasi yordamida insonlarning qalbi, ongi va ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Binobarin, har qanday axborot xurujlari bevosita axborot qurollari yordamida amalga oshirilayotganini ta’kidlash lozim.

Bugungi kunda ayrim yetakchi davlatlar bevosita axborotdan vayronkor qurol sifatida foydalanishga intilmoqda. Globallashuv sharoitida ayrim siyosiy kuch va markazlar axborot xuruji orqali yoshlar ongi va qalbiga yot g‘oyalarni singdirishga alohida e’tibor qaratmoqda. O‘z navbatida, axborot xuruji orqali yoshlar ongiga ta’sir ko‘rsatish jarayonida avvalo moddiy, ma’naviy, ruhiy omillarga bevosita e’tibor qaratiladi. Binobarin, noan’anaviy va noxolis usullardan foydalanish zamirida siyosiy maqsadlarni amalga oshirish g‘oyasi yotadi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, globallashuv sharoitida dunyo afkor ommasining dunyoqarashi mafkuraviy kurash maydoniga aylandi. Zotan, qalbi va ongi ekspansiya qilingan har qanday xalq dushman tomonidan zabt etilishi muqarrardir. Hozirda oshkora agressiv axborot xurujlari ta’sirida dunyo aholisining ongi, dunyoqarashi, xulq-atvori, kayfiyat va xatti-harakatlarida noxush o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga zamin hozirlamoqda.

Shuni aytish kerakki, global o‘zgarishlarning tezlashuvi axborot, telekommunikatsiya vositalarining jamiyat hayotidagi mavqeyining oshib borishi va boshqa bir qator mexanizmlar bilan bog‘liq holda kechadi. Global o‘zgarishlarning o‘ziga xos nozik tomonlari shundan iboratki, u ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatishga qodir bo‘ladi. Ya’ni, bir tomondan, butun insoniyat yaratilayotgan ilm-fan yutuqlaridan bahramand bo‘lmoqda; ikkinchi tomondan esa mafkuraviy tajovuz, axborot xurujlari keng quloch yoymoqda. Haqiqatan ham, global o‘zgarishlar davrida axborot xurujlari “jamiyat-tabiat” tizimida inson ongi uchun aqliy hujumning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Xalqaro maydonda esa turli siyosiy kuchlar o‘zining manfaat va maqsadlarini amalga oshirish uchun yoshlar ongi va ichki dunyosiga mafkuraviy ta’sir o‘tkazishga urinmoqda.

Hozirda yoshlarni o‘zlariga jalb qilayotgan yangi yo‘nalishdagi turli-tuman musiqiy shoular, kliplar, axloqsiz filmlar, teledasturlar hamda bir qator internet klublarda tashkil etilayotgan ko‘ngilochar o‘yinlarga tobe bo‘lib qolishdan asrashimiz kerak.

Mehnat qilgan inson o‘zining farovon hayoti uchun barcha sharoitlarni yaratgani yaxshidir. Ammo hali hayotning oq-u qorasini yaxshi bilmagan, hayotiy tajribasi kam bo‘lgan yoshlarimiz uchun internet axborot xurujlarining manbasiga aylanib ulgurdi. Internet yoshlarimizning kelgusi kamolotiga zarar yetkazuvchi ko‘pgina ma’naviy tahdidlarni vujudga keltirdi. Turli tanishuv sahifalari va ijtimoiy tarmoqlarda o‘zbek xalqining madaniyati, ma’naviyati va ma’rifatiga tahdid soladigan behayo va pornografik mazmundagi materiallarning ko‘payishi natijasida yoshlarimiz nazarida oilaning muqaddas dargoh ekani unutilmoqda. Shunday murakkab sharoitlarda O‘zbekistonda axborot xavfsizligini ta’minlash masalasi aholini, xususan yoshlarning ma’naviy-axloqiy jihatdan immunitetini shakllantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ayniqsa, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishida nanotexnologiyalar, bioidentifikatsion texnologiyalarning paydo bo‘lishi, internet tarmog‘ining kengayishi axborotni berish, saqlash, tanlash va saralash imkoniyatini yanada kuchaytirmoqda. Bu jarayonlar zamiri yangi muammo – axborot xavfsizligini ta’minlash masalasining kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Davlat rahbari Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, axborot kommunikatsiya tizimlarining keng qo‘llanilishi, davlat boshqaruvining elektron shaklda tashkil etilayotgani, bu yaxshi albatta, o‘z navbatida, axborot xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq qo‘shimcha chora-tadbirlar ko‘rishni hayotning o‘zi taqozo etmoqda.

Ayni bugungi kunda jahon maydonlarini mafkuraviy bo‘lib olishga urinishlar nihoyatda avj olmoqda. Bunday urinishlardan ko‘zlangan asosiy maqsad muayyan siyosiy kuchlar, markaz va davlatlarning jahon miqyosida o‘z ta’sir doirasini kengaytirish, o‘zga xalqlarni tobe qilish, ularni bo‘ysundirish va moddiy boyliklarga ega bo‘lishdan iboratdir. Endilikda ular ochiq harbiy kuch ishlatish usulidan ko‘ra xalqlarni ko‘proq ma’naviy-mafkuraviy jihatdan tobe qilishga intilmoqda. Bunday usulning o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, juda katta mablag‘lar sarf qilish orqali o‘z g‘oyalarini ma’naviy-mafkuraviy yo‘llar bilan o‘zga xalqlar ongiga singdirishga urinmoqdalar.

Axborot xavfsizligini ta’minlash samaradorligi avvalo inson ma’naviyati, ongi, irodasiga qarshi qaratilgan xurujlarning mazmun-mohiyati, maqsadi, shakli hamda uslub va vositalarini sinchiklab o‘rganish hamda ilmiy asosda fosh etishga bog‘liq. Rossiyalik olim D. Lovsov bu haqda shunday deydi: “Axborot qurollari tushunchasi zamirida biror xalq, millatning mentaliteti, madaniyati, ma’naviyati, dini va davlatning axborot-texnologik, harbiy infratuzilmasiga destruktiv tarzda salbiy ta’sir ko‘rsatadigan maxsus dezinformatsion texnologik vositalarning muayyan tizimi yotadi”.

Vaholanki, nosog‘lom kuchlar turli yo‘l va usullar bilan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlarning barqaror kechishini izdan chiqarish maqsadida salbiy *(destruktiv)* axborotlar vositasida ta’sir ko‘rsatishga harakat qiladi. Nyu-York universiteti Politologiya fakulteti adyunkt-professori J. Rozental “Davlatlar o‘z hududlarida kechayotgan jarayonlarga mas’ul, agarda ular legitimlikni yo‘qotsa, bunda jiddiy tahdidlarga duch keladi”, deb yozgan. Darhaqiqat, davlat regulyativ funksiyani bajarish davomida o‘z tasarrufida mavjud bo‘lgan kuchlardan vosita sifatida foydalanadi, shu jumladan buzg‘unchi g‘oyalarni ifoda etuvchi axborotlarga nisbatan ham.

Albatta, uning kishilar dunyoqarashi, bilimi va saviyasining kengayishidagi ahamiyatini inkor etmagan holda xuddi shu tizim orqali oddiy axloqiy me’yorlarga zid pornosaytlar o‘rin olgani ushbu zamonaviy axborot texnologiyasi mahsulidan transmilliy jinoyatkorona guruhlar, terrorist va aqidaparastlar ham bemalol foydalanayotganini ko‘zdan qochirib bo‘ladimi? Yoki O‘zbekiston televideniyesining ayrim kanallari orqali G‘arb kompaniyalari mahsulotlari uzluksiz targ‘ib etilayotgani qanday maqsadni ko‘zlaydi?

Shunday ekan, har qanday tashkilot faoliyati bozor mexanizmlari asosida tashkil etilishi, xususan turli mahsulotlar reklamasi orqali mablag‘ topishi ayb emas. Ammo asosan xorijiy kompaniyalar mahsuloti targ‘ib etiladigan bo‘lsa, mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilarni kim qo‘llab-quvvatlaydi? Qolaversa, bugun nafaqat shaharda, balki qishloq joylarda ham kabel televideniyesi yoki maxsus antennalar vositasida Rossiya va boshqa mamlakatlar televideniyesida sharqona axloq-odobga zid filmlar, beparda ko‘rsatuvlarni ko‘rayotgan yoshlarimizda milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ulari shakllanishi, ularning ilm-ma’rifatga rag‘bati oshishi mumkinmi? Aksincha, bunday axborot xuruji yurtimiz, millatimiz va qadriyatlarimizga qaratilgan g‘oyaviy-mafkuraviy terrorizm deya baholanmog‘i lozim. Axborot xurujining oldini olish uchun quyidagi masalalarga e’tibor qaratish lozim:

birinchidan, yana e’tiborni tarbiyaga qaratmoq lozim. Menimcha, maktab davridanoq bolani mustaqil fikrlashga, axborotni axborotdan farqlashga o‘rgatmoq lozim:

ikkinchidan, ayrim yoshlarimizning aqidaparastlar ta’siriga berilayotgani, giyohvandlik va jinoyatchilik yo‘liga kirib qolayotgani ta’lim-tarbiya jarayonida jiddiy nuqsonlar mavjudligi, oliy o‘quv yurti, ota-ona, keng jamoatchilik, saylovlar vaqtidagina jonlanib qoladigan siyosiy partiyalar, yoshlar tarbiyasi uchun mas’ul bo‘lgan tashkilotlar faoliyatidagi nomuvofiqlikdan, ular o‘rtasida izchil va samarali hamkorlik yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganidan darak beradi;

uchinchidan, biz taraqqiyparvar insoniyat erishgan jamiki yutuqlar, millatimiz rivojiga xizmat qiladigan umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashuvi lozimligini ta’kidlab o‘tmog‘imiz lozim. Aniqroq aytganda, demokratiya tamoyillari milliy qadriyatlarimizdan voz kechishga emas, aksincha uning yanada takomillashuvi va gullab-yashnashiga xizmat qilmog‘i darkor.

Demak, biz axborot jamiyati barpo etayotgan ekanmiz, bu boradagi ham siyosiy, ham ilmiy-texnikaviy, ham ma’naviy-ma’rifiy, ham iqtisodiy muammolarni birma-bir bartaraf etish yo‘lidan borishimizga to‘g‘ri keladi. Bu muammolarni muhim-nomuhimga ajratib bo‘lmaydi. Chunki ular bir-biri bilan o‘zaro chambarchas bog‘liqdir.

Shuningdek, biz o‘zimizning axborot fazomizni turli xil ichki va tashqi ma’naviy-mafkuraviy tahdidlardan asrashimiz, internet tarmog‘idan foydalanuvchilar sonining 64 foizdan ortig‘i yoshlar bo‘lgani uchun “nomaqbul” axborot xurujidan saqlanishimiz kerak. Chunki bunday ma’lumotlar milliy qadriyatlarimiz, urf-odatimiz, o‘sib kelayotgan avlodning ma’naviy dunyosi, tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Globallashuv jarayonida axborot xuruji yoshlarimizning ongi, jamiyat taraqqiyoti, milliy mentalitetimizga tahdid solmoqda. Bunday salbiy holatlarning oldini olishda davlatimiz, jamiyat va fuqarolar manfaatlaridan kelib chiqqan holda yurtimizda axborot-kommunikatsiya sohasida qator qonunlar qabul qilindi va ishlab chiqilyapti. Shunga ko‘ra, maktabgacha ta’lim tashkilotlari va maktablarda farzandlarimiz bilan ota-onalar ishtirokida tushuntirish ishlarini tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish lozim.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, ong, tafakkur, vijdonni asrash, uni soxta axborot ko‘rinishidagi yot unsurlar, begona g‘oyalardan himoya qilish hayotiy zaruratdir. Bu haqda Prezidentimiz quyidagicha fikr bildiradi: “Necha yuz yillar davomida shakllangan asl insoniy qadriyatlarimiz o‘rnini buzg‘unchi g‘oyalar egallab olishiga yo‘l qo‘ymasligimiz zarur”. Haqiqatan ham, turli ma’naviy buzg‘unchilik va vayronkorlik harakatlari va xurujlarining oldini olish, aholi, ayniqsa unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizda ularga nisbatan ma’naviy immunitetni shakllantirish, ezgu g‘oyalarni targ‘ib qilishga alohida e’tibor qaratish zarur.

Zotan, jamiyat xavfsizligi va mamlakat barqarorligiga raxna soluvchi mafkuraviy, g‘oyaviy va informatsion xuruj va tahdidlarga qarshi doimo ogoh, hushyor va sergak bo‘lish, uning oldini olish va bartaraf etish bugungi kunning davr talabidir.

To‘xtasin TASHMETOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, falsafa doktori (PhD)

Milliy g‘urur

“BOBUR”DAN RANG OLGAN “BABURIN”

Kuni kecha mashhur rus yozuvchisi Ivan Turgenevning “Punin va Baburin” qissasini o‘qib qoldim. 1874-yilda yozilgan ixchamgina asarda voqealar qadimiy dvoryanlar mulkiga egalik qiluvchi boy pomeshchik ayolning o‘n ikki yoshli nabirasi Petya, Baburin va uning do‘sti Punin atrofida sodir bo‘ladi.



Aytmoqchi bo‘lganim aslo bu haqda emas. Negadir XIX asrning ikkinchi yarmida rus xalqi orasida keng tarqalgan, shuningdek qissa qahramonlaridan biri bo‘lgan Baburin istilohi e’tiborimni tortdi. Xayolimni yarq etib yorishtirgan nom – Bobur bo‘ldi.

Xullas, shu so‘zning iziga tushdim. Rus manbalarida bu familiyaning kelib chiqishi va ma’nosi haqida bir qancha taxminlar mavjud ekan. Ajablanarlisi, aksariyat adabiyotlarda Baburin atamasi ildizlari forschada “yo‘lbars” ma’nosini anglatuvchi Bobur Mirzo ismiga bog‘lanishi bayon qilinadi.

Ammo nazariyalar bu bilan cheklanib qolmaydi. Yana bir versiyaga ko‘ra, Baburin Bobur ismiga kichraytma va erkalash shakli qo‘shimchasi qo‘shilishdan hosil bo‘lgan. Shu tariqa Bobur – Baburinga, Baburina esa ayollarga nisbatan qo‘llaniladigan familiyaga aylangan.

Yana bir manbada bu ismni Rusga Markaziy Osiyodan ko‘chmanchi xalqlar, jumladan turkiy qabilalar bostirib kirishi natijasida hozirgi Rossiya hududida muqim qolib ketgan kishilar avlodlaridan tarqagan deb hisoblaydilar.

Ayrim atamashunoslar esa Baburinni “Bobrov” ismi bilan aloqasi bor deb hisoblab, uni qunduz hayvoni nomi bilan bog‘lasa, yana bir versiyaga ko‘ra, Baburin “Babura” laqabidan kelib chiqqan bo‘lib, rus shevalaridagi “buvi”, “kapalak”, “achchiq qo‘ziqorin”, “oshiq o‘yini uchun suyak”, “toshbaqa baliq” kabilardan yasalgan bo‘lishi mumkin. Ushbu nom Tula hududlarida ishlatilgan “baburit” – “gapirmoq” fe’lidan kelib chiqqan, degan taxminlar ham bor.

Ushbu familiya xususida bir qancha farazlarni o‘qir ekanman, ularning aksari bobomiz Mirzo Bobur shaxsiyatiga bog‘lanishi haqiqatga eng yaqin variant sifatida keltirilayotganiga guvoh bo‘ldim. Hatto 1974-yili Moskvada nashr etilgan S. Veselovskiyning “Onomastikon. Qadimgi ruscha ismlar, taxalluslar va familiyalar lug‘ati”da ham XVI asrdagi yer egalari Baburinlar haqida so‘z yuritiladi. Bu, o‘ylashimcha, shoh va shoir zamoniga eng yaqin davrdir.

To‘g‘risi, kalavaning ikkinchi uchi o‘zimizning tarix zarvaraqlarida yotganidan quvonib ketdim. O‘zbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirov “Avlodlar dovoni” romanida Baburin atamasi tarixiga oid qiziq faktlarni keltirib o‘tadi. Asarda yozilishicha, Bobur Mirzo hind o‘lkalari podshosi bo‘lganidan keyin o‘z elchisi Xo‘ja Husaynga maktub berib, uni Moskoviya *(Moskva)*ga elchi qilib yuboradi. Uch yillik sargardonlik va bir necha bor g‘animlar tuzog‘iga tushib *(bu o‘rinda Shayboniylar nazarda tutilmoqda. Chunki o‘sha davr muhorabalari natijasida Bobur ishtirokidagi har qanday hodisaga salbiy munosabat shakllanib qolgandi)*, qutulib, Moskvaga yetib borgan Xo‘ja Husaynni Boburning elchisi ekaniga unchalik ishonmaydilar. Modomiki, Bobur Hind yerlariga podshoh bo‘lganidan ularning xabarlari ham yo‘q edi.

Asarda karvon bekatida kasal bo‘lib yotgan Xo‘ja Husaynning hindistonlik ekanini eshitgan Matvey uni o‘zining uyiga olib ketgani, uni ayiq o‘tidan tayyorlangan dorilar bilan davolagani aytiladi. Xo‘ja Husayn shu tariqa Matvey Semyonovich Kalitinning yurti Muromda uch yil qolib ketadi. U bilan xizmatkoriga muromliklar o‘rmon chetidan yog‘och uy qurib beradi, uni “Baburin posol”, ya’ni “Boburning elchisi” deb hurmat qiladi.

Bora-bora Xo‘ja Husayn ruslar orasida Baburin degan familiya bilan taniladi. U xizmatkori bilan o‘rmon chetida turadigan joyga “Baburinskiy xutor” degan nom beriladi. Matvey Semyonovich bilan Xo‘ja Husayn bir-birining tilini o‘rganadi. Daryo yo‘li bilan Novgorod orqali Qozon xonligiga borib, tijorat qiladilar va Hindiston safari uchun mablag‘ yig‘adilar. Ko‘p xavf-xatarlarni boshdan kechirib, nihoyat, Agraga keladilar.

Demak, yozuvchining ta’kidicha, hozirda rus xalqi orasida keng tarqalgan Baburin – Bobur Mirzoning elchisi Xo‘ja Husayn nomi bilan bog‘liq ekan. Bu daryodan tomchi xolos. Hali qanchadan qancha turkiy so‘zlarimiz jahon tillarida yashab yuribdi deysiz. Biz esa turkiy so‘zlar qanotida dunyo kezishda davom etamiz!

Bobur ELMURODOV

Mulohaza

YOSHLAR TA’LIM-TARBIYASIGA E’TIBOR

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan yoshlarimizning barkamol inson bo‘lib yetishishlari uchun juda katta shart-sharoitlar yaratib kelinmoqda. Ammo jamiyatimizda yoshlar tarbiyasida ayrim bo‘shliqlar vujudga kelayotganini, o‘qishga qiziqmaydigan, kitob o‘qimaydigan, darsdan qochishga harakat qilayotgan tarbiyasi og‘ir bolalarning uchrayotgani har birimizni tashvishga solmoqda.



Shu ma’noda XXI asrni axborot, targ‘ibot asri, desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero bu davrda ko‘z bilan ilg‘ab bo‘lmas qudratli targ‘ibot kuchlari demokratik rivojlanishni izdan chiqaradigan, xalq va millatlar tinchligiga raxna soladigan xavf-xatar hamda tahdidlar bizni har tomondan qurshab turibdi. Afsuski, zamonaviy axborot texnologiyalari sohasidagi yutuqlardan yovuz maqsadlar yo‘lida foydalanib, uni taraqqiyot kushandasiga aylantirayotgan kuchlar ham mavjud bo‘lib, ular o‘z sa’y-harakatlari bilan kishilarning tinch-farovon hayotiga salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Bugungi axborot zamonida yosh avlod tarbiyasida o‘ta hushyorlik talab etiladi. Yovuz niyatli turli oqimlarning ta’siriga kirib, ularni targ‘ib etuvchi vositalarini tarqatishda ishtirokchi bo‘lib qolayotgan ayrim o‘quvchi-yoshlarimizning harakatlari har birimizni xavotirga solmoqda. O‘quvchi-yoshlarimizga, eng avvalo, hayotimizda uchrayotgan yovuz niyatlari bilan zid harakat qilayotgan oqimlarning asl manfaatlari va yovuz maqsadlarini nafaqat ta’lim muassasalarida, balki oilada ham tushuntirib borish va ularni ogohlikka chorlash har bir ota-onaning burchi hisoblanadi.

Oilada yangi tug‘ilgan farzandlarimizni kelajakda duch kelish ehtimoli bo‘lgan turli kasalliklarning oldini olish va unga qarshi immunitet hosil qilish uchun emlatish ishlariga jiddiy e’tibor qaratamiz-u, ayrim holatlarda yoshlik chog‘idanoq ularning ongida turli yot g‘oyalarga qarshi kuchli immunitetni shakllantirib borishni unutib qo‘yamiz. Bu bilan yovuz niyatli turli oqim egalariga yo‘l ochib berayotganimizni ham sezmay qolamiz.

Farzandim salohiyatli va ta’lim muassasalarida tahsil olyapti deb ishonch bildiramiz. O‘z farzandiga ishonish yaxshi xislat, lekin ta’lim muassasalarida tahsil olish uchun belgilangan vaqt asosan fanlar bo‘yicha ta’lim berishga sarflanishi, oilada esa har bir yo‘nalishda ta’lim-tarbiya berishga yetarlicha vaqtimiz borligini unutmasligimiz lozim. Oila, mahalla, qo‘ni-qo‘shni va ta’lim muassasalari o‘rtasida mustahkam hamkorlikni o‘rnatgan holdagina o‘quvchi-yoshlarimizni Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash orqali ularning qalbi va ongida kuchli mafkuraviy immunitetni shakllantirishimiz mumkin.

Biz uchun eng ulug‘ ne’mat mustaqilligimizning har bir sanasida o‘z mehnatimizni ayamasak, ortimizdan farzandlarimizni, o‘quvchi-yoshlarni ergashtirib, ularga to‘g‘ri yo‘nalishda ta’lim-tarbiya berib borsak, Yangi O‘zbekiston atalmish jannatmakon yurtimizning tinchligi va yanada gullab-yashnashi uchun o‘z hissamizni qo‘shgan hisoblanamiz.

Podpolkovnik
Doniyor KABIROV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
fakultet boshlig‘i o‘rinbosari

MILLAT MA’RIFATPARVARI – TAVALLO



To‘lagan Xo‘jamyorov – Tavallo 1883-yilda Ko‘kcha dahasining Obi Nazir mahallasida Xo‘jamyor Jiyanboyev oilasida tug‘ildi. Eski maktabda savod chiqardi. Beklarbegi madrasasida, rus-tuzem maktabida o‘qidi. Beklarbegi madrasasi bu davrlarda Toshkent adabiy hayotining markazlaridan biri edi. Tavallo shu yerda Karimbek Kamiy, Miskin, Xislat, Yusuf Saryomiy kabi zamonasining atoqli shoirlari bilan tanishadi. Ayniqsa, Yusuf Saryomiy bilan yaqin aloqaga kirishib, uni o‘zining piri, ustozi sifatida e’tirof etadi. 1910-yillardan vaqtli matbuotda “Tavallo” taxallusi bilan she’r va maqolalari bosila boshladi.

MEHNAT FAOLIYATI. 1914-yil 30-avgustda Munavvarqori, Avloniy, M. Podshoxo‘jayev, Husanxo‘ja Dadaxo‘ja o‘g‘li *(yozuvchi Said Ahmadning otasi)*, Saidabdullo Saidkarim o‘g‘li Saidazimboyev, Komilbek Norbekov *(jami 12 kishi)* bilan birgalikda Toshkentda “Nashriyot” shirkatini tuzib, kitob chiqarishni yo‘lga qo‘yadilar. 1915-yili esa Avloniy tashabbusi bilan tuzilgan “Turon” jamiyatida faoliyat ko‘rsata boshlaydi.

Adibning “jinoiy ishi”da saqlangan “mehnat daftarchasi”dan ma’lum bo‘lishicha, u shu yillari turli idoralarda *(ijroqo‘m, revtribunal, kasaba uyushmasi, savdo, sanoat-qurilish sohalarida)* mas’ul lavozimlarda ishlagan.

ILMIY-ADABIY MEROSI. 1905-yili jadidchilik harakatiga qo‘shilgan Tavallo “Taraqqiy”, “Shuhrat”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona” gazetalarida o‘z maqola va she’rlari bilan faol ishtirok etadi. Tavalloning she’rlari XX yuzyillik boshlarida turli matbuot sahifalarida tez-tez uchrasa ham, kitob holidagi “Sabzavor” she’riy to‘plami 1914-yili chop etilgan. 1916-yili “Ravnaq ul-islom” nomi bilan chop etilgan she’riy to‘plami uning hayotlik davrida bosilgan bitta-yu bitta kitobidir. Maqolalari to‘plangan emas. 20-yillarda “Mushtum” hajviy jurnalining faollaridan edi. Mazkur jurnal sahifalarida “Mag‘zava” imzosi bilan o‘nlab hajviy she’rlari chop etilgan, ular ham yig‘ilgan, o‘rganilgan emas.

Shoir ijodini baholashda asosiy manba “Ravnaq ul-islom” bo‘lib turibdi. To‘plam hajman uncha katta emas, 70 tacha she’r kiritilgan. Vazn va ohang an’anaviy – aruzda. Biroq mazmun tamom yangi. Turkistonni qoplagan jaholat va nodonlik, tutqunlik va turg‘unlik haqida. Uning ham boshqa rivojlangan, taraqqiy topgan millatlar qatorida farovon va baxtli yashashga bo‘lgan haq-huquqi to‘g‘risida. Shoir, birinchi navbatda, zamon hodisalaridan ilhom va ta’sir oladi. Ko‘pgina she’rlari hayotdagi konkret yangiliklar, o‘zgarishlar haqida. Shuningdek, uning so‘nggi davr turk, tatar, Ozarbayjon shoirlarining she’rlari bilan ham yaxshi tanish ekani bilinadi. Chunonchi, 1913-yili Abdulla To‘qay vafotidan qattiq qayg‘uradi. Matbuotda chiqadi. “She’rlaridan ko‘p bahralar olg‘onlig‘i”ni, turmushi ham To‘qayning “tarjimayi holiga nihoyatda o‘xshab ketgani”ni *(u ham yetim o‘sgan edi)* yozadi. “Totor qardoshlarimizning mashhur shoiri marhum Abdulla Afandi To‘qayevning she’rina tazmin” nomi bilan uning “Jumla fikrim kecha-kunduz Sizga oid millatim”, deb boshlanadigan she’riga nazirasini e’lon qiladi. Marhum shoirning maslag-u muddaosini, jumladan millat yo‘lida jonini fido etmoqni o‘zi uchun muqaddas burch hisoblaydi. “Millat”, “Milliyat” tushunchalariga Avloniy va Tavallolarga qadar she’riyatimizda bunchalik ko‘p e’tibor berilgan emas edi.

Xususan, Tavalloda har bir she’r millat, uning shu kundagi ahvoli, jahon hamjamiyatida tutgan o‘rni, tarixi va taqdiriga kelib bog‘lanadi. Shoir jahonning, chunonchi Ovrupo va Amerika xalqlarining taraqqiyot asridagi hayotiga nazar tashlaydi. Bir tomonda ilm-fan, texnika yangiliklarini turmushga joriy etib, og‘irini yengil, hayotini farovon qilayotgan millatlar, ikkinchi tomonda allaqachon eskirib ishdan chiqqan ishlab chiqarish usuli va vositalariga mahkam yopishib, shuni so‘nggi mo‘jizadek ushlab olgan Turkiston.

SHOIRNING sevimli mavzularidan biri hurriyat edi. U inson erkini har narsadan ustun qo‘ydi. Uning talqinidagi erkning ma’nosi g‘oyat keng. Bu erk siyosiy, iqtisodiy mustaqillikdan tortib nafsga, huzur-halovatga, qullikdan ozod bo‘lishgacha qamrab oldi. U xotin-qizlar hurriyatiga keng e’tibor berdi. Masalan, “Qarindosh va hamshiralarimiz mazluma qizlar tilindan” she’rida qizlar otalariga murojaat qilib, ularni ham o‘qitishni, ularga ham insoniy munosabatda bo‘lishni so‘raydi. Shoirning bir qator she’rlari davr yangiliklari, kundalik voqealar haqida. Masalan, “Oyna” *(muharriri Behbudiy)* jurnalining *(1913)*, “Sadoyi Turkiston” *(muharriri Ubaydulloxon Asadullaxo‘jayev)* gazetasining *(1914)* chiqishlari Ismoilbek vafoti *(1914)*, Qars *(Turkiya)*dagi zilzila *(1914)*, ayniqsa Birinchi jahon urushi va u bilan bog‘liq hodisalar Tavallo diqqatidan chetda qolgan emas.

O‘ZBEK TEATRIning maydonga kelish voqealariga bag‘ishlangan bir emas, to‘rt she’ri bor. Shulardan biri bevosita ilk o‘zbek teatri tomoshasi 1914-yil 27-fevralda Toshkentdagi “Kolizey” teatrida Avloniy truppasi tomonidan Behbudiyning “Padarkush” dramasi qo‘yilishiga bag‘ishlangan. Shunda mashhur ma’rifatchi Munavvarqori Abdurashidxonov teatr haqida nutq so‘zlagan edi. She’r ham shu voqeani hikoya qilishdan, “Cho‘q munavvar etdi olamni Munavvarqorimiz”, deb boshlanar edi. Ikkinchisi esa teatrning ahamiyatini ta’kidlab ko‘rsatdi. Shoir fikricha, yoshlarning teatr o‘ynashi, millatning hayot asari ko‘ringanidan – tirikligidan nishonadir, “taraqqiyning xabari”dir.

Marhum M. Zokiriy va atoqli adabiyotshunos-tanqidchi O. Sharafiddinov g‘ayrat va tashabbusi bilan dunyoga kelgan va zararli kitob sifatida darhol yig‘ishtirib olingan “Tirik satrlar”dagi shoir ijodidan namunalar bu boradagi dastlabki qadamlardan edi. Uning yagona she’riy to‘plami “Ravnaq ul-islom” alohida holda 1993-yiligina nashr qilindi. Bugun bu nomni faqat bizda emas, chetda ham biladilar. Germaniyadagi Bamberg universiteti turkologiya bo‘limida 1997–1998-yillarda Tavalloning “Ravnaq ul-islom”i bo‘yicha ixtisoslik kursi o‘qilgani ma’lum. Atoqli adib Oybek o‘zining “Bolalik” qissasida shuni ko‘zda tutgan holda Tavallo ijodiga katta hurmat-ehtiromini izhor qiladi.

OILASI. Bu paytda oilada besh kishi bo‘lgan: o‘zi – 54 yoshda, xotini Zuhra Miyorova – 40 yoshda, o‘g‘li Maqsud Miyorov – 16 yoshda, qizi Sanobar Miyorova – 11 yoshda. 1913-yili tug‘ilgan Rahbar ismli qizi 1936-yili turmushga chiqqan bo‘lib, Buxoroda yashar edi. Taxminan 1931-yili o‘g‘li Mahmud vafot etadi. Bu hol shoirga qattiq ta’sir qiladi, ichkilikka beriladi. Xullas, Tavallo hayotining so‘nggi yigirma yili juda ko‘p zamondoshlariniki kabi iztirobli, lekin deyarli samarasiz kechdi.

Tavalloning Buxorodagi qizi Rasulova Rahbarning DXQ idoralariga 1968-yili yozgan xatlari mazmunidan anglashilishicha, bu paytda shoir oilasida undan boshqa hech kim qolmagan. Tavallo asarlarining qayta nashri va u haqdagi ma’lumotlarning berilishi ham 1968-yilga to‘g‘ri keladi.

O‘LIMI. Sud-tergov qoidalariga ko‘ra, ayblanuvchining qilmishlarigina emas, tashqi ko‘rinishi, ajratib turadigan xususiyatlari haqida ham ma’lumotlar keltirilar edi. Tavallo “jinoiy ishi”da ham shu xil ma’lumotlar uchraydi. Chunonchi, “anketa ma’lumotlari”da yozilishicha, uning “Tashqi ko‘rinishi: o‘rtabo‘y, bo‘yi 1 metr-u 56 sm, ko‘zi – qo‘yko‘z, sochi – qora”. Darvoqe, “ayblanuvchi”ning yana bir jihati maxsus ta’kidlangan: “keragicha notiq”. 1937-yil 14-avgustda Tavallo “aksilinqilobiy” “Turon”, “Sho‘royi islom”, “Ittihodi taraqqiy”, “Milliy ittihod”, “Milliy istiqlol” tashkilotlarining a’zosi”, “Millionerning o‘g‘li”, “she’rlarida millatchilik g‘oyalarini ilgari surgan”likda ayblanib, qamoqqa olinadi. Agentura materiallaridan: “To‘lagan Xo‘jamyorov milliy respublikani “mustamlaka” deb aytdi. Ko‘pchilik orasida “O‘zbek xalqi o‘zaro nifoq va qo‘rqoqlik orqasidan xor-zor, qizillarga tutqun bo‘ldi. Sabr kosasi bir kun to‘ladi va xalq sovet hukumatiga qarshi qo‘zg‘alishga majbur bo‘ladi. Agar men inqilobning shunday kunlarga olib kelishini bilsam edi, butun vujudim bilan unga qarshi kurashar edim”, dedi.

TO‘LAGAN XO‘JAMYOROVning tergov ishlari tezlashib ketdi. O‘zbekiston ichki ishlar xalq komissari muovini Leonov imzolagan “Ayblov xulosasi” 1937-yil 9-sentabrda 25 kunda tayyor bo‘ldi. Unda Tavalloning 1919-yilgi Osipov qo‘zg‘olonida “qatnashgani”gacha “tasdiqlatib” olindi va bir qator “ayb”lar bilan uchlik hukmiga havola etildi. 1937-yilning 19-oktabrida NKVD qoshidagi uchlik majlisida Tavallo otib o‘ldirishga hukm qilindi. Hukm o‘sha yili 10-noyabrda ijro etildi.

Odil ZARIPOV,
Tarix instituti ilmiy kotibi,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

O‘tmish sadosi

Jadid ma’rifatparvarlari yangi usul maktablarida tarix fani o‘qitishni, millat farzandlarini xolis o‘tmish bilan tanishtirishni o‘zlarining muqaddas burchi sifatida bilgan. Ular tomonidan tayyorlangan darsliklarda o‘quvchilarga Vatanning buyuk o‘g‘lonlari tarixi o‘rgatilgan.





MAFKURAVIY KURASH FRONTI

O‘ZBEK TARIXCHILARINING TEMUR SHAXSIYATINI TIKLASH VA OQLASH YO‘LIDAGI HARAKATLARI

Sovet mafkurachilari o‘zbek xalqi o‘z tarixini bilmasligi uchun millat oydinlariga doimiy ravishda ham mafkuraviy, ham jismoniy bosim o‘tkazib kelgan. Hatto 1980-yillarda ham o‘zbek xalqi tarixini o‘rganish masalasiga eng so‘nggi darajali masala sifatida qaralgan.

Misol uchun, 1984-yilda akademik B. Ribakov tahriri ostida nashr qilingan 441 sahifali SSSR tarixi qo‘llanmasida Pyotr I ning Rossiya imperiyasida amalga oshirgan islohotlariga 19 sahifa ajratilgan. O‘rta Osiyo va Qozog‘iston tarixi esa 1 betda juda mujmal va qisqa tarzda yozilgan.

Kommunistik partiya o‘zbek xalqi tarixini berkitish bilan birga millat tarixida o‘chmas iz qoldirgan qahramonlar nomini qoralash kampaniyasini ham olib borgan. Xususan, **Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Shayboniyxon, Xo‘ja Ahror Valiy, Dukchi Eshon singari ajdodlarimizni tarixdan o‘chirib tashlashga harakatlar bo‘lgan**. Biroq fidoyi o‘zbek tarixchilari mard ota-bobolari nomini og‘ir sharoitlarda ham himoya qila oldi. Shunday jonkuyar tarixchilardan biri professor Bulat Soliyev edi.

Sovet davlati tashkil topgan 1920-yillardayoq Po‘lat *(Bulat)* Soliyev Turkiston tarixiga oid darslik yozish ishiga jiddiy kirishadi. Biroq bolsheviklar Po‘lat Soliyev va boshqa mahalliy olimlar tomonidan tayyorlangan tarix bo‘yicha darslik loyihalarini doimiy ravishda rad etib keladi. Shunday bo‘lsa-da, Soliyev 1929-yilda “O‘zbekiston tarixi” kitobini nashr ettirishga muvaffaq bo‘ladi. Olim mazkur asarni yaratishda O‘rta asr muarrixlarining meroslaridan unumli foydalanadi. Muallif tarix sohasidagi mafkuraviy ko‘chkiga qarshi ekanini ta’kidlagan holda kitobning kirish qismiga o‘sha kunlarda sovet mafkurachilari tomonidan ayovsiz tahqirlangan Amir Temur suratini ilova qiladi.

Uning mintaqa tarixiga keng va chuqur yondashish haqidagi talabi tez orada kommunist targ‘ibotchilarining keskin tanqidiga sabab bo‘ladi va ular Po‘lat Soliyevning tarixshunosligini “millatchilik va panturkistik” ruhda deya ta’riflaydi.

“O‘ZBEKISTON TARIXI” ASARI o‘quvchiga Temur davrida Turkistonning jahon geosiyosatida qanday o‘rin tutgani va Turkistonning buyuk o‘tmishi haqida qimmatli ma’lumotlar berardi. Bundan sal avval, ya’ni 1927-yilda ham Po‘lat Soliyev “Maorif va o‘qituvchi” jurnalida “O‘zbeklar ham Temur bolalari” deb nomlangan maqolasi bilan katta shov-shuvga sabab bo‘lgan edi. Ushbu maqola chiqishi bilan sovet mafkurachilari o‘sha davrdagi davriy nashrlarda birin-ketin Po‘lat Soliyevning maqolasi haqida tanqidiy materiallar e’lon qila boshlaydi.

Sovet olimlari 1930-yillarda Amir Temur shaxsini Karl Marksning “Temurning siyosati minglab ayollar, bolalar, erkaklar, yoshlarni qiynoqqa solish, qirg‘in qilish va shu tariqa hamma joyda dahshat uyg‘otish edi” degan g‘oyasi atrofida qurish kerakligini ta’kidlar edi. Po‘lat Soliyev esa o‘z ishlarida Amir Temur shaxsini zolim bosqinchi sifatida emas, balki mohir sarkarda, ajoyib davlat arbobi va diplomat sifatida ko‘rsatgandi. Shu boisdan Po‘lat Soliyevning ushbu “O‘zbekiston tarixi” kitobi kommunistik mafkura tarafdorlari yuziga tushirilgan “shapaloq” bo‘lgan, desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

PO‘LAT SOLIYEV ushbu asarni yozishda Amir Temur va Temuriylar merosiga jiddiy ravishda e’tibor qaratadi. Olim Movarounnahrning mo‘g‘ullar xurujidan keyingi iqtisodiy ahvoli haqida, ichki feodal urushlarining mamlakat iqtisodiyotini qay darajada tubanga tushirgani va shunday og‘ir iqtisodiy tushkunlikda bo‘lgan Turkiston o‘lkasi, Amir Temur qo‘l ostida qanday qilib dunyodagi eng qudratli davlatga aylanganini batafsil yoritadi. Tarixchi Amir Temur saltanati bu hududda shakllanishi tasodif bo‘lmagani, Temuriylar saltanatining iqtisodiy-ma’naviy asosi bo‘lishi lozim bo‘lgan buyuk shaharlar mintaqada avvaldan bo‘lganini ta’kidlaydi.

Albatta, olimning millat tarixiga qilgan bunday xizmatlari sovet maxsus xizmatlari tomonidan jazosiz qolishi mumkin emasdi. 1936-yilda Samarqandda bo‘lib o‘tgan O‘rta Osiyo tarixchilari va olimlarining qurultoyida Po‘lat Soliyevga nisbatan “millatchi va panturkist” ayblovlari qo‘yiladi. Shu yildan boshlab olimning ilmiy maqolalari jurnallarda bosilishi to‘xtatiladi. Soliyevning kitob va darsliklari oliy o‘quv yurtlari kutubxonalaridan yig‘ishtirib olina boshlaydi.

1937-yili olimning o‘zi ham hibsga olinadi. O‘zbek xalqining haqiqiy va buyuk tarixini yoritishga butun hayotini bag‘ishlagan olim 1937-yil 13-oktabrda sovetlar tomonidan otib tashlanadi.

SSSRning Amir Temur merosiga bo‘lgan mutlaqo toqatsiz siyosatiga qaramay, Po‘lat Soliyev shogirdlari sohibqiron merosini xalqqa yetkazishda davom etadi. Shunday shogirdlardan biri o‘zbek tarixchiligi fidoyisi akademik Ibrohim Mo‘minov edi.

IBROHIM MO‘MINOVNING 1968-yilda nashr etilgan “Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli” nomli asarida Temurning qudratli davlat tuzish yo‘lidagi kurashlari va faoliyati tasvirlanadi. Ammo Mo‘minovning ushbu risolasi nashr etilishi bilan olimga siyosiy bosimlar kuchayadi. Moskvadagi KPSSning Mafkuraviy masalalar bo‘yicha kotibiyati olimni badnom qilish kampaniyasini boshlab yuboradi. Turli markaziy nashrlarda Mo‘minovning ilmiy faoliyati tanqid qilingan maqolalar e’lon qilinadi. Uning oila a’zolariga tazyiqlar uyushtiriladi. Bularning barchasi keyinchalik Ibrohim Mo‘minovning sog‘lig‘iga jiddiy salbiy ta’sir o‘tkazadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, Amir Temur shaxsiyatini o‘rganish va yoritish ishlari, nihoyat, erkin va katta ko‘lamda amalga oshirila boshlandi. Bugungi kunda Po‘lat Soliyev, Ibrohim Mo‘minov singari jonkuyar tarixchilarimizning merosini keng jamoatchilikka yetkazish juda muhim ishlardan biri hisoblanadi.

Ubaydulla QUVVATALIYEV,
TerDU qoshidagi
Qatag‘on qurbonlari xotirasi
muzeyi direktori



Gavhar Shod begim Amir Temurning to‘rtinchi o‘g‘li Shohrux Mirzoning suyukli katta xotini edi. U Chig‘atoy zodagonlaridan G‘iyosiddin Tarxonning qizi edi. Rivoyat qilishlaricha, G‘iyosiddin Tarxonning bobokaloni – Qushlik bir vaqtlar Chingizxon mulozimatida bo‘lib, bir jang asnosida uni o‘limdan saqlab qolgan ekan. Shundan buyon Chig‘atoy ulusida bu avlod yuksak e’tibor va hurmatga sazovor bo‘lgan.

Gavhar Shod begim

Gavhar Shod begim 1379-yilda tug‘ilib, 1393-yilda Shohrux Mirzo nikohiga kirgan. Undan uch o‘g‘il-u ikki qiz ko‘rgan. To‘ng‘ich o‘g‘li – Ulug‘bek Mirzo ko‘ragon, o‘rtancha o‘g‘li – Boysung‘ur Mirzo va kichik o‘g‘li – Muhammad Jo‘ki Mirzodir.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Gavhar Shod begim yuksak did-farosatli, oqila, tadbirkor, suxandon, bir so‘zli – qat’iyatli, husn bobida ham benazir ayol bo‘lgan. Tabiatan dindor Shohrux Mirzo ko‘p vaqtini toat-ibodat va kitob mutolaasiga sarflardi. Saltanat, devon ishlarini o‘ktam va tadbirkor xotini Gavhar Shod begim boshqarardi. Bu ziyrak ayol qaynotasi Amir Temur vafotidan so‘ng sekin-asta saltanat ishlarini o‘z qo‘liga oldi. Zotan, Shohrux Mirzoning o‘zi ham xotini Gavhar Shod begimning donoligiga tan berar, saltanatni boshqarishda oqilona va tadbirli maslahatlariga ehtiyoj sezib turardi. Shu bois saltanatga doir ko‘pgina ishlar malikaning nazar-e’tiboriga havola qilingan.

Gavhar Shod begim Shohrux Mirzoning harbiy yurishlarida ishtirok etarkan, shahzodalarning fe’l-atvori va harbiy boshliqlarning xatti-harakatidan voqif bo‘lib turardi. Taxtga valiahd tayinlash masalasida ham Gavhar Shod begim o‘z irodasini o‘tkazishga urinadi.

Shohrux Mirzo davrida Xuroson siyosiy-ijtimoiy va madaniy jihatdan ancha gurkirab o‘sdi. Mamlakat poytaxti Hirot iqtisodiy va madaniy yuksalishda Sharqning eng nufuzli shaharlaridan biriga aylandi. Tabiiyki, mamlakatning bunday yuksalishida “amaliy hukmdor” malika Gavhar Shod begimning hissasi beqiyos. Bu davrda Hirot va mamlakatning boshqa viloyatlarida qurilish ishlari avj olgan edi. Masjid-madrasalar, xonaqoh, maqbara, daxma, musofirxona, shifoxona, ravot, ko‘prik va sardobalar qurib bitkazildi.

Shohrux Mirzoning Xurosonda hukmronlik qila boshlagan ilk yillaridayoq u Hirot qal’asining janubiy tomonidan madrasa va xonaqoh qurdiradi. Ana shundan so‘ng Shohrux Mirzo avlodiga mansub shahzoda va malikalar ham madrasa, masjid, xonaqoh, shifoxona va shunga o‘xshash imoratlar bunyod etish bilan shahar obodonchiligiga o‘z hissalarini qo‘shadi. Tabiatan vatanparvar, bilimdon va zukko Gavhar Shod begim mamlakat ravnaqi yo‘lida tinmay g‘amxo‘rlik qiladi. Uning dasturida madaniy va ma’rifiy hayot birinchi o‘rinda bo‘lgan. Shu boisdanmi farzandlari hamda barcha nabiralari ilm-fan muxlislari bo‘lib, hatto g‘azal ham bitgan.

1446-yilda qarib qolgan Shohrux Mirzo o‘z nabirasi – Qazvin, Ray va Qum viloyatlarining hukmdori Sulton Muhammad Mirzoga qarshi g‘arbga yurish boshlaydi. Bu yurishdan maqsad o‘zboshimcha yosh shahzodaning adabini berib qo‘yish edi. O‘z bobosiga qarshi bosh ko‘targan shahzoda Hamadon bilan Isfaxonni bosib olib, Sherozni qamal qilgan edi. Qo‘shinda malika Gavhar Shod begim va Abdulatif Mirzo Shohrux Mirzo bilan birga edi. Shohrux Mirzo G‘arbiy Eronda hech qanday qarshilikka uchramadi. Chunki shahzoda Sulton Muhammad Mirzo bobosining kelayotganini eshitgach, Sherozni qamaldan bo‘shatib, o‘zi tog‘ga qochib ketgan edi. Shohrux Mirzo Sherozga kirgach, shahzodaning barcha yaqin kishilarini jazoga hukm qiladi. Gavhar Shod begimning qat’iy talabi bilan bir necha sayyidlar ham qatl etiladi. Ajablanarli joyi shundaki, o‘ta taqvodor, xudojo‘y saltanat sohibi Shohrux Mirzo ham xotini Gavhar Shod begimning irodasiga bo‘ysunib, sayyidlarni qatlga hukm qiladi. Sayyidlar ustidan bunday jazo hukmini chiqarishga na Amir Temur va na Ulug‘bek Mirzo botina olar edi.

Davlatshoh Samarqandiyning yozishicha, sayyidlar Shohrux Mirzodan “adolat yuzasidan taftish o‘tkazish”ni yolborib so‘raydi. Ammo Shohrux Mirzo malika Gavhar Shod begimning xohishini qaytarolmaydi va hukm ijro etiladi. Nihoyat, sayyidlar dor ostida turib, Shohrux Mirzoni duoyi bad qiladi. Binobarin, ko‘p o‘tmay Shohrux Mirzo avlodi qirilib ketish sababini mazkur sayyidlar qarg‘ishiga uchraganining oqibatidir, deb yozadi Davlatshoh Samarqandiy.

Shohrux Mirzo Sherozdan Hirotga qaytayotganda yo‘l asnosida betoblanib, 1447-yil 12-martda vafot etadi. Gavhar Shod begim qo‘shin qo‘mondonligini Abdulatif Mirzoga topshiradi. Ammo Hirotga – Aloud-Davla Mirzoga “poytaxtni mustahkamlash” haqida maxfiy maktub yozib, uni maxsus chopar orqali jo‘natadi. Bundan ogoh bo‘lgan Abdulatif Mirzo buvisi Gavhar Shod begimni mahbuslikda saqlab, Amudaryo tomon yo‘l oladi hamda bobosi Shohrux Mirzoning o‘limi haqida o‘z otasi Ulug‘bek Mirzoga xabar yuboradi.

Amakisi Ulug‘bek Mirzodan hayiqqan Aloud-Davla Mirzo o‘zini podshoh deb e’lon qilishga jur’at etmaydi va avvalgidek juma kunlari masjidlarda bobosi Shohrux Mirzo nomini xutbaga qo‘shib o‘qitadi. Biroq Abdulatif Mirzoning kirdikorlari, ayniqsa buvisi Gavhar Shod begimga nisbatan qo‘llagan jazosini eshitgach, taxtni o‘z tasarrufiga kiritadi va xazinadan qo‘shinga, qo‘shin boshliqlariga in’omlar ulashib, Abdulatif Mirzoga qarshi qo‘shin yo‘llaydi. 1447-yil 29-aprel shanba kuni Abdulatif Mirzo Nishopur yaqinida to‘satdan Aloud-Davla Mirzo qo‘shiniga duch kelib, mag‘lubiyatga uchraydi va o‘zi asir olinadi. Mahbuslikdan ozod qilingan malika Gavhar Shod begim mahbus Abdulatif Mirzoni o‘zi bilan birga olib, Hirot tomon yo‘lga tushadi. Malikani Jom shahrining yaqinidagi Sa’dobod mavzesida Aloud-Davla Mirzo kutib oladi. Abdulatif Mirzoni Hirotga keltirib, Ixtiyoriddin qal’asiga qamab qo‘yadilar. Shohrux Mirzoning jasadini esa Gavhar Shod begim madrasasidagi Boysung‘ur maqbarasiga dafn qiladilar. 1447-yilda Ulug‘bek Mirzo Hirotni vaqtincha qo‘lga kiritganda, otasining jasadini Samarqandga keltirib, Go‘ri Amirga dafn ettiradi.

Shohrux Mirzo vafotidan keyin taxt uchun boshlanib ketgan qonli mojarolar tepasida Gavhar Shod begim turardi. U nevarasi Aloud-Davla Mirzoni taxt sohibi qilish uchun makr-hiylalar ishlatsa-da, biroq o‘z maqsadiga erisholmaydi, qaytangga aka-uka shahzodalar orasida qonli to‘qnashuvlarni vujudga keltiradi. 1450-yilda esa taxtni Aloud-Davlaning ukasi Abulqosim Bobur Mirzo qo‘lga kiritadi, 1457-yilda Abulqosim Bobur Mirzo Mashhadga keladi. Saroyda katta shohona ziyofat beriladi. Bazm asnosida sharob ichib o‘tirgan hukmdorning ahvoli o‘zgarib, behol yiqiladi. Tabiblar muolajasi foyda bermaydi va u 36 yoshida to‘satdan vafot etadi.

Shundan so‘ng taxt uchun yana o‘zaro kurash boshlanadi. Shahzodalarning noittifoqligidan foydalangan Samarqand hukmdori Sulton Abusayid Mirzo Xurosonni bosib oladi. Sulton Abusayid Mirzo Samarqand taxtini o‘zining katta o‘g‘li Sulton Ahmad Mirzoga berib, Hirotni o‘zining poytaxti deb e’lon qiladi. Bu vaqtda malika Gavhar Shod begim 80 yoshga yaqinlashib, ancha qarib qolgan edi. Biroq qarib qolgan malika Xuroson taxtidan hali ham voz kechmagandi. Binobarin, chevarasi Sulton Ibrohim Mirzoni hukmdor Sulton Abusayid Mirzoga qarshi isyon ko‘tarishga undaydi. Malikaning bu harakatidan xabar topgan Sulton Abusayid Mirzo malikani chopib tashlashga farmon beradi.

Farmonga muvofiq, 1457-yilda Gavhar Shod begim chopib o‘ldiriladi va o‘zi qurdirgan madrasa yonidagi Boysung‘ur daxmasiga dafn etiladi.

Turg‘un FAYZIYEV

Dolzarb mavzu

INFOMADANIYATGA EKSPERTIZA KERAK(MI?)



Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi barcha mediamahsulotlarni ma’naviy ekspertizadan o‘tkazishini e’lon qildi. Bu esa jamiyat faollarining keskin bahs-munozaralariga sabab bo‘lmoqda. Ayrimlar bu qarorni axloq pardasi himoyachisi sifatida ko‘rsa, ayrimlar mediamakon nazoratchisi sifatida qaramoqda. Sababi faollar milliy mentalitet va qadriyatlar himoyachisi bo‘lishi aytilgan ekspertizaning qamrovi kengayib, senzuraga aylanib ketishidan xavotirda.

– Bugun shiddatli davrda axborotlar ko‘lami va oqimi keng. Mediamakon zamonaviy, qiziqarli va dolzarb mavzudagi xilma-xil kontentlar bilan to‘ldirilmoqda, – deydi Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi direktori Otabek Hasanov. – Lekin ularning barini sifat jihatidan ham, mazmun jihatidan ham milliyligimizga xos va mos, tarbiyaviy ahamiyati yuqori deb bo‘lmaydi. Shu bois yoshlar tarbiyasiga va milliy mentalitetimizga rahna soluvchi mediamahsulotlar tarqalishining oldini olish va ularning sofligi, milliy axloqimizga moslik darajasini tahlil qilib borish ancha muhim. Mediamakonda tarqatilayotgan materiallarning turi va janri ko‘p. Lekin ularning hammasi ham tarbiyaviy ahamiyatga ega emas. Ma’naviy ekspertiza shu kabi materiallar berilishining oldini olish, ularning sofligi va milliy axloqimizga mosligini tahlil qilib borishni maqsad qilgan.

Xo‘sh? O‘zi loyiha bandida keltirilgan “Ma’naviyat ekspertizasi” qaysi mediakontentlarni o‘z qamroviga oladi? Unda keltirilishicha: O‘zbekiston hamda xorijda ishlab chiqilgan va mamlakat hududida namoyish etilayotgan mediamahsulotlarning davlat siyosati, ramzlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ma’naviy-axloqiy mezonlarga zid, insoniy fazilatlarga tahdid soluvchi axloqsizlik, behayolikni targ‘ib qiluvchi holatlar mavjud va mavjud emasligi o‘rganiladi hamda mentalitetga rahna soluvchi kontentlar tarqalishining oldini olish choralari ko‘riladi. Shuningdek, ularning namoyish etilishini to‘xtatish bo‘yicha tegishli vazirlik, idora va tashkilotlarga takliflar kiritib boriladi.

Savol tug‘iladi. Rostdan bugungi o‘zbek mediamahsuloti va uzatilayotgan axborotlariga “ma’naviyat ekspertizasi” kerakmi? Yoki bu qaror shunchaki OAVga qo‘yilishi mumkin bo‘lgan senzuraning bir ko‘rinishimi?

Qonunchilikda nima deyilgan?

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ommaviy axborot vositalari faoliyatiga aralashish, ularning erkinligini cheklash, senzura o‘rnatishni aniq-tiniq qilib taqiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 81-moddasi:

“Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ish olib boradilar. Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo‘lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi. Ommaviy axborot vositalari o‘zi taqdim etadigan axborotning ishonchliligi uchun javobgardir”.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 82-moddasi:

“Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi. Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to‘sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi”. Shundan kelib chiqadiki, amaldagi qonunchilik bo‘yicha ommaviy axborot vositalari erkin va ularning ishiga aralashish mumkin emas.

Shuningdek, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonun ommaviy axborot vositalarining erkinligini kafolatlaydi. Ularning faoliyatiga aralashish va senzura o‘rnatilishini taqiqlaydi. Qolaversa, davlat OAVlarni davlat organlarining g‘ayriqonuniy qarorlaridan, ular mansabdor shaxslarining g‘ayriqonuniy harakatlaridan *(harakatsizligidan)* himoya qilishni o‘z zimmasiga oladi.

Jamoatchilikning senzura borasidagi e’tirozlaridan so‘ng Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi muhokamalar bo‘yicha munosabat bildirdi. Unda qayd etilishicha, loyiha mediamahsulotlarga senzura qo‘ymaydi, OAV, jurnalistlar, ijodkor va blogerlarning ijod erkinligiga daxl qilinmaydi. Ekspertlarning faoliyati mediakontent ishlab chiquvchilar, ijodiy guruhlar va badiiy kengashlar uchun tavsiyaviy takliflar ishlab chiqishdan iborat bo‘ladi.

Loyiha asoschilari ushbu ekspertiza mediakontentlarning yoshlar, ayniqsa maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarga ta’siridan xavotirlangan ota-onalar, ziyolilar, shuningdek keng jamoatchilik so‘rovi, talab va tashabbuslari asosida joriy qilinayotganini qo‘shimcha qilib o‘tadi.

Shuni ta’kidlab o‘tish lozim, OAV istalgan materialni auditoriyaga uzata olmaydi. Ularda ham erkinlikning ma’lum chegarasi bor. Misol uchun, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasida konstitutsiyaviy tuzumni, hududiy yaxlitlikni zo‘rlik bilan o‘zgartirishga da’vat qiluvchi, urush, zo‘ravonlik va terrorizm, diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni, shuningdek pornografiyani targ‘ib qiluvchi, davlat sirlarini oshkor qiluvchi yoki fuqarolarning shaxsiy hayotiga aralashuvchi materiallardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmasligi ko‘zda tutilgan.

Axborot – targ‘ibotchi

Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining ayrimlari nafaqat axloqsizlikni targ‘ib qiluvchi mediakontent, balki uzatilayotgan xabar va lavhalarni ham “ma’naviyat ekspertizasi”dan o‘tkazish kerak degan fikrlarni o‘rtaga tashlamoqda. Chunki o‘zbek segmentida berilayotgan axborotlarning aksar qismi jinoyat, axloqsizlik, fahshga oid xabar va lavhalar auditoriyaga uzatilayotganini sabab sifatida keltirmoqda. To‘g‘ri, yangi davr ommaviy axborot vositalari oldidagi katta ehtiyojlardan biri – auditoriyani muntazam jalb etish va ularni saqlab qolish.

Zamonaviy o‘zbek auditoriyasi esa “shablon” axborotni qabul qilishdan bosh tortmoqda. Ayrim mediatarmoqlar “Axborot – bu mahsulot, auditoriya – bu bozorning asosiy xaridori” degan qarashni ilgari suradi. Mijozning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, tovarning sifati va andazasi turli shakl hamda ko‘rinish olishi mumkin. Ammo bu makonda berilayotgan axborotlarning hammasini ham sifatli deb ayta olamizmi? Boz ustiga dunyo axborot oqimi tobora tezlashayotgan, ularning inson tafakkur tarzini o‘zgartirishiga qodir bo‘lgan bir zamonda bu kabi mahsulotlarning berib borilishi buzg‘unchilikni targ‘ib qilish vositasiga aylantirib qo‘ymayaptimi?

Internet nashrlarida kriminal ruhdagi axborotlar oqimi salmoqli o‘rinni egallashini aytib o‘tdik. Ushbu turdagi xabarlar auditoriya e’tiborini jalb etib, kishi psixologiyasiga ta’sir o‘tkazishi qator tadqiqotlar natijasida isbotlangan. Masalan, Yaponiyada psixologlar 15 yil mobaynida besh yuzdan ortiq insonning hayot tarzini kuzatdi. Dastlab ular ikki guruhga ajratilib, birinchi 250 kishiga salbiy axborotlar berildi. Qolgan 250 kishi esa bu ko‘rinishdagi axborotlardan uzildi. Natijada har kuni ikki marotaba kriminal axborot “iste’mol qilgan” birinchi toifaga mansub 250 nafar fuqaroning 220 nafari, kriminal axborot qabul qilishi cheklab qo‘yilganlar ichidan 15 nafari jinoyatga qo‘l uradi.

Tajribadan ko‘rinib turibdiki, jinoyatchilik, fahsh va axloqsiz sahnalari mavjud mahsulotlar qancha ko‘p berilar ekan, unga olib boradigan yo‘l ham shunchalik kengayib boraveradi.

Xo‘sh, bunday mahsulotlar auditoriyasini kimlar tashkil etadi? Statistikaga murojaat qiladigan bo‘lsak, aynan ushbu turdagi yangiliklarning 60 foiz o‘quvchilari 14–25 oralig‘idagi yoshlardir. Bu esa aynan kuchga to‘lgan, ko‘pchilik qismi aniq maqsadlar sari intiladigan, aksariyat qismi esa o‘ng-u so‘lning boshida turgan, tayinli kasb kori-yu qilar ishining tayini yo‘q “qoni qaynagan” payti. Shu davrda olingan axborot kelajakda ularning qanday inson bo‘lib shakllanishiga ham sabab bo‘ladi.

– Yoshlar dunyoqarashining shakllanishida ommaviy axborot vositalarining ta’siri katta, – deydi psixolog Iymona Ahmedova. – Shu yuzasidan ko‘pincha o‘z chiqishlarimizda ommaviy axborot vositalaridan kriminal ruhdagi materiallarni ko‘p bermaslikni so‘raymiz. Aksar hollarda bu mazmunda berilayotgan materiallar jinoyatchilikning oldini olishdan ko‘ra, uning targ‘ibotchisiga aylanib qolish ehtimoli katta. Sababi inson shunday mavjudotki, u qaysidir ishni qilish taqiqlansa, o‘sha ishga albatta qo‘l urib ko‘radi. Kunora veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlarda pichoqbozlik, zo‘ravonlik, jinsiy axloqsizlik haqida qator mediamahsulotlar chiqadi. Natijada xabar ruhiyati ojiz kishi ongiga teskari proporsional ta’sir o‘tkazib, jamiyatdagi salbiy voqea-hodisalarga befarq bo‘lib boraveradi. Oqibatda esa jamiyat a’zolari ijtimoiy impotentga aylanib qoladi. Ya’ni omma ijtimoiy hayotda ro‘y berayotgan voqeliklarga nisbatan befarq bo‘lib, diydasi qotib, bularning barini normal holat sifatida qabul qila boshlaydi.

“FFF” teoriyasi

O‘tgan asrda yashagan Portugaliya diktatori Antoniu di Salazar OAV uch yo‘nalishda jamiyat a’zolarini yemirishga qodir degan qarashni ilgari surgan. 48 yil davomida mamlakatni yakka o‘zi boshqarib kelgan rahbardan qanday qilib hukumatni qo‘l ostida ushlab turganini so‘rashganida, diktator “TRES F” ya’ni “3 F” deya javob beradi. Football *(futbol)*, Fado *(musiqa)*, Fatima *(din)*. Yillar o‘tib bu teoreyadagi Fatima *(din)* unsurining o‘rnini Fiyesta, ya’ni o‘yin-kulgi elementi egallaydi.

Bu teoriyaning asosiy jihati shundaki, unda jamiyat dastlab futbol fanatlariga aylantiriladi. Ikkinchi bosqichda millat zehniyatiga ma’lum bir maqsadga qaratilgan turkum musiqalar singdirib boriladi. Uchinchi “Fiyesta” bosqichida har xil bema’ni shoular, teleko‘rsatuvlar, aksiyalar ko‘payadi. Ko‘zlangan maqsad esa faqat biznes. OAVning o‘z mahsulotlarini pullashi esa birinchi o‘ringa chiqadi. Bu bosqichni iste’molchilar jamiyati ham deyish mumkin. Mazkur teorema targ‘ibotchisi sifatida OAV katta qudratga ega ekanini payqash mumkin.

Xulosa

Amerikalik olim Elvin Toffler “Uchinchi to‘lqin” asarida “Insoniyat ortda qoldirgan yo‘l uch bosqichdan iborat”, degan fikrni ilgari suradi. Ya’ni qishloq xo‘jaligi, sanoat hamda hozirgi axborot tamaddunlari. Tabiiy savol tug‘iladi: insoniyat to‘rtinchi to‘lqin davrini ham boshdan kechiradimi? Unga qanday nom beriladi? Taraqqiyot shiddati bashariyatni qayerlarga olib boradi?

Insoniyatning rivoji, farog‘ati va istiqboli haqida gap ketganda keyingi bosqich axborot maydonidagi madaniyat bilan bevosita bog‘liq bo‘lishini payqashimiz mumkin.

Sherzod EGAMBERDIYEV,
“Vatanparvar”

BRITANIYA OLIY O‘QUV MUASSASALARIDA HARBIY TAYYORGARLIK



Quruqlikdagi qo‘shinlar, harbiy havo, harbiy dengiz kuchlari hamda zaxiraviy tarkibiy qismlardan iborat Britaniya Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo‘mondoni vazifasi rasman monarx, ya’ni qirol va qirolicha zimmasida bo‘lib, amaldagi boshqaruv mudofaa vaziri tomonidan bajariladi.







Britaniya harbiy qonuniga muvofiq, ofitserlik unvoni to‘rt turdagi shartnoma bo‘yicha beriladi. Bular quyidagilar:

1. Doimiy mutaxassislar tarkibidagi ofitserlarga – 50-55 yoshdan nafaqaga chiqqunga qadar doimiy muddatga tuzilgan shartnoma.

2. Maxsus mutaxassislar tarkibidagi ofitserlarga – 16 yildan kam bo‘lmagan muddatga tuzilgan shartnoma.

3. Qisqa muddatli xizmat ofitserlariga – 3 yildan 3,5 yilgacha bo‘lgan muddatga tuzilgan shartnoma.

4. Qisqa vaqtli xizmat ofitserlariga – 4-18 oy bo‘lgan muddatga tuzilgan shartnoma.

Doimiy va maxsus mutaxassislar tarkibidagi ofitserlar tayyorgarlikni o‘quv yurtlarida to‘liq dastur bo‘yicha o‘taydilar. Qisqa muddatli xizmat ofitserlari qoida bo‘yicha fuqarolik, noharbiy ixtisosga ega mutaxassislar hisoblanadi. Ular 6 oy bazaviy harbiy tayyorgarlikni o‘tab, bilim yurtini bitiradilar.

Britaniya Qurolli Kuchlari ofitserlar korpusi harbiy unvonlariga ko‘ra, uch turga bo‘linadi:

– kichik ofitserlar – ikkinchi leytenant, leytenant, kapitan;

– katta ofitserlar – mayor, podpolkovnik, polkovnik;

– oliy ofitserlar – brigada general-mayori, general-leytenant, general.

Kichik ofitserlar tarkibi asosan qisqa muddatli xizmat ofitserlaridan tashkil topib, ular 10 yilgacha, lekin 3 yildan kam bo‘lmagan muddatda Qurolli Kuchlarda, keyinchalik 5 yildan kam bo‘lmagan muddatda zaxirada bo‘ladilar. Bular asosan, shartnoma asosida harbiy xizmatga jalb qilingan oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari, jumladan uchuvchi, muhandis va texniklar, shifokorlar, huquqshunoslar, rohiblar va boshqalar hisoblanadi. Noharbiy tayyorlov kurslari Buyuk Britaniyaning deyarli barcha universitet va ayrim texnik institutlari hamda kollejlari qoshida mavjud bo‘lib, mazkur noharbiy tayyorlash tizimida yiliga jami 150 mingga yaqin talaba va o‘quvchi ta’lim oladi.

Bu turdagi tayyorlash tejamkor hisoblanadi, chunki harbiy bilim o‘quv yurtida muhandislik ixtisosi bo‘yicha tayyorlash uchun xarajatlar o‘rta hisobda 100 ming dollarni tashkil etsa, fuqarolik, noharbiy oliy o‘quv muassasalarida bu hisob 40 ming dollarni tashkil etadi, ya’ni 2,5 martaga kam demakdir.

Britaniya oliy o‘quv yurtlari qoshida harbiy *(noharbiy)* tayyorgarlik jarayonini tashkil etish quyidagi ko‘rinishlarga ega.

O‘quv muddati o‘rtacha 3 yilni tashkil etadi, ushbu muddat oliy ta’lim muassasasida ta’lim olish muddatiga mos keladi. 2-4 soat davomiylikdagi mashg‘ulotlar har semestrda haftasiga 1-2 marta, shuningdek dam olish kunlari oliy ta’lim muassasalarida va qo‘shni harbiy qismlarda bir oyda 1-2 marotaba bo‘ladigan ikki kunlik yig‘in davomida o‘tkaziladi. O‘quv yili yozgi ta’tilda o‘tkaziladigan ikki haftalik lager yig‘inidan so‘ng yakunlanadi.

Har bir oliy o‘quv yurtlari *(universitet)* kurslarining faoliyatini “Harbiy kafedra qo‘mitasi” boshqarib, bu qo‘mita tarkibiga rektorat vakillari va harbiy departament *(noharbiy tayyorlov bo‘linmalari va kurslari)* boshlig‘i kiradi. Bu kurslarnng o‘qituvchilar va yo‘riqchilar tarkibi ushbu oliy o‘quv muassasalarini tugatgan, maxsus tanlab olingan mutaxassis ofitserlar va unter-ofitserlardan, shuningdek zaxiradagi ko‘ngilli ofitserlar tarkibidan to‘ldiriladi.

Oliy ta’lim muassasalari qoshidagi noharbiy tayyorgarlik kurslari dasturi harbiy bilim yurtlari dasturi bilan o‘xshash. Tayyorgarlikning ilk bosqichlarida qurol-yaroq va jangovar texnikalar, dala taktik mashg‘ulotlari va ruhiy tayyorgarlik bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlarni o‘zida aks ettirgan amaliy mashg‘ulotlarga asosiy e’tibor beriladi. Ko‘p hollarda jangovar tayyorgarlik bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar mamlakat hududi yoki uning tashqarisida qo‘shinlar bilan birgalikda o‘tkaziladi. Tinglovchilar Qurolli Kuchlar turlari va ularning qo‘llanilishi hamda tegishli nizomlar qoidalarini ham o‘rganadilar. O‘qishning ikkinchi bosqichi o‘rtalarida tinglovchilar harbiy tayyorgarlik bo‘yicha nazariy va amaliy testlardan iborat yozma imtihonlarni topshiradilar. Imtihonlardan muvaffaqiyatli o‘tgan talabalarga ko‘ngillilar zaxirasidagi birinchi ofitserlik unvoni berilishi mumkin.

Britaniyada ofitserlar tarkibini tayyorlash dasturini tuzish ikki yo‘nalishda amalga oshiriladi:

– umumiy tayyorgarlik bo‘yicha *(ixtisosi, tarkibidan qat’i nazar)*;

– ixtisoslashtirilgan tayyorgarlik bo‘yicha *(mansab vazifasiga tegishli ravishda)*.

Umumiy tayyorgarlik dasturida asosan quyidagi fanlar o‘rganiladi:

– harbiy san’at, shu jumladan Ikkinchi jahon urushi, zamonaviy urush-to‘qnashuvlar va boshqalar tajribasi;

– harbiy ma’muriyat, shu jumladan Qurolli Kuchlarni tashkil etish va harbiy qonunchilik asoslari, bu asoslarda asosiy diqqat “harbiy intizom tizimini” va “ofitserlarning bo‘ysunuvchi xizmatchilariga nisbatan munosabatini” o‘rganishga qaratilgan;

– taktika *(jang san’ati)* – jangovar harakatlarini olib borish hamda “texnologik yutuqlar”, shuningdek biologik, kimyoviy, yadroviy qurollar ta’sirini hisobga olgan holda qurollanish tizimidan foydalanish;

– “peshqadamlik” kurslari – boshqaruv va shaxsiy tarkibni boshqarish asoslari.

Mutaxassislik dasturida quyidagi fanlar o‘rganiladi:

– harbiy nazariya – NATO va Buyuk Britaniya doktrinalari, harbiy san’at muammolari va hokazo;

– Britaniya va xalqaro maydonda kechayotgan siyosiy hodisalar;

– harbiy texnologiyalar;

– “aloqa nazariyasi” – muloqot qilishning vositalari va usullari *(yozma va og‘zaki)* shaklda;

– muhandislik-amaliy fanlar;

– ijtimoiy fanlar.

I. YAFAROV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi katta o‘qituvchisi, dotsent

Chegara qo‘shinlarida







YOSHLAR TARBIYASI – mamlakat taraqqiyotining muhim omili

Har jihatdan barkamol, bilimli yoshlarni tarbiyalash, ularning aqliy salohiyati va zehnini bosqichma-bosqich yuksaltirib borish mamlakat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir.





Ayni shu maqsadda Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari “Yosh chegarachilar” harbiy akademik litseyida ham o‘quvchi-yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularni keng dunyoqarashga ega, turli g‘oyaviy tahdidlarga qarshi tura oladigan hamda Chegara qo‘shinlarining shonli an’analariga munosib avlodlar sifatida voyaga yetishlarini ta’minlash maqsadida, ko‘plab ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, davra suhbatlari, ko‘rik-tanlov va bellashuvlar o‘tkazilmoqda.

Ta’lim dargohida tashkil etilgan ana shunday tadbirlardan biri “Internet tarmoqlaridan to‘g‘ri va unumli foydalanish” hamda “Jaholatga qarshi ma’rifat” mavzularidagi davra suhbati tarzida o‘tkazilib, unda kelajak avlodning ongini turli yot g‘oyalar ta’siridan asrash, ularni Internet jahon axborot tarmog‘i orqali tarqalayotgan turli xavf-xatar va tahdidlardan himoya qilish, shuningdek kiberxavfsizlik borasidagi tushunchalarini yanada takomillashtirish masalalari barchaning diqqat markazida bo‘ldi.

Mazkur jarayonda soha mutaxassislari tomonidan yoshlarga internet saytlari va havolalardan to‘g‘ri foydalanishning ahamiyati, ijtimoiy tarmoqlardagi onlayn qopqonlar va ularning ta’siriga tushib qolmaslik uchun foydalanish jarayonida e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan ayrim jihatlar haqida tegishli tavsiyalar berib o‘tildi. Shuningdek, mavzu yuzasidan barcha ishtirokchilarning fikr-mulohazalari tinglanib, tegishli xulosalar chiqarildi.



Ta’kidlash joizki, litseyda yoshlarning ma’naviy salohiyatini yuksaltirish bilan bir qatorda, ertamiz egalarining jismoniy qudratini oshirish masalasi ham ustuvorlik kasb etib, mazkur yo‘nalishda olib borilayotgan ishlar doirasida “Jahonni zabt etgan jasorat” mavzusidagi davra suhbati tashkil etildi.

Unda Termiz davlat pedagogika instituti sportchi yoshlari, xususan yengil atletika bo‘yicha O‘zbekiston chempioni Nuriddin Abduqahhorov, Jahon chempioni Elmira Xudoyberdiyeva, 4 karra O‘zbekiston chempioni Shohrux Omonov, boks bo‘yicha Osiyo chempioni Muxlisa Tohirova, boks va muay-tay bo‘yicha O‘zbekiston chempioni, sport ustasi Sabina Razzoqova ishtirok etib, o‘quvchi-yoshlarga o‘zlarining erishayotgan yutuq va natijalari hamda kelajakdagi maqsadlari xususida so‘zlab berdilar.



– Bugungi tadbir yoshlarimiz uchun kelajakda juda foydali bo‘ladi deb o‘ylayman. Chunki o‘zidan uch-to‘rt yosh katta talabalarning erishayotgan muvaffaqiyatlari ularni ham ruhlantirib, yangi-yangi marralar sari undashi, shubhasiz. O‘quvchilarimizni yuksak kamolot sohiblari bo‘lishlarini istaganimiz uchun ham bu kabi tadbirlarni ko‘proq o‘tkazib turishga harakat qilyapmiz. Bunga javoban yoshlarimiz ham o‘zlarining qo‘lga kiritayotgan yuqori natijalari va yutuqlari bilan bizni quvontirib kelmoqda, – deydi litsey direktori Muzaffar Norqobilov.

Ana shunday yutuqlardan biri sifatida respublika fan olimpiadasining Surxondaryo viloyati bosqichida litsey o‘quvchilarining munosib ishtirokini qayd etish o‘rinli. Zero mazkur ishtirok o‘quvchi-yoshlarning egallagan bilim darajalarini namoyon etishi barobarida, tengdoshlari bilan sog‘lom raqobat ruhida o‘zaro bellashishlari uchun ham katta imkoniyat yaratib berdi.

Olimpiadaning yakuniy natijalariga ko‘ra, fizika fanidan “Yosh chegarachilar” harbiy akademik litseyi o‘quvchilari Azizbek Ashurov 2-o‘rinni, Samandar Sherqulov, Shamshod Abdurashidov va Alisher G‘afurov 3-o‘rinni, tarix fanidan Shohjahon Safarov 3-o‘rinni, davlat va huquq asoslari fanidan Sunnatillo Qodirov 3-o‘rinni, rus tili fanidan Sardor O‘tkirov va Zafar Dursoatov 3-o‘rinni egallashga muvaffaq bo‘ldi. Besh nafar litsey o‘quvchisi esa 2025-yilning aprel va may oylarida o‘tkazilishi rejalashtirilayotgan respublika fan olimpiadasida ishtirok etish yo‘llanmasini qo‘lga kiritdi.



Albatta, o‘tkazilayotgan bu kabi tadbirlar mamlakatimiz yangi taraqqiyot davriga qadam qo‘ygan bugungi kunda yoshlarimiz ongida Vatanga muhabbat, yurtimiz kelajagiga daxldorlik, tinch, erkin va farovon hayotning qadriga yetish tuyg‘ularini yanada kuchaytirib, ular uchun tashkil etilayotgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni sifat jihatidan mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qilishi, shubhasiz.





Mayor
Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo‘shinlari

Farovon hayot kushandasi

KORRUPSIYA – BUGUNGI KUN PANDEMIYASI

Ezgu fikrlarim ko‘p. Biroq dardim elga o‘zim istagan ohangda yetib bormaydi. Shu bois ayrim paytlari o‘zimda beixtiyor ruhan tushkunlik sezgandek bo‘laman, ayniqsa mardikor bozorlari yonidan o‘tib qolsam, ayollarimizning mardikorlikka kelganini ko‘rganimda, qalbim nihoyatda azob chekadi.



Haqiqat rahmdillikdan ustun turadi. Tanqid qilish huquqiga ega bo‘lish uchun biror-bir haqiqatga ishonish kerak. Aslida “Bunday qilma” deyish yetarli emas. “Mana bunday qil”, deb amalda ibrat bo‘lish ham kerak.

Bugun respublikamizda ekilgan har bir tup daraxt, yo‘lga yotqizilgan har bitta tosh, qurilgan har bitta imorat, yozilgan har bir kitob xalq va yurt manfaati uchun xizmat qilishi kerak. Har bir qimirlagan jonda, odamlarning muomalasida, yurish-turishida yurtning manfaati namoyon bo‘lishi lozim.

O‘tmishdagi, bugungi kundagi va kelajakdagi “korrupsiya” inson jamiyati uchun salbiy faktor bo‘lib qolaveradi. Korrupsiya – bu barcha davlatlarni turli yo‘llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illat. Korrupsiya hayotimizning barcha pog‘onalarida mavjud va hamma sohalarni o‘z ichiga qamrab olgan.

Korrupsiya illati milliy axloqimizga, demokratiya va huquqqa katta putur yetkazyapti. Davlatda inson huquqlari buzilishiga, axloqsizlik alomatlarining rivojlanishiga, fuqarolarning befarq bo‘lib qolishlariga olib kelyapti. Yurtning ma’naviy va moddiy taraqqiyotiga o‘lchab bo‘lmaydigan zarar yetkazilyapti. Oqibatda taraqqiyot kerakli darajada rivojlanmayapti, u insonlar orasida bo‘lgan adolatni, oriyatni, mehr-oqibatni so‘ndirib boryapti.

Oddiy qilib aytsak, yurtimizdagi korrupsiya – davlat va jamiyat rivojiga, xalqning adolatga, ertangi istiqbolga bo‘lgan ishonchiga jiddiy ziyon yetkazadigan xavflardan biri. Bugungi kunda korrupsiya botqog‘iga botmagan bironta davlatning o‘zi yo‘q.

Shuning uchun dunyodagi har bir mamlakat korrupsiya balosi bilan samarali kurashishi uchun, o‘zining ichki voqeliklaridan kelib chiqib, o‘z strategiyasini va korrupsiyaga qarshi kurashish choralari tizimini tanlashi kerak. Ushbu zararli illatni bartaraf etish bo‘yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, hanuzgacha u bartaraf etilmayapti.

Jahon mamlakatlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi mamlakat yetakchisi shaxsan korrupsiyaga qarshi kurashda mustahkam iroda va sobitqadamlik qilsa, ibratli bo‘lsa, o‘sha mamlakatda siyosiy barqarorlik, demokratik tamoyillar, inson huquqlari ta’minlanadi, iqtisodiyot o‘sadi, xalq farovon va erkin yashaydi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev davlat boshqaruviga kelganidanoq korrupsiya va davlat amaldorlarining o‘zboshimchaligiga qarshi murosasiz kurashni boshlab yubordi. Bu borada uning ilk qadamlaridan biri 2017-yil 3-yanvarda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunning imzolangani bo‘ldi. Prezidentimiz O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo‘shma majlisidagi “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi ma’ruzasida “Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo‘l qo‘ymaslik, jinoyatga jazo, albatta, muqarrar ekani to‘g‘risidagi qonun talablarini amalda ta’minlash bo‘yicha qat’iy choralar ko‘rishimiz zarur”, deb bejiz ta’kidlamadi.

Korrupsiya virusi adolat, demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, yurt taraqqiyotiga, xalqaro iqtisodiy munosabatlarga to‘sqinlik qiladi, kam ta’minlangan insonlarning hayot sifatini yomonlashtiradi va boshqa axloqqa zid bo‘lgan hodisalar ildiz otib gullashi uchun sharoit yaratib beradi. Shu sababli barcha vijdonli insonlar korrupsiya illatiga qarshi birgalikda qonuniy kurash olib borishimiz lozim.

Jamiyatda korrupsiya quliga aylangan amaldor ko‘paysa, xalqning davlatga hamda rahbarlarga bo‘lgan ishonchiga jiddiy putur yetadi. Korrupsiya bilan samarali kurashib, uni keskin kamaytirdik deb yolg‘on bilan o‘zimizni aldamasligimiz kerak.

Oshkoralik shunday bir tig‘ki, o‘zi yetkazgan jarohatni o‘zi davolaydi. Agar biz hatto achchiq va og‘ir haqiqatni ham to‘ppa-to‘g‘ri aytishdan qo‘rqmasak, biz hamma narsani va har qanday qiyinchiliklarni yengishni o‘rganamiz.

Bugungi kunda yurtimizning taraqqiyotiga jiddiy to‘siq bo‘lib, jamiyat rivoji, sohalar yuksalishiga bevosita tahdid tug‘diradigan asosiy illat bu korrupsiyadir. Bu dardni maksimal darajada kamaytirish uchun huquqiy choralarni tubdan o‘zgartirish kerak. Korrupsiyaga qarshi qonunlar shunaqa bo‘lishi kerakki, unga amal qilmaslik va uni poymol qilishga bironta fuqaroda imkoniyat bo‘lmasin. Bu qonunning bajarilishi yuklatilgan xodimlarning ongiga yuqori huquqiy madaniyat va shu qonunning sodiq xizmatkori sifatlari singdirilgan bo‘lishi shart. Korrupsiyaga qarshi kurashish ayovsiz olib borilsa axloqiy, iqtisodiy munosabatlar sog‘lomlashadi, davlat tizimi intizomi pastdan yuqoriga qadar mustahkamlanadi, xalqning ishonchi oqlanadi.

T. MAMATOV,
Qurolli Kuchlar Kichik mutaxassislar tayyorlash markazi katta o‘qituvchisi

Qaror va ijro

Samaradorlikka erishishga e’tibor

BMT Bosh Assambleyasining 2003-yil 21-noyabrdagi rezolyutsiyasiga muvofiq, 9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kuni sifatida e’lon qilingan va xalqaro jamiyatda bu kun keng nishonlanib keladi. Jumladan, bu illatga qarshi kurashda O‘zbekiston Respublikasining tutgan o‘rni ham e’tiborga sazovor.



Yurtimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan ishlarning samaradorligi va natijadorligini oshirish, takomillashtirish, muhim ijtimoiy masalalarga oid ochiq ma’lumotlar ko‘lamini yanada kengaytirish, ulardan to‘siqlarsiz foydalanishni ta’minlashga qaratilgan qaror va farmonlar tasdiqlanib, ular asosida davlat dasturlari, yo‘l xaritalari, loyihalar va bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etildi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi farmoni bilan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2023–2024-yillarga mo‘ljallangan davlat dasturi tasdiqlandi. Bunga ko‘ra, Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligi tomonidan mazkur davlat dasturining 19-bandida ko‘rsatilgan vazifalarning ijrosini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, vazirlik tasarrufidagi barcha ta’lim tashkilotlariga ijro uchun yetkazildi.

Yuqoridagi qonunlar va normativ hujjatlar asosida institutimizda hozirgi kunda “Komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish” bo‘yicha jamoatchi ishchi guruh va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha koordinator belgilanib, ular tomonidan korrupsiyaviy holatlar, xavf-xatarlar va ularni barvaqt bartaraf etish yuzasidan maqsadli ishlar amalga oshirilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida olib borilayotgan tadbirlar davomida ishlarning samaradorligini oshirish va faoliyatda huquqiy asoslangan jarayonlarni mustahkamlash maqsadida ishchi guruh a’zolari, yurist-konsult bilan birgalikda ishlarning olib borilishi ta’minlanib, faoliyat davomida korrupsion holatlarning oldini olish borasida qator ishlar tashkil qilindi.

Institutda faoliyat yuritayotgan barcha xodimlar va fakultet tinglovchilari uchun kafedralarning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati borasidagi bilimlari yuzasidan tajribali professor-o‘qituvchilar tashabbusi bilan muntazam ravishda korrupsiyaga oid huquqiy savodxonlikni oshirish maqsadida seminarlar va tushuntirish ishlari olib borilishi yo‘lga qo‘yildi.

Davlat xaridlari sohasida shaffoflik va qonuniylikni ta’minlash, korrupsiyaviy holatlarning oldini olish maqsadida institutda tender tanlovlari komissiyasida ishtirok etish va mazkur yo‘nalishda kontragentlarning ishonchliligini tekshirish hamda byudjet mablag‘laridan maqsadli foydalanish, ular ustidan monitoring qilish ishlarini olib borishi tashkillashtirilgan.

2024-yilning 5-iyunida “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonun tasdiqlanib, joriy yilning dekabr oyidan kuchga kirdi. Mazkur qonun kuchga kirgunicha manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish va ularni tartibga solish yuzasidan joylarda ko‘p muhokamalar qilindi. Endi qonun amalda bo‘lgani holda, biz ham uni jamoat orasida to‘g‘ri talqin qilib, o‘z faoliyatimizda joriy etishimiz lozim bo‘ladi.

Z. XUDAYBERDIYEV,
Professional ta’limni rivojlantirish instituti direktori, professor

Illat

DEVOR OSHGAN MALOMAT

Hikmatli kitoblarda hikoya qilinadiki, bir ayol o‘ng tomonidagi qo‘shnisidan mehr-muruvvatini darig‘ tutmasdi. Qozonida taom pishsa ko‘ngli buyurarkan: “Bir kosa ovqatingda qo‘shningning haqqi bor?” Ayol hamisha devor osha qo‘shnisiga nimalardir hadya etar, payti kelsa uning yaxshi-yomon kunlarida ham og‘rinmay xizmat qilardi. Bir kuni ayolning boshi yostiqqa tegdi-yu, qaytib o‘rnidan turmadi.

– Ey Parvardigor, – ayolning mijjalaridan yosh sizib chiqardi, – omonatingni olmay tur, men hali qo‘y so‘yib qurbonlik qilolmadim, elga xayr-ehson ko‘rsatmadim. Fursat bersang, ana shu amallarni bajo keltirsam!

Ayolning iltijolarini eshitib turgan sahobalardan biri aytibdi: “Ey ojiza, sen har chorshanba kuni yon qo‘shningga bergan arzimas hadyang ham yuzta qo‘y so‘yib Alloh yo‘lida qilingan ehsonning savobi bilan barobardur”, debdi.

Hikoyatdan ma’lum bo‘ldiki, shu birgina so‘z ayolga ikki dunyosi uchun in’om etilgan ajr-mukofotdir. Qaniydi ana shu ayolga ko‘rsatilgan karam hamma ayollarimizga ham nasib etsa. Ming afsuski, oramizda devorlar osha hadyalar emas, bir-birlariga tuhmat, malomat, qahr-g‘azab toshlarini uzatadigan qo‘shni ayollar ham yo‘q emas.

Qo‘shnisidan shikoyat qilgan Karomatxon ismli ayolning ko‘ngil hasratlariga bir quloq tuting-a:

“Eshigining oldidagi krandan suv olsam, o‘zidan o‘zi darrov yugurib chiqadi. Bolasi qizlarimning yo‘lini to‘sib haqorat qiladi. El-yurtdan andisha qilib, o‘zimni bossam “andishaning otini qo‘rqoq” qo‘yib oldi. Oxiri chidamay mahalla raisiga, melisaga arz-dodimni aytdim. O‘shandan keyin o‘rtamizdagi munosabat battar yomonlashdi. Hatto u meni buzuq ayolga chiqardi. Bir kuni qo‘shnim Latofat shitob bilan kelib yuzimga zarb bilan urdiki, ko‘zim kosasidan chiqib ketay dedi. Keyin yana to‘xtamay yuz-ko‘zimga chang solaverdi. Holdan toyganimdan foydalanib itarib yuborgan edi, gandiraklab borib yo‘l chetidagi beton bo‘lagiga boshim bilan yiqildim. Bir oy shifoxonaning jonlantirish bo‘limida yotdim. Ammo dard qurg‘ur hech chekinmadi. Do‘xtirlarning aytishicha, orqa miyam shikastlangan ekan. Hamon boshim og‘riydi. Ba’zida dunyo ko‘zimga qorong‘u bo‘lib ketadi. Latofatga o‘xshagan qo‘shnilarga ham Xudoning kuni bormikin?”

Qarang, ikki qo‘shni kelisholmay qolibdi. Yon-atrofdagilar bo‘lgan voqeadan xabardor bo‘lsalar-da, ularni yarashtirib qo‘yishga harakat qilishmabdi. O‘rtadagi kelishmovchilik avj olib, ikkala ayol yosh bolalardek yumdalashishgacha boribdi. Ular katta ko‘chada yoqalashsa-da, hech kim parvo qilmagan. Eng achinarlisi, bu voqeani hamma darvoza tirqishidan mo‘ralab tomosha qilgan. Ehtimol, mahalla faollari ularning o‘rtasiga tushganida bu noxush hol yuz bermasmidi.

Shu o‘rinda o‘zim guvohi bo‘lgan bir voqeani so‘zlab beray. Ikki qo‘shni urishib-talashdi, yumdalashdi, bu ham yetmagandek bir-birlarining ustidan arz-dod qilib bormagan idoralari qolmadi. Muammolariga faqatgina sudda nuqta qo‘yilishini bilishgach, biri ikkinchisini sudga berdi. Janjallashishga, sudlashishga nima sabab bo‘lgan ekan dersiz? Janjalning sababi bir qarich yer. Qishloqda-ku odamlarning tomorqasi bor, shuning uchun yerga nazarlari to‘qdir. Ammo shaharda kaftdek yer ham talash. Ayrim qo‘shnilar bir-birlariga “yuzingda ko‘zing bormi, ertaga yana qanday qo‘shnichilik qilamiz”, demas ekan.

Yer talashgan ikki qo‘shnining murosasizliklari ularning erlariga ham, farzandlariga ham o‘tib, o‘rtadagi kelishmovchilik kuchayibdi. Ajablanarlisi shundaki, qo‘shnilar ham ikki guruhga bo‘linib olishibdi. Ular sud zalida bir-birlariga yovqarash qilib qarab qo‘yishadi. O‘rtada esa sudya gapirayotgan har bir guvohning so‘zini diqqat bilan tingladi. Hamma o‘zicha haq. Janjalga, sudlashishga bahona



bo‘lgan bir qarich yerni talashib, sud zalida bir-biriga haqoratomuz so‘zlarni aytayotgan qo‘shnilarga qarab turib bir narsani o‘ylab qoldim. Sud ham tugaydi. O‘sha talashilayotgan yer esa kimgadir tegadi. Lekin ular ertaga qaysi yuz bilan yana qaytib qo‘shnichilik qilarkin? Qaysi yuz bilan bir-birining issiq-sovug‘ida turarkin?

Xalqimiz “Qo‘shning tinch – sen tinch”, “Yon qo‘shning – jon qo‘shning”, deb bejiz aytmagan. Darhaqiqat, bu gaplar xo‘p topib aytilgan. Oramizda shunday qo‘shnilar borki, hamma ularning inoqliklariga havas qiladi. Qo‘shnisining yaxshi-yomon kunida qarindoshidan-da ziyoda xizmat qiladi. Shunday ekan, bir-birimizning dilimizni og‘ritishdan ne hojat! Nega endi bizlar ham hikoyatdagi ayoldek qo‘shnichilik qila olmaymiz? Axir ahillik, totuvlik, murosa bor joyda qut-baraka bo‘ladi.

YORQINOY

Ibrat

HOVLI OLMA, QO‘SHNI OL



Avtobusda yonimdagi bo‘sh joyga anchadan buyon ko‘rishmagan dugonam o‘tirdi. Ikkimiz ham xursand bo‘ldik. O‘tgan vaqtlarni esladik. O‘sha kezlar u o‘z uyi bo‘lishini juda orzu qilardi. Gap orasida bu haqda ham so‘radim.

U esa bir boshdan gapira ketdi:

– O‘qishni bitirib ishga kirdim, kunduzi ishladim, kechqurunlari tikish qildim. Ukam yosh bo‘lsa-da, ustachilik qilib, pul topdi. Onam ham qarab turmadilar. Xullas, birgalashib kerakli mablag‘ni yig‘dik. Sebzordan bir uyni mo‘ljalladim. Uy egasi bilan kelishdik. Uyni ko‘rdim, yaxshi, xonalari keng, shahar markazida joylashgan, ta’mirga muhtoj emas. Ammo qo‘shnilari yaxshi emas ekan deb, onam ko‘nmadilar. Onamga: “Ko‘p qavatli uy bo‘lsa, qo‘shnilarni ham onda-sonda ko‘rsak, ular bilan nima ishimiz bor. Hovli bo‘lsa, boshqa gap edi”, dedim. “Yomon hamrohdan ajralib qutulish mumkin, ammo yomon qo‘shnidan ko‘chib ketmasdan qutulib bo‘lmaydi. Qizim, hali yoshsan, ko‘p narsani bilmaysan. Yaqiningdagi insonlar yaxshi bo‘lsa, xotirjam yashaysan”, dedilar. Keyin boshqa uy topdim. Uy shahar markazidan uncha uzoq emas, ammo biroz ta’mirtalab edi. Asosiysi, qo‘shnilar vijdonli, insofli juda yaxshi insonlar ekan. Onam shu uyni olamiz, deb turib oldilar. Hozir yangi uyimizni onamning nomiga rasmiylashtirib kelyapmiz, – dedi.

Dugonam yangi manzilini aytib, borishimni tayinlagancha, bekatda tushib qoldi.

Ota-bobolarimiz safarga chiqishdan oldin yo‘ldosh, uy sotib olishdan burun qo‘shni tanla, deb bejiz aytishmagan. Gohida uzoq qarindoshdan yaqindagi yaxshi qo‘shni ming chandon afzal bo‘ladi, kuniga yaraydi. Bu fikrni tasdiqdlovchi misollar hayotda ko‘p. Yaxshi qo‘shni yo‘g‘ingizni to‘ldiradi. Eshigingizga sovchi kelsa, aybingizni yashirib, fazlingizni oshiradi. Yomon qo‘shni esa tinimsiz urush-janjal qiladi, hovlingizdan bir gap qulog‘iga chalinsa, ko‘chaga yoyadi. G‘iybat qilib obro‘yingizni to‘kadi.

“Hovli olma, qo‘shni ol”, deganlari naqadar to‘g‘ri. Alloh barchamizni yaxshi qo‘shnilarga ro‘para qilsin.

Feruza SOLIYEVA



OLIMPIADA CHEMPIONI BO‘LISHNI ISTARDIM, AMMO...

Yoshligimizda tumanimiz markaziga dorboz keldi desa, albatta, borib ko‘rgimiz kelar edi. Ayniqsa, polvonlarning 24-32 kilogrammli toshlarni boshi uzra aylantirib, tomosha ko‘rsatishi yig‘ilganlarga zavq bag‘ishlardi. Kuchlari bilaklariga sig‘mayotgandek ko‘ringan baquvvat polvonlar o‘sha davr yoshlari uchun sportga ishtiyoq uyg‘otgan bo‘lsa, ne ajab?

Bugungi qahramonimiz Sanjarbek Inomov ham tosh bilan “tillashish” bo‘yicha bizni bir zamonlar lol qoldirgan polvonlardan sira qolishmaydi. Sanjarbekning jussasi ancha kichik, 68 kilogramm vaznda. Hatto uni ko‘chada ko‘rib qolsangiz sportchi ekaniga ham shubha qilasiz. Ammo Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrugda kontrakt bo‘yicha xizmat qilayotgan qahramonimiz kichik serjant Sanjarbek Inomov 32 kilogrammli toshning ikkitasini boshi uzra 221 marotaba ko‘targanini inobatga olsak, polvonlar uchun jussaning ahamiyati katta emasdek.

Qahramonimiz 21 yoshda bo‘lishiga qaramay, erishgan natijalari tahsinga loyiq. Sanjarbek Inomovni Olimpiada chempioni bo‘lish istagi tark etmaydi. Biroq buning imkoni bo‘larmikan.

YUNON-RUMDAN TOSH KO‘TARISHGA

– Bolaligimdan sportga bo‘lgan mehrim o‘zgacha bo‘lgan. Shuning uchun yakkakurash turlaridan yunon-rum bilan shug‘ullanganman. Musobaqadagi doimiy mag‘lubiyatlar meni charchatgan. Nazarimda mashg‘ulotlarda yaxshi qatnashardim. Murabbiy tomonidan berilgan topshiriqlarni to‘g‘ri bajarardim. Ammo natija kutilganidek bo‘lavermasdi. Ehtiyotsizlik sababmi, g‘alabaga bo‘lgan ishtiyoqdanmi, bilmadim, qaltis harakat orqali yelkam singan. Ancha muddat mashg‘ulotlarga borolmadim. Musobaqalar esa davom etardi... Shunday kunlarning birida yana tatamiga qaytdim. Ammo bu gal ham o‘sha yelkam sindi. Ruhiy tushkunlik meni qiynardi. Vaqt esa o‘tib borardi. Shunda bobom sportning tosh ko‘tarish yo‘nalishida o‘zimni sinab ko‘rishimni maslahat berdi. Tosh ko‘tarishga oid kitoblarni topib, meni shug‘ullantira boshladi. Tasodifni qarangki, tosh ko‘tarish bilan shug‘ullanishni boshlaganimdan keyin singan yelkam biror marotaba bezovta qilmadi. Aksincha, tezda bitib ketdi. Bu paytda kollejning 1-kurs o‘quvchisi edim.



BIRINCHI MURABBIYIM BOBOM

– Har tong yugurish va badantarbiya mashqlarini bajarishni bobom qat’iy talab qilardi. Bir haftalik nazoratdagi majburiy mashqlardan so‘ng menda refleks paydo bo‘lgan edi. Endi “budilnik”dan oldin uyg‘onadigan bo‘lgandim. Bobom qo‘lto‘pi bo‘yicha sobiq Ittifoq sport ustasi bo‘lgan. Mohir to‘purar nominatsiyasida 1-o‘rinni ham olgan ekan. Sportga begona bo‘lmagan bobom bilan tosh ko‘tarish mashg‘ulotlarini o‘tkazdik. Tanaga jarohat yetkazish mumkin bo‘lgan xavfli yo‘nalishlarga kiruvchi ushbu sport turining sinoatini bobom kitoblar orqali menga o‘rgatgan. Harbiy xizmatgacha 8 karra O‘zbekiston va 3 karra Osiyo chempioni bo‘lganman. Bunda bobomning xizmatlari beqiyos.

ARMIYA TASAVVURIMDAN BOSHQACHA EDI

– Kollejni tugatganimdan keyin universitetga hujjat topshirdim. Shartnoma asosida o‘qishga kirganimni bilgach, muddatli harbiy xizmatga ketishga qaror qildim. Yigitlik burchimni Buxoro viloyatida ado etdim. To‘g‘risini aytsam, armiyaga kelgunimga qadar tasavvurim umuman boshqacha bo‘lgan. Bir yillik harbiy xizmatni “vaqt yo‘qotish” deb o‘ylaganman. Lekin vaziyat va sharoitni o‘z ko‘zim bilan ko‘rganimdan keyin fikrim butunlay o‘zgargan. Omadni qarangki, muddatli harbiy xizmatni o‘tab yurgan paytlarim ham tosh ko‘tarish bo‘yicha ikki karra Mudofaa vazirligi chempionligini qo‘lga kiritdim. Insonda xohish bo‘lsa, har joyda vaqtdan unumli foydalanishi mumkin ekan.

NAFASNI TO‘G‘RI OLISH KERAK

– Ko‘pchilik insonlar polvonlarni baquvvat ko‘rinishga ega bo‘ladi degan tasavvurda yurishadi. Aslida esa og‘irlikni bo‘ysundirishdagi eng muhim omil nafasni to‘g‘ri olish va taktika hisoblanadi. Tosh ko‘tarishda nafas olishdagi birgina xato qo‘llarni qotirib qo‘yadi. Natija doimgidan 20-30 tagacha kam bo‘ladi. Xoh dast ko‘tarish bo‘lsin, xoh siltab ko‘tarish – barchasida soha texnikasini mukammal o‘zlashtirganlik ahamiyat kasb etadi. Musobaqalarda yengil vazn toifasida ishtirok etaman. Shunga qaramay, natijalarim yomonmas. Hatto eng og‘ir vaznda qatnashgan sportchining natijasidan ko‘p natijaga erishgan paytlarim ham bo‘lgan. Aytmoqchimanki, 24-32 kilogrammli toshlarni 10 daqiqa ichida qancha ko‘tarishimiz, avvalo jismoniy chiniqqanlik, psixologik barqarorlik va nafasni to‘g‘ri olishga bog‘liq.

IVAN MARKOVGA HAVAS QILAMAN

– Hozirgi kunda tosh ko‘tarish bo‘yicha dunyoning eng kuchli sportchisi, 7 karra jahon chempioni rossiyalik Ivan Markovdir. U +90 kilogramm vaznda ishtirok etadi. Ivanning boshqalardan farqli jihati shundaki, musobaqaga ajratilgan 10 daqiqaning birinchi soniyasida qay darajada harakatni boshlasa, o‘ninchi daqiqaning so‘nggi soniyalarigacha o‘sha tempni o‘zgartirmaydi. Hatto mutaxassislar Markovning harakatlarini kompyuter programmasi orqali ham tahlil qilib chiqishgan. Natija esa boya aytganimdek 10 daqiqa davomida uning harakatlari bir xil bo‘lib chiqqan. Ivan Markov ham harbiy sportchi bo‘lgani bois u bilan ko‘p musobaqalarda ko‘rishganman. Bir gal undan charchamasligi sababini so‘raganimda, tinimsiz mashg‘ulot, to‘g‘ri nafas olish va o‘ziga bo‘lgan ishonchning yuqori ekanini aytgan edi. Mening chiqishlarimni ham kuzatar ekan, sportchi sifatida kelajagim porloqligini aytgan.

OLIMPIADA CHEMPIONI BO‘LISHNI ISTARDIM...

– Har qanday sportchi to‘rt yillikning eng nufuzli musobaqasi bo‘lgan Olimpiyadada ishtirok etish va g‘olib bo‘lishni istaydi. Ammo men shug‘ullanayotgan tosh ko‘tarish yo‘nalishi olimpiadadan olib tashlanganligiga ancha yillar bo‘lgan. Sababini jarohatlar tufayli deya izohlashgan ekan. Ammo mutasaddilar tomonidan 2028-yilda bo‘lib o‘tadigan nufuzli musobaqa shartlari orasiga tosh ko‘tarish yo‘nalishini yana qaytadan qo‘shish xususida muzokaralar olib borilmoqda ekan. Ajabmas, niyatlarimiz amalga oshib, Olimpiyadada ishtirok etish va g‘oliblik uchun kurash olib borish nasib etsa.

Sherzod SHARIPOV,
“Vatanparvar”

Sport

SUPERMOTOKROSS BO‘YICHA
eng yaxshilar aniqlandi



Joriy yil boshidan O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti tomonidan sportning texnik va amaliy turlari bo‘yicha 45 ta respublika musobaqalari o‘tkazildi. Sportning texnik va amaliy turlari bo‘yicha o‘tkazilgan respublika musobaqalarida barcha hududlardan sport terma jamoalari faol ishtirok etdi.

“Vatanparvar” tashkiloti Respublika texnik va amaliy sport turlari markazida tashkil etilgan supermotokross bo‘yicha respublika musobaqasida mamlakatimizning turli hududlaridan tashrif buyurgan sportchilar o‘zaro bellashdi. Ta’kidlash joizki, ushbu musobaqa tashkilot tizimida 2024-yilgi sport mavsumining yopilishi hisoblanadi.

Supermotokross dunyo bo‘ylab juda mashhur, shu bilan birga ekstremal sport turi hisoblanadi. Chunki sportchilar bellashadigan musobaqa trassasi qo‘pol yerlar va ko‘plab to‘siqlardan iborat bo‘ladi. Shuningdek, sportchilardan bunday joylardan yuqori tezlikda balandga sakragan holda harakatlanish talab etiladi.

Qizg‘in va shiddatli kechgan bellashuv quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

“85 sm³” sinfida:
1-o‘rin: Oybek Qobiljonov *(Navoiy v.)*;
2-o‘rin: Zufar Bahodirov *(Buxoro v.)*;
3-o‘rin: Ibrohim Rahimov *(Toshkent sh.)*.

“125 sm³” sinfida:
1-o‘rin: Elbek A’zamqulov *(Navoiy v.)*;
2-o‘rin: Saidbobojon Saidov *(Navoiy v.)*;
3-o‘rin: Ilnur Umrbekov *(Toshkent v.)*.

“ChZ 350 sm³” sinfida:
1-o‘rin: Vladimir Chetverikov *(Toshkent sh.)*;
2-o‘rin: Ruslan Xamidullin *(Toshkent sh.)*;
3-o‘rin: Shevket Suleymanov *(Toshkent v.)*.

“500 sm³” sinfida:
1-o‘rin: Bekzod Halimboyev *(Buxoro v.)*;
2-o‘rin: Emran Ablyazov *(Toshkent v.)*;
3-o‘rin: Sergey Vinogradov *(Toshkent v.)*
.
Jamoa hisobida:
1-o‘rin: Toshkent viloyati;
2-o‘rin: Toshkent shahri;
3-o‘rin: Navoiy viloyati jamoalari.

G‘oliblikni qo‘lga kiritgan va yuqori o‘rinlarni egallagan sportchilar “Vatanparvar” tashkilotining diplom va qimmatbaho sovg‘alari bilan taqdirlandi.

O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti matbuot xizmati

GIMNASTIK MASHQLAR ASOSI

Har bir inson chiroyli, baquvvat qaddi-qomat va baland bo‘yli bo‘lishni xohlaydi. Ko‘proq erkaklar keng yelka, to‘g‘ri qomat shakllantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Umurtqa pog‘onasiga foyda keltiradigan, qomatni chiroyli tutadigan bir nechta mashqlar mavjud. Bu mashqlar orasida eng samarali va foydalilaridan biri bu turnikda amalga oshiriladigan *(gimnastik)* mashqlardir.



Qaddi-qomatni chiroyli shakllantirishda va mushaklarni baquvvat qilishda ushbu mashqlarning samarasi juda katta, hatto turnikda bajariladigan mashqlar bir qator umurtqa kasalliklarini davolashga yordam beradi, bulardan biri osteoxondroz kasalligi bo‘lib, ko‘pincha bu umurtqa kasalligi yoshi katta erkaklarda ko‘p uchraydi. Bunday holatlarda turnikda shug‘ullanayotgan odam, unda 0,5-1 daqiqagacha, agar jismoniy salohiyati yuqori darajada bo‘lsa, 1-1,5 daqiqagacha osilib turishi tavsiya qilinadi. Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, turnikda me’yoridan ortiq osilib turish salbiy oqibatlarga olib kelishi ham mumkin.

Turnikda asosan quyidagi mashqlarni bajarish mumkin:

- turnikda tortilish mashqi *(qaddi-qomatni rostlaydi va mushaklarning buquvvat bo‘lishiga zamin yaratadi);*
- turnikka kuch ishlatib chiqish mashqi *(qo‘l mushaklarini rivojlantiradi va baquvvatlashtiradi)*;
- turnikda ko‘tarilib aylanish mashqi – press mushaklarini rivojlantiradi.

Turnik dastagini nafaqat sport zallarida, balki o‘z uyingiz *(xonangiz)*da ham o‘rnatishingiz mumkin shunda o‘z jismoniy salohiyatingizni kun davomida rivojlantirib borish imkoniyatiga ega bo‘lasiz.

Yuqorida ko‘rsatilgan mashqlar har bir sportchi va harbiy xizmatchining turnikda mashqlarni bajarish xususiyatini, salohiyatini oshirib, kuchlilik sifatini rivojlantiradi.

Mashqlarni bajarishning o‘ziga xosligi shulardan iborat, misol tariqasida turnikda qo‘llar yelka kengligida bo‘lishi yuklamalarni bilaklarga beradi, aksincha qo‘llarni o‘rtacha kenglikda ochib mashqni bajarsangiz *(tortilsangiz)*, bunda siz katta mushaklar, qanotlar va bitsepslarni rivojlantirishga erishasiz, shuningdek bu mashq katta mushaklarning mustahkam bo‘lishi va qo‘llar orasining keng bo‘lishini ta’minlab beradi. Agar siz muntazam ravishda rejaga asosan shug‘ullansangiz, yuqori natijalarga erishasiz.

Albatta, bu mashqlar samarali bo‘lishi uchun, mashqni bajarish texnikasini to‘g‘ri amalga oshirish lozim. Birinchi navbatda, turnik oldiga kelib, ikkala oyoqni bir tekis qo‘yib, biroz egilib, tepaga sakragan holda turnik ushlab olinadi. Qo‘llar mustahkam bo‘lishi va bosh barmoq pastdan ushlanishi, qulf sifatida xizmat qiladi va turnikni mustahkam ushlanilishini ta’minlab beradi. Turnikdan tushishda yengil sakragan holda yerga tik oyoq bilan emas, balki biroz bukilgan holda tushiladi. Nafas olish texnikasi mashqni to‘g‘ri bajarilishiga zamin yaratadi, mashqni bajarish davomida ko‘tarilishda nafas chiqariladi, pastga tushayotganda esa nafas olinadi.

Yuqorida ko‘rsatilgan barcha amallar yuqori darajada bajarilsa, mashqni mukammal va samaraliligini ta’minlaydi. Mashqni bajarish davomida xavfsizlik qoidalarini ham unutmaslik zarur. Turnikda tortilayotgan sportchining tirsakdagi bo‘g‘imlari odatiy holda bo‘lmaydi, shuning uchun xavfsizlik qoidalariga rioya qilish sportchining jarohat olmasligini ta’minlaydi. Mashqni bajarish davomida jarohatlanishning oldini olish maqsadida, turnik oldida bir kishi yordam berish uchun bo‘lishi lozim.

Turnikdagi bajariladigan mashqlar turiga – turnikda osilib turish mashqi kirib, u quyidagi foydali xususiyatlardan iboratdir:

- bel va yelkadagi mushaklarni mustahkamlaydi;
- harakat tizimidagi kasalliklarni davolaydi;
- notekis suyaklarni rostlaydi;
- umurtqadagi taranglikni yengillashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, turnikda bajariladigan mashqlar nafaqat inson sog‘lig‘i uchun foydali bo‘lib qolmasdan, u qaddi-qomatning chiroyli bo‘lishi, jismoniy yuklamalardan so‘ng organizmning tiklanishiga yordam berishi va kuch jismoniy sifatini oshirishi hamda mushaklarning mustahkam bo‘lishini ta’minlaydi.

Podpolkovnik
Toxir RAXMETOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
Jismoniy tayyorgarlik va
sport kafedrasi
katta o‘qituvchisi



ONKOLOGIK

KASALLIKLARDAN EHTIYOT BO‘LING!



Mutaxassislarning fikricha, bugungi kunda saraton kasalligi inson salomatligiga jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Ekspertlar so‘nggi yillarda Yer yuzida onkologik kasalliklar bilan kasallangan bemorlar soni oshganini ta’kidlamoqda. Shunga yarasha o‘lim ko‘rsatkichi ham baland. Jahon bo‘yicha har yili 16 million nafar saraton bilan og‘rigan bemor aniqlanadi. Eng yomoni, yildan yilga ayollar o‘rtasida onkologik kasalliklar – ko‘krak bezi saratoni, bachadon bo‘yni va bachadon tanasi raki bilan kasallanish holatlari ko‘p uchrayapti. Ko‘p hollarda ayollar shifokorlarga kechikib murojaat qilishadi. Buning sababi ham bor. Kasallik belgilarsiz rivojlanadi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti *(JSST)* ma’lumotlariga ko‘ra, har yili dunyo miqyosida 570 mingdan ortiq ayolda bachadon bo‘yni saratoni qayd etiladi, shulardan 311 ming nafari ushbu kasallik oqibatida vafot etadi. Afsuski, bachadon bo‘yni saratoni – O‘zbekistonda ayollarda uchraydigan saraton kasalliklari orasida ko‘krak bezi saratonidan keyin 2-o‘rinda turadigan kasallik hisoblanadi. O‘zbekistonda bachadon bo‘yni saratoni har 100 ming nafar ayoldan 11 nafarida uchraydi va bu kasallik ko‘proq 35-55 yoshli ayollar orasida kuzatilmoqda.

Xo‘sh, onkologik kasalliklar nega yil sayin ko‘paymoqda. Uning ilk alomatlarini qanday aniqlasa bo‘ladi? Davolash va profilaktikasi nimalardan iborat? Bugungi sahifamizda biz shu kabi savollarga batafsil javob beramiz.

KASALLIKNING KELIB CHIQISH SABABLARI

Kasalliklarning kelib chiqish sabablari bo‘yicha nazariyalar judayam keng qamrovli bo‘lib, aniq bir sababni keltirish qiyin. Gormonal statusning o‘zgarishi, stress holati, ortiqcha vazn va moddalar almashinuvi buzilishlari, ko‘pgina yuqumli kasalliklar onkologik kasalliklarning vujudga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, nasliy omillar, atrof-muhitning ifloslanishi, iqlimning global o‘zgarishi, iste’mol qilayotgan oziq-ovqat va ichayotgan suvimiz tarkibida turli sun’iy qo‘shimchalarning ko‘payib borayotgani, zararli odatlar hamda jismoniy faollikning pasayib borayotganligi kabi jihatlar ham kasallikning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, bachadon bo‘yni saratoniga 90 foiz holatlarda odam papilloma virusi tomonidan chaqirilgan infeksiyalar sabab bo‘ladi. Shuningdek, bu saraton xastaligining rivojlanishiga inson papilloma virusining onkogen turlari *(OPV)*dan tashqari, bachadon bo‘ynida virusning uzoq vaqt mavjudligi, erta turmush qurish, infeksiyalar, tez-tez tug‘ish va immunitet tanqisligi ham sabab bo‘ladi.

ALOMATLARI QANDAY?

Onkologik kasalliklar hech qanday simptomlarsiz, birorta belgilarsiz vujudga keladi. Oqibatda ularni aniqlash imkoni judayam qiyinlashadi. Kasallik qancha kech aniqlansa, kasallik darajalariga qarab ularni davolash imkoniyati ham ancha pasayadi. Onkologik kasalliklar qancha tez tashxis qo‘yilib, erta aniqlansa, ularga qarshi kurashish shuncha osonlashadi.

Onkologik kasalliklarning ko‘zga ko‘rinuvchi, ya’ni vizual joylashgan turlarining ilk belgilarini inson o‘z sog‘lig‘iga e’tiborli bo‘lsa, tez aniqlab olishi mumkin. O‘smalarning uchdan bir qismini vizual o‘smalar tashkil etadi. Ularga teri, lab, og‘iz bo‘shlig‘i, qalqonsimon bez, sut bezi kabi o‘smalar kiradi. Agar shu a’zolarda shish, tugun, bitmaydigan va og‘riqsiz yara, qon kelishi kabi belgilar paydo bo‘lsa va ayniqsa, ushbu belgilar sekin-asta kuchayib, o‘sib borsa, odatiy davo samarasiz bo‘lsa, zudlik bilan oilaviy poliklinika shifokoriga murojaat qilish zarur. Bugun yurtimizda poliklinika shifokorlarining onkologlar tomonidan doimiy onkologik ehtiyotkorligi oshirilib borilganiligi sababli ular o‘smalarning ilk belgilarini juda yaxshi bilishadi. Shubha bo‘lgan holatlarda, chuqurroq tekshirish uchun onkolog shifokorga yuborishadi.

Ichki a’zolar onkologik kasalliklarining ham qaysi a’zo zararlanishiga qarab ilk belgilari bor, albatta. Ammo ularning ko‘pchiligi spetsifik, ya’ni faqat onkologik kasalliklarga tegishli emas. Shuning uchun ham ko‘pincha boshqa kasalliklar bo‘yicha davolanib, samara bo‘lmagach, so‘ngra chuqurroq tekshirilganda onkologik kasalliklar aniqlanadi. Kuchli og‘riq paydo bo‘lishi, ichning kelmasligi, ovqatning tiqilib o‘tishi yoki umuman o‘tmay qolishi, yo‘tal bilan qon kelib hansirash, havo yetmasligi kabi belgilar, odatda, kasallikning kechki belgilaridir.

Onkologik kasalliklar erta, ya’ni 1-2 bosqichlarda mahalliy o‘sma deyiladi, ya’ni u bir a’zodan tashqariga o‘sib o‘tmagan bo‘ladi. Shu sababli odatda, belgisiz kechadi. Quvvatsizlik, ozish, biroz og‘irlik hissi, ishtaha pasayishi, tana haroratining biroz oshishi kabi umumiy belgilar bo‘lishi mumkin. Ammo bu belgilar boshqa kasalliklarda ham bo‘lgani sababli, odatda, onkologik kasalliklarga gumon qilinmaydi va eng zarur vaqt yo‘qotiladi.

Shuning uchun ayollarning bir yilda bir marta ginekolog ko‘rigidan o‘tishi kasallikni erta aniqlashga yordam beradi. Bu tekshiruvlarning samarali jihati shundaki, hujayralardagi eng kichik o‘zgarishlargacha oldindan aniqlab, vaqtliroq muolajalarni olib borish orqali ayollarda hech qanday asoratlar qoldirmasdan, bu kasallikning qaytalanishining oldini olish imkonini beradi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ayollarga bachadon bo‘yni saratoniga chalinmasliklari uchun 25-49 yosh davrlarida har 3 yilda, 50-64 yosh davrlarida esa har 5 yilda skrining tekshiruvlaridan o‘tib turishlarini tavsiya etadi. Qizlarni kelajakda bachadon bo‘yni saratoni kasalligidan saqlash uchun ularni 9-14 yosh davrida odam papilloma virusiga qarshi emlash tavsiya etiladi.

Eslatib o‘tamiz, onkologik kasalliklarning oldini olish va davolashda skrining tekshiruvlar muhim rol o‘ynaydi. Chunki skrining tekshiruvlar jarayonida kasalliklar barvaqt aniqlanadi. Barvaqt aniqlangan kasallikni esa shunga yarasha davolash ham oson kechadi.

KO‘KRAK BEZI SARATONI PROFILAKTIKASI

Ko‘krak bezi saratonining sababi aniq ma’lum emas, ammo ushbu kasallikning rivojlanish xavfini kamaytiradigan omillar mavjud. Bular quyidagilardir:

1. Faqat sog‘lom ovqatlanish tamoyillariga rioya qilish emas, balki foydali oziq-ovqatlarni muntazam ravishda iste’mol qilish tavsiya etiladi. Masalan: butguldoshlar oilasiga mansub sabzavotlar, ayniqsa karam va brokkoli, qora, ko‘k hamda qizil mevalar, pomidor, yong‘oq, sarimsoq, loviya, sabzi, o‘rik, qovoq iste’mol qilish maqsadga muvofiqdir.

2. Ismaloq tanovul qiling! Ushbu mahsulot ko‘krak va bachadon bo‘yni saratonining rivojlanish xavfini kamaytiradi.

3. Yong‘oqni unutmang! Kuniga atigi 15 gramm yeryong‘oq va yong‘oq iste’moli ko‘krak bezi saratoni va diabet kabi ko‘plab kasalliklarda o‘lim xavfini kamaytirish uchun yetarli.

4. Go‘shtni ko‘p iste’mol qilish o‘sma paydo bo‘lish xavfini oshirishi mumkinligi haqidagi keng tarqalgan qarash noto‘g‘ri bo‘lib chiqdi: 20 dan ortiq tadqiqotlar buni tasdiqlamadi. Shuning uchun go‘shtni yog‘siz va oqilona miqdorda yeyish foydadan holi bo‘lmaydi.

5. Spirtli ichimliklar bilan ehtiyot bo‘ling! Agar ayol spirtli ichimliklarni muntazam ravishda iste’mol qilsa, ko‘krak bezi saratoni xavfi taxminan 7 foizga oshadi.

6. Ayollar, ayniqsa menopauza davrida, vaznini kuzatishi juda muhimdir. Quvvat mashqlari va kardiomashg‘ulotlarning kombinatsiyasi vazn yo‘qotish va mushak massasini olishning eng samarali usuli ekanligi aniqlandi. Ayollarga haftasiga kamida 4-7 soat vaqtini sport zalida o‘tkazish tavsiya etiladi.

7. Tungi gazaklar ayollar salomatligi uchun ham xavflidir. Ertaroq ovqatlanish va tunda ovqatlanmaslik qondagi qand miqdorining barqarorligini ta’minlaydi va natijada ko‘krak bezi saratoni va diabet rivojlanishi xavfini kamaytiradi.

8. Kechasi vaqtida uxlash juda muhim. Bu melatonin ishlab chiqarish uchun shart. Chunki kechasi, ayniqsa 12 soatlik smenada ishlaydigan ayollarda ko‘krak bezi saratoni rivojlanish xavfi ortishi isbotlangan.

9. Harakat qiling! O‘troq turmush tarzi ayollarda ko‘krak bezi saratoni, tuxumdon saratoni va o‘sma rivojlanish xavfini kamida 10 foizga oshiradi.

10. Muntazam shifokor tekshiruvidan o‘tib turing! Ma’lumotlarga ko‘ra, muntazam mammogramma tekshiruvida bo‘lgan 50-69 yoshdagi ayollarda o‘simtani erta bosqichda aniqlash orqali ko‘krak bezi saratonidan o‘lish xavfi 40 foizga kamaygan.

G. XODJAMURATOVA tayyorladi.

Issiqxona – daromad manbai

YORDAMCHI XO‘JALIKLARDA hosilni yig‘ish boshlandi



O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qism va muassasalarga biriktirilgan bo‘sh yerlardan daromad manbai sifatida unumli foydalanish, tadbirkorlik faoliyatini keng tatbiq etish maqsadida parrandachilik, dehqonchilik, baliqchilik, asalarichilik, chorvachilik uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Jumladan, Shimoli-g‘arbiy harbiy okrugdagi harbiy qism va muassasalar rejaviy ta’minotida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va topshirish, shaxsiy tarkibning ovqatlanish ratsionini vitaminlarga boy bo‘lgan sifatli sarxil meva, sabzavot, go‘sht va boshqa mahsulotlar bilan ta’minlash maqsadida yordamchi xo‘jaliklar faoliyatidan unumli foydalanilmoqda.

Garnizondagi harbiy qismlardan birining moddiy ta’minot bo‘linmasida ilgari bo‘sh turgan unumsiz yerning 30 sotix maydonida 2022-yilda issiqxona qurilishi sabzavotlarni yetishtirish, ularni sotish orqali bo‘linmaning moddiy daromadini yuksaltirishga erishishga xizmat qilyapti.

Ta’kidlash joizki, issiqxona qurilgan yer maydoni oldin unumsiz qumlik yerdan tashkil topib, undan umuman foydalanmay kelingan. Yerning unumdorligini oshirish maqsadida o‘g‘itlar bilan boyitilgan tuproq olib kelinib, undan keyingina ekin ekilishi sinovdan o‘tkazilgan edi. Aytish kerakki, mazkur usul anchagina samara berib, o‘tgan yili ekilgan 8 ming tup pomidor urug‘idan serhosil daromad olindi. Ekinlarni tomchilatib sug‘orish tizimi esa suvni tejash hamda yetarli miqdorda namlikni saqlashda samarali bo‘lmoqda. Bu yilgi mavsumda esa 8 ming tup pomidor ko‘chati o‘tqazilib, mavsum boshlanganidan beri pomidorning 3 ta terimidan jami 4,2 tonnaga yaqin hosil yig‘ishtirildi. O‘tgan yili pomidorning “Turkiya-1955” turi ekilgan bo‘lsa, bu yil ancha mazali va shirali bo‘lgan “Trukiya-Azira-F1” turi ekilgan.

Harbiy qism yordamchi xo‘jalik seksiya komandiri III darajali serjant Dilshod Toshmurodovning ta’kidlashicha, issiqxonada ekilgan ekinlarni parvarishlash hamda yetilib pishgan hosilni terish uchun alohida yollanma ishchi kuchidan foydalanilmoqda. O‘tgan yilgi hosil miqdori 24 tonnani tashkil etgan bo‘lsa, bu yilgi rejada 30 tonnaga yetkazish maqsad qilingan. Asosiysi, sabzavotlar savdosidan tushayotgan daromadning barchasi harbiy qism va muassasalarni rivojlantirish, harbiy xizmatchilarga subsidiya asosida kredit ajratish, shaxsiy tarkib ovqatlanish ratsionini yaxshilashga yo‘naltirilmoqda. Qolaversa, yetishtirilayotgan meva va sabzavotlar harbiy xizmatchilar oila a’zolariga arzonlashtirilgan narxlarda taqdim etilyapti.

Shuningdek, 2023-yilda harbiy shaharcha hududidagi yana 30 sotixdan oshiq bo‘sh turgan yer maydonida bunyod etilgan issiqxona ham serhosil daromad keltirib, u yerda yetishtirilayotgan pomidor terimi allaqachon boshlangan.

Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

Ogohlik

YONG‘IN SODIR BO‘LGANDA TO‘G‘RI HARAKATLANISH TARTIBINI BILASIZMI?

Har bir harbiy xizmatchi va Qurolli Kuchlar xizmatchilari yong‘inni sezganda quyidagilarni bajarishga majbur:



– zudlik bilan “101” telefon raqami orqali favqulodda vaziyatlar bo‘limlarining yong‘in-qutqaruv bo‘linmasiga xabar berish *(xabarda voqea sodir bo‘lgan manzil, yong‘in chiqqan joy va o‘zining familiyasini aytishi lozim);*

– shaxsiy tarkibga xabar berish va ularni evakuatsiya qilish choralarini ko‘rish;

– imkon qadar mavjud birlamchi vositalar bilan yong‘inni o‘chirish choralarini ko‘rish.

Yong‘in joyiga yetib kelgan harbiy qism komandiri yoki muassasa rahbari *(mansabdor shaxs)* quyidagilarni bajarishi lozim:

– odamlar hayotiga xavf tug‘ilgan taqdirda, ularni mavjud kuch va vositalar yordamida qutqarish choralarini ko‘rishi;

– zarur bo‘lganda elektr energiyasini *(yong‘inga qarshi himoya tizimidan tashqari)* o‘chirish, yuklarni tashishga mo‘ljallangan moslamalar, agregatlar, apparatlarning ish faoliyatini to‘xtatish, xomashyo, gaz, bug‘ va suv kommunikatsiyalarini yopib qo‘yish, avariya ro‘y bergan va unga tutash xonalarning shamollatish tizimi ishini to‘xtatish, xonalar tutun bilan qoplanishi va yong‘in tarqalishining oldini olishga imkon beradigan boshqa choralarni ko‘rishi;

– yong‘inni o‘chirishga qaratilgan ishlardan tashqari, binodagi barcha ishlarni to‘xtatishi *(agar ishlab chiqarishning texnologik jarayoni bo‘yicha mumkin bo‘lsa)*;

– yong‘inni o‘chirishga jalb etilgan shaxsiy tarkibdan tashqari, barcha odamlarni xavfli hudud tashqarisiga chiqarishi;

– yong‘in-qutqaruv bo‘linmalari yetib kelgunga qadar *(obyektning o‘ziga xosligini hisobga olgan holda)* yong‘inni o‘chirishda umumiy rahbarlik qilishi;

– yong‘inni o‘chirishda ishtirok etayotgan shaxsiy tarkib tomonidan xavfsizlik talablariga rioya qilishini ta’minlashi;

– yong‘in o‘chirish bilan bir vaqtda odamlarni evakuatsiya qilish va moddiy boyliklarni himoya qilishni tashkil etishi;

– yong‘in-qutqaruv bo‘linmalarini kutib olishni va yong‘in sodir bo‘lgan joyga qisqa yo‘l bilan olib borishni tashkil etishga majbur.

Harbiy qism komandiri, obyekt rahbari *(yoki uning vazifasini bajaruvchi mansabdor shaxs)* yong‘in-qutqaruv bo‘linmasi yong‘inga yetib kelishi bilan yong‘inni o‘chirish rahbariga yong‘in joyi haqida, xonalarda odamlarning mavjudligi, yordamga muhtojlar hamda yong‘inni o‘chirishga jalb etilganlar, saqlanayotgan va ishlatilayotgan moddalar, materiallar, mahsulotlarning miqdori va yong‘inni o‘chirish bo‘yicha ko‘rilgan choralar haqida axborot berishi kerak.

Podpolkovnik O‘ktam XAITOV

Yong‘in xavfsizligi oyligi



KO‘RGAZMALI mashg‘ulot o‘tkazildi

Kuz-qish mavsumi boshlanishi bilan ehtiyotsizlik oqibatida aholi turarjoylarida turli xil yong‘inlar sodir bo‘lishi kuzatiladi. Harbiy xizmatchilarning oilalarida bunday ayanchli holatlar yuz bermasligi uchun harbiy qism va muassasalarda mutaxassislar ishtirokida turli profilaktik tadbirlar, amaliy mashg‘ulotlar tashkillashtirilmoqda.

Ana shunday tadbirlardan biri Navoiy viloyatida joylashgan harbiy qismda Favqulodda vaziyatlar vazirligi Uchquduq tumani yong‘in xavfsizligi xizmati mutaxassislari ishtirokida tashkillashtirildi.

Mashg‘ulot avvalida yig‘ilganlarga yong‘in xavfsizligi profilaktikasiga oid eslatmalar tarqatildi. Shundan so‘ng soha mutaxassislari tomonidan yong‘in sodir bo‘lgan favqulodda vaziyatlarda harakatlanish tartibi hamda o‘t o‘chiruvchi maxsus vositalardan to‘g‘ri foydalanish qoidalari amaliy tarzda ko‘rsatib berildi.

Shuningdek, xonadonlarda faqat soz holatdagi maxsus elektr jihozlaridan foydalanish zarurligi, qo‘lbola istish uskunalarini ishlatish hayot uchun xavfli ekani hayotiy misollar orqali tushuntirildi.

Shahnoza SULTONOVA

ATROF-MUHITNI ASRAYLIK!



Yoshi yetmishlarga borib qolgan ayol izg‘irin sovuqda ming mashaqqat bilan supurgan, tozalagan joyga maktab yoki universitetda ta’lim olayotganlar qo‘lidagi yelim idish, qog‘oz bo‘lagini hech istihola qilmasdan tashlab ketishiga ko‘zing tushsa, o‘z-o‘zidan jahling chiqadi. O‘zingni aybdordek his qilasan.

Farosatliligi-ku, muhokama uchun yaraydigan mavzu sifatida OAVda olib chiqishga arziydi.Ammo birovning mehnatini oyog‘osti qilishi, qadrsizlashini vijdonli inson aslo “hazm” qilolmaydi.

So‘nggi vaqtlarda ro‘y berayotgan holatlarni eshitib, eting junjikadi, kishilik jamiyati vakillariga atrof-muhitni muhofaza qilish tushunchasi yot ekanini yana bir bor anglab yetasan. Ayrim shaharliklar uy hayvonlarini parvarish qilish uchun sotib, asrab olib, keyinchalik, ahamiyatsiz, mayda-chuyda omillar tufayli ularni ko‘chaga haydab chiqarishadi. Natijada bechorahol, mustaqil ravishda ozuqa topishga qiynaladigan *(madaniylashgan)* it, mushuklar och-nahor ko‘chada daydib yurishga majbur bo‘ladi.

Ehtimol, ularga hayvonot va nabotot olami bilan qanday munosabat o‘rnatish to‘g‘risida oilasida o‘rgatishmagan, maktabida uqtirishmagandir, degan xayolga borishingiz mumkin. Ammo... 45 daqiqalik dars davomida butun boshli toliblarni dunyo ilmidan boxabar qilish *(hech ikkilanishsiz aytolamanki)* – imkonsiz! Qolversa, axloqiy me’yor, qoidalar haqida shaxsga yaqinlari, ota-onasi tomonidan tushuncha berilgani ma’qul. Ekologik tarbiyani oiladan boshlash taomilga ham to‘g‘ri keladi. Zero “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, deb bejiz aytishmagan.

Moda, zamonaviylik ortidan quvib, kitob mutolaa qilmaydigan, kezi kelganda, tarbiyaning ta’lim muassasalarida berilishini da’vo qilishga ham tayyor turadiganlar ming afsuski, asta-sekin urchimoqda.

E’tibor qaratsangiz, piyodalar yo‘lagining har 10-15 metrida axlat qutilari joylashgan. Lekin ba’zilar o‘sha belgilangan hududga chiqindilarni solib qo‘yishga ham erinishadi.

Bir necha kun avval yaqin do‘stim bilan kutilmaganda uchrashib qoldim. Salom-alikdan so‘ng xayr-xo‘shlashamanmi, desam, men bilan chaq-chaqlashmoqchiligini bildirib qoldi. Mayli, deya ildam qadam tashlashda davom etdim. Yo‘l-yo‘lakay suhbatlashib ketdik. Chanqaganini ma’lum qildi-da, sumkasidan “Coca cola” ichimligini chiqardi. Menga ichasanmi ishorasini qilganida:

– Gazli ichimliklarni uncha xushlamayman, sog‘liqqa zarar keltirishi tayin – deya javob berdim.

– Mayli, o‘zing bilasan, – deb “cola”ni ichishga tushdi. Zimdan kuzatib turgandim, bo‘shab qolgan idishni yo‘lakka tutash hududdagi maysalar ustiga uloqtirdi. Buni ko‘rib, hayratdan yoqa ushladim. Aqlli, dono, “IELTS” sertifikati sohibi sanaladigan do‘stim *(lekin ona tabiat uchun dushman)*ning sodir etgan xatti-harakatlari asl qiyofasi, saviyasini yuzaga chiqarib qo‘ygandi. Tartibga chaqirib qo‘yish maqsadida, ekologiyaga katta zarar keltirayotganini, oqibatlarini tushuntirishga harakat qildim.

– Professorga xos gaplaringni yig‘ishtir, nima qilishni o‘zim juda yaxshi bilaman! – deb gapni cho‘rt kesdi.

Shu bilan muloqotimiz yakunlandi, ortiq so‘zlashni joiz deb bilmadim. Jim ketaverdim. Qayta tanbeh berishga urinmadim. “Gapni gapir uqqanga, ma’nosini chaqqanga”.

Nafaqat umumta’lim maktablarida, balki oliygohlarda ham 45, 80 daqiqalik “sinf soati”, “guruh soati” tashkil etilgan va asosan, ichki masalalar yuzasidan mulohaza yuritiladi. Nazarimda, qo‘shimchasiga “ikkinchi oila – uy”larida darsning 10-15 daqiqasi atrof-muhit muhofazasiga bag‘ishlansa, nur ustiga nur bo‘lardi. Sal bo‘lsa-da, ekologik madaniyat shakllanarmidi!

Ulug‘bek SHAROBIDDINOV,
“Yuksalish” umummilliy harakati a’zosi

REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA

Mudofaaga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotlarida

YOSHLAR UCHUN QIZIQARLI MASHG‘ULOTLAR

O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining Xorazm viloyati kengashi tasarrufidagi “Xiva-karvon” o‘quv sport-texnika klubi jamoasi nafaqat malakali kasb egalari bo‘lgan haydovchilarni, balki ma’naviy yetuk vatanparvarlarni tarbiyalashni ham o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ygan.

Bunday ezgu ishlardan ko‘zlangan maqsad esa albatta, yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashdir. Shu tufayli bu boradagi yumushlar ko‘lamini oshirish maqsadida harbiy-vatanparvarlik targ‘iboti faol tarzda olib borilmoqda.



– Chunonchi, yoshlarni sportning texnik va amaliy turlariga jalb etgan holda ko‘rgazmali tadbirlar va sport musobaqalarini tashkil etish muhim jarayonlardan biridir, – deydi O‘STK boshlig‘i Allayor Tadjiyev. – Shu bois klub jamoasi Xiva shahridagi hamkor tashkilotlar bilan birgalikda ma’naviy-ma’rifiy va sport tadbirlarini o‘tkazib kelmoqda. Birgina shahrimizdagi maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlikdagi ishlarimizni erishilayotgan muvaffaqiyatlarimiz garovi sifatida e’tirof etishimiz mumkin. Chunki klubga tashrif buyurayotgan o‘quvchi-yoshlar uchun turli mavzularda qiziqarli mashg‘ulotlar tashkil etilmoqda. Jumladan, Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 32 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan tadbirlar ham shular sirasidan.





Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan qayta jihozlangan klubda shu kunlarda haydovchilar tayyorlash borasida ham ko‘plab ishlar qilinmoqda. Ayni paytda bu yerda “B”, “BC”, “C”, “E” toifali haydovchilar tayyorlanmoqda.

Bundan tashqari, klubda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Klub qoshida faoliyat ko‘rsatayotgan “Havo miltig‘idan o‘q otish”, “Yozgi biatlon” kabi seksiyalarda o‘ttiz nafardan ziyod iqtidorli yosh muntazam shug‘ullanmoqda.





Akbar ALLAMURODOV

BUYUK IXTIROLAR

Bolajonlar, bu gal sizlarga soatlarning paydo bo‘lish tarixi haqida ma’lumot bermoqchimiz.

Soat haqida gapirganda, vaqt o‘lchash asbobini nazarda tutamiz. Lekin vaqtni hisoblash usullari odamzodga bunday qurilmani ixtiro qilishdan ancha oldin ma’lum bo‘lgan. Masalan, quyosh chiqishi va botishi vaqtning birinchi ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lgan. Tayoq, tosh va daraxt soyasining uzayishi hamda kamayishi ham vaqtni aniqlashga xizmat qilgan. Yana yulduzlar harakati odamlar uchun ulkan soat vazifasini bajargan.



Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun

Soat qanday paydo bo‘lgan?







Qadimgi misrliklar 12 yulduzning ko‘kka ko‘tarilishiga mos ravishda tunni 12 vaqt oralig‘iga taqsimlagan. Ular kunni ham xuddi shunday bo‘lishgan. Bizning 24 soatlik kunimiz misrliklarning kecha va kunduzni taqsimlashiga asoslangan. Natijada, kunni 12 davrga bo‘ladigan bu soya yoki quyosh soati birinchi soat bo‘lgan.

Keyingi turdagisi suv va olov soatlari edi. Kertiklarga ega sham yonganida vaqt undagi yonib o‘tgan kertiklarga qarab hisoblangan. Suv soatida esa tubida kichik teshik ochilgan likopcha suvga qo‘yilgan. Muayyan vaqt o‘tgach, suzib yurgan likopcha suvga to‘lib cho‘kkan.

Taxminan 2000-yil oldin vaqt o‘lchovining yana bir turi – qumsoat ixtiro qilingan. U ikkita ichi bo‘sh shisha idishdan iborat bo‘lib, ular biridan ikkinchisiga qum quyiladigan shaklda birlashtirilgan. Yuqoridagi idish teshik orqali bir soat ichida ikkinchisiga to‘kiladigan miqdordagi qum bilan to‘ldirilgan.

Miloddan avvalgi 1400-yillarda yunon va rimliklar suv soatlarini takomillashtirish uchun tishli g‘ildirakdan foydalangan. Idishga jildirab tushayotgan suv oqimi uning ichidagi po‘kakni ko‘targan. U esa tishli g‘ildirakka ulangan. G‘ildirak asta-sekin bir soat belgisidan ikkinchisiga o‘tadigan o‘qni aylantirgan. Birinchi mexanik soatlar 1400-yildan keyin Yevropada paydo bo‘lgan. Uni kim yaratgani ma’lum emas. Bunda chilvirga bog‘langan yuk g‘altakni aylantirgan, u esa, o‘z navbatida, tishli g‘ildiraklarning o‘qlarini harakatga keltirgan. G‘ilgiraklar esa siferblatdagi soat milini aylantirgan. Yildan yilga soatlar mukammallashib, takomillashib boravergan.

XIV asrda Italiyada minoraga o‘rnatiladigan katta soatlar tayyorlangan. Bunday soatlarni odamlar navbatchilikda turib, vaqti-vaqti bilan murvatlarini to‘g‘irlab, aylantirib turishgan. Lekin shunda ham har kuni bir soatdan xatolikka yo‘l qo‘yilgan.

XVII asrda Galileo Galiley katta aniqlikka ega bo‘lgan birinchi tebranuvchi mayatnikli soatni ixtiro qildi.

Cho‘ntak soatlari 1505-yilda paydo bo‘lgan. Ammo unda ham sezilarli kamchiliklar bo‘lgan. 1571-yilda Elizabet I ga ilk qo‘lsoat sovg‘a sifatida taqdim etilgan. Qizig‘i shundaki, qo‘lsoatlar faqat ayollar aksessuari hisoblangan va bezak sifatida ishlatilgan. Urush boshlanishi bilan qo‘lsoatlariga bo‘lgan munosabat o‘zgardi. Bu aksessuardan erkaklar foydalana boshladi.

Bugun zamonaviy dunyoni qo‘l soatisiz tasavvur qilish qiyin. Hozirda egasining qadamlar soni, pulsni kuzatuvchi, uning joylashuv joyi, qo‘ngiroqlar va xabar qabul qiluvchi aqlli soatlar mavjud. Ya’ni ularning imkoniyatlari aql bovar qilmas darajada kengayib bormoqda.

Bola va olma daraxti



Qadim zamonlarda bir ulkan olma daraxti bo‘lgan ekan. Bir yosh bolakay har kuni o‘sha daraxtning oldiga kelib, uning atrofida o‘ynashni yaxshi ko‘rar ekan. U daraxtning uchiga chiqib olib, salqinida dam olar, olmalaridan yer ekan. Bola olma daraxtini judayam yaxshi ko‘rar ekan. Daraxt ham unga o‘rganib qolibdi. Oradan yillar o‘tib, bolakay ulg‘ayibdi. U daraxt oldiga o‘ynagani kelmay qo‘yibdi. Vaqt o‘tib, kunlarning birida daraxtning oldiga kelibdi. U ko‘rinishidan xafa edi. Shunda daraxt “Kel, men bilan o‘yna!” deb bolani o‘ynashga chaqiribdi. Bola esa u endi yosh bola emasligini, katta bola bo‘lganini, boshqa daraxt oldida o‘ynamasligini aytibdi. “Menga o‘yinchoq kerak, sotib olgani pulim yo‘q” debdi. Shunda daraxt bolaga: “Sen mening olmalarimdan ol-da, ularni sotib, pul to‘plagin” debdi. Bola juda xursand bo‘lib, hamma olmalarni terib olibdi va uni sotishga olib ketibdi. O‘sha-o‘sha ketganicha daraxtning oldiga boshqa qaytib kelmabdi. Daraxt bolani juda sog‘inibdi. Oradan yillar o‘tib, bola qaytib kelibdi. Daraxt yana uni o‘ynashga chaqiribdi. Shunda bola: “Mening o‘ynashga vaqtim yo‘q, oilam uchun pul topishim kerak, uyimiz uchun bizlarga shiypon kerak, sen menga yordam bera olasanmi?” debdi. Shunda daraxt: “Mening pulim yo‘q-ku, lekin sen butalarimni kesib, shundan shiypon qilishing mumkin” debdi. Shunda bola juda ham xursand bo‘libdi, daraxtning butalarini kesib, uyiga shiypon qurish uchun olib ketibdi. O‘sha-o‘sha ketganicha uzoq vaqt kelmabdi. Daraxt uni rosa kutibdi.

Yillar o‘tib, yigit keksa yoshga yetganda yana daraxtning oldiga kelibdi. Daraxt yana uni o‘ynashga chaqiribdi, u esa qarib qolganini, endi qayiq yasab dengizda dam olmoqchiligini aytibdi va undan qayiq uchun yordam so‘rabdi. Shunda daraxt uning faqat tanasi qolganini va shu tanadan kesib olib, qayiq yasab unda suzishi, dam olishi mumkinligini aytibdi. Yigit daraxt aytganiday, uning tanasini kesib olibdi va xursand holda qaytib ketibdi. Shu ketganicha qaytib kelmabdi. Daraxt esa yana yolg‘iz qolibdi. Yillar o‘tibdi, o‘sha keksa kishi yana daraxtning oldiga kelibdi. Shunda daraxt: “Uzr, senga beradigan hech narsam yo‘q, olmalarim ham, osilib o‘ynashing uchun tanam ham yo‘q” – debdi. Shunda qariya “Hechqisi yo‘q, mening ham tishlashga tishim, osilishga madorim yo‘q, men qarib qoldim” debdi. Shunda daraxt “Mening faqatgina ildizlarim qoldi”, debdi. Shunda chol: “Menga hech nima kerak emas, biroz o‘tirib dam olsam bo‘ldi, men charchadim” debdi. Daraxt: “Kel, o‘tira qol, dam ol, bu yer dam olish uchun eng zo‘r joy” deb chaqiribdi. Shunda qariya daraxtning ildiziga o‘tirib dam olibdi. Daraxt juda ham xursand bo‘libdi va ko‘zyoshlari bilan jilmayibdi.

Sahifani Zebo SARIYEVA tayyorladi.

ASKARLIK

JADIDLARNING ENG MUHIM TALABLARIDAN BIRI EDI



BOSH MASLAGI

TURKISTONni tiklash – ISTIQLOL bo‘lgan jadidlar o‘lkada davriy matbuot nashrlarini chop etish va yangi maktablarni barpo etish orqali o‘z harakatlarini boshlagan edi. Ular maorif, til, adabiyot, ziroat, tijorat, iqtisod, askarlik va boshqa masalalar bo‘yicha tarang muammolarga yechim topishga intildi. Bu muammolar orasida eng muhim talablardan biri ASKARLIK edi.

Mana ular nima degan:

“Askariy yo‘llarda zamon bizdin ko‘b ishlar talab etadur”, dedi Mahmudxo‘ja Behbudiy.

“Bizga eng avval askar kerakdir”, dedi Hoji Muin.

“Musulmonlardan ixtiyoriy polklar tashkil qilmoq kerak”, dedi Ubaydulla Xo‘jayev.

“Muxtoriyatni saqlamoq uchun kuch lozim”, dedi Abdurauf Fitrat.

“Yaqin istiqbolimizdagi baxtli kunlar uchun askar bo‘luvimiz, Vatan muhofazasiga hozirlanuvimiz lozim”, dedi Abdulla Qodiriy.

“Eski shaharga ta’lim joylari ochib, harbiy muallimlarni musulmonlardan qo‘ysun”, deyildi Eski shahar sinfiy ittifoqlar sho‘rosi qarorida.

JORIY YILDA

davlat rahbari ko‘rsatmasi bilan “Harbiy jadidlar xotirasi barhayot” nomli kitob nashr etildi. Kitobda 1924–1938-yillarda milliy armiyani barpo etish yo‘lidagi qarashlari uchun qatag‘on qilingan jadidlar, o‘zbek harbiy kadrlarining faoliyati aks etgan bo‘lib, ma’lumotlar arxiv hujjatlari va ilmiy ishlarni o‘rganish orqali jamlangan.

Nufuzli olimlar jamoasi ishlagan mazkur kitob mundarijasining o‘ziyoq o‘quvchi e’tiborini tortadi. Birinchi bo‘limi Turkiston muxtoriyati, ikkinchi bo‘limi Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi, uchinchi bo‘limi Buxoro Xalq Jumhuriyati, to‘rtinchi bo‘limi Xorazm Xalq Sovet Respublikasi, beshinchi bo‘limi O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi davrlarini qamrab olgan kitob tarixiy hujjatlar va suratlar bilan boyitilgan.

QATAG‘ON QILINGAN

o‘zbek harbiy kadrlari hayoti va faoliyati, achchiq taqdiri haqidagi hikoyalarni o‘qir ekanmiz, doktor Boymirza Hayitning “Bosmachilar”: Turkiston milliy kurashi tarixi” kitobida o‘qiganlarimiz yodga tushadi. Mazkur asarning “Musulmonlarning ozodlik uchun kurashiga qarshi musulmonlardan foydalanish” bobi shunday boshlanadi: “Sovetlar harbiy ma’muriyati faqat ruslardan foydalangan holda bosmachilarga qarshi g‘alaba qozonishi mumkin emas edi. Shuning uchun qizil armiya saflarida bosmachilarga qarshi kurashadigan turkistonlilar yoki boshqird va tatarlar kabi boshqa musulmonlar bo‘lishi kerak edi. Milliy kurashga qarshi musulmon xalqlardan askar jalb etish nafaqat harbiy zarurat, balki undan ham muhimi, bosmachilarga qarshi tashviqot olib borish orqali Turkiston musulmonlarini nazorat ostiga olish, musulmon xalqida sovetlarga nisbatan ishonch paydo qilish va shu tariqa g‘alaba qozonish maqsad qilingan edi.” Shu maqsadda “Sovet ma’muriyati 1920–1924-yillar oralig‘ida Turkistonda foydalanish uchun 30 mingga yaqin musulmonni jalb qilgan edi”. “Harbiy jadidlar xotirasi barhayot” nomli fundamental tadqiqotda ham ana shu fikrlar hujjatlar asosida o‘z isbotini topgan.



TURKISTON

muxtoriyat qo‘shini va harbiy noziri Ubaydulla Xo‘jayev, Qo‘qon, Buxoro va Xiva hududlarida kechgan ozodlik kurashlarining qahramonlari va qizil qo‘shin tarkibida xizmat qilib, qo‘mondon darajasiga yetgan Mirkomil Mirsharopov, Mirzoqul Risqulov, Ubaydulla Tolipov, Toshkenboy Azizov, Sulaymon Otayev, Sodiq Yoqubov va boshqalarning hayoti, maqsad-muddaosi, ayanchli qismati, bosqinchilarning hiylalari, XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy, harbiy vaziyat haqida qimmatli ma’lumotlarni o‘zida jamlagan kitob 5 ming nusxada “Encyclopedia world” nashriyoti tomonidan chop etildi.

Kitobga kirish so‘zlaridan birida aytilganidek, jadid bobolarimizning suronli hayoti va o‘lmas merosi avlodlar uchun mardlik, fidoyilik, sadoqat, matonat timsoli bo‘lib qoladi.

Furqat ERGASHEV

@Vatanparvargazetasi_bot
“Vatanparvar” birlashgan tahririyati bilan bog‘lanish uchun telegram bot

SHU SONNING ELEKTRON SHAKLI

VATANPARVAR

MUASSIS
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI
www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
polkovnik Alisher Boboxonov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541
Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-91
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo‘lim: 55 511-25-90

Navbatchi: podpolkovnik Gulnora Xodjamuratova
Sahifalovchi: Begali Eshonqulov
Musahhih: Sayyora Meliqo‘ziyeva

Buyurtma: V-5873
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 33 522 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “O‘zbekiston” NMIU mas’ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.

Nashr ko‘rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

“O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Sag‘bon ko‘chasi, 382-uy.

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi
www.mv–vatanparvar.uz
www.mudofaa.uz
mudofaavazirligi
mudofaavazirligi
www.youtube.com/c/UzArmiya